

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**L.N.XALIKOVA, B.A.ISKANDAROV**

**IQTISODIY XAVFSIZLIK**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan  
barcha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida  
tavsiya etilgan*

**Samarqand 2023**

**UO'K:** 338.2(075.8)

X 21

**KBK:** 65.9-98ya73

*N.L.Xalikova, B.A.Iskandarov. Iqtisodiy xavfsizlik [Matn]: o'quv qo'llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: «FAN BULOG'I» nashriyoti, 2023 - 234 bet.*

Ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiy xavfsizlik shakllari, asosiy ko'rsatkichlari, tahdidlari, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi, shaxs, korxonalar, sanoat tarmoqlari, mamlakat va mintaqalar iqtisodiy xavfsizligi muammolari, axborot xavfsizligi, xufiyona iqtisodiyot va unga qarshi kurashishning huquqiy asoslari kabi masalalarni o'z ichiga olgan.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 5232400 – Iqtisodiy xavfsizlik ta'lim yo'nalishlari talabalari hamda shu sohaga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

В этом учебное пособие рассматриваются виды экономической безопасности, ключевые показатели, угрозы, механизмы экономической безопасности, вопросы экономической безопасности для отдельных лиц, предприятий, отраслей, страны и региона, информационная безопасность, теневая экономика и правовая основа для борьбы с ним.

Учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата по направлению 5232400 – «Экономическая безопасность» и 5230100 – «Экономика (по отраслям и сферам деятельности)».

This textbook examines the types of economic security, key indicators, threats, economic security mechanisms, economic security issues for individuals, enterprises, industries, countries and regions, information security, and the shadow economy. and the legal basis for dealing with it.

The textbook is intended for undergraduate students in the direction 5232400 – “Economic security” and 5230100 – “Economy (by industries and areas of activity)”.

### **Taqrizchilar:**

O.Pardaev – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Bank moliya xizmatlari fakulteti dekani, i.f.d, professor

Sh.K.Yuldashev – Sam DU tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 - yil 19- iyndagi 11-sonli qaroriga muvofiq o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*

**ISBN:** 978-9910-9864-6-8

© N.L.Xalikova, B.A.Iskandarov. SamISI. 2023 y.

© “Fan bulog'i” nashriyoti, 2023 y.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>6</b>
<b>I BOB. “IQTISODIY XAVFSIZLIK” FANIGA KIRISH, IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA TARKIBIY ELEMENTLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, obyeksi va maqsadi .....	9
1.2. “Xavfsizlik” va “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchalarining mohiyati .....	10
1.3. Iqtisodiy xavfsizlikning turlari va tarkibiy elementlari .....	14
<b>II BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAKLLARI VA ASOSIY KO‘RSATKICHLAR.....</b>	<b>19</b>
2.1. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari.....	19
2.2. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari.....	21
2.3. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari .....	27
<b>III BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR.....</b>	<b>35</b>
3.1. Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar .....	35
3.2. Iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar.....	39
3.3. Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdidlar .....	44
<b>IV BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMI.....</b>	<b>49</b>
4.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadi va uning institutsional sahroitlarining yaratilishi.....	49
4.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlatning tartibga soluvchilik vazifalari .....	55
4.3. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari.....	57
<b>V BOB. SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MUAMMOLARI .....</b>	<b>62</b>
5.1. Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi.....	62
5.2. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar .....	64
5.3. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash yo‘llari va vositalari.....	65
<b>VI BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI IQTISODIY XAVFSIZLIKNING IJTIMOIIY INDIKATORISIFATIDA .....</b>	<b>68</b>
6.1. Ijtimoiy manfaatlar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari	68
6.2. Respublikamizdagi aholining turmush darajasi holati .....	76
6.3. Aholining turmush darajasini oshirish mexanizmi.....	81
<b>VII BOB. KORXONA (FIRMA)NING IQTISODIY</b>	

<b>XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.....</b>	<b>87</b>
7.1. Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va faoliyati qoidalari.....	87
7.2. Korxonada xavfsizligiga tahdidlar.....	94
7.3. Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.....	98
<b>VIII BOB. XO'JALIK FAOLIYATINING PUL-MOLIYA SOHASIDAGI IQTISODIY XAVFSIZLIK.....</b>	<b>106</b>
8.1. Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari, moliyaviy oqimlarga tahdidlar .....	106
8.2. Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar.....	108
8.3. Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dastaklari.....	110
<b>IX BOB. SANOAT TARMOQLARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH.....</b>	<b>115</b>
9.1. Energetika xavfsizligi va uni ta'minlash yo'nalishlari.....	115
9.2. Elektr energiyasini barqaror rivojlantirish istiqbollari .....	117
9.3. Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy ahamiyati va uni ta'minlash muammolari .....	120
<b>X BOB. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>135</b>
10.1. Axborot xavfsizligining mohiyati va unga tahdidlar .....	135
10.2. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.....	140
10.3. O'zbekistonda axborotni himoyalashning davlat tizimi.....	143
<b>XI BOB. XUFYONA IQTISODIYOT VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH.....</b>	<b>147</b>
11.1. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari .....	147
11.2. Xufyona iqtisodiyot turlari va ularga qarshi kurashish .....	152
11.3. Korrupsiyaning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri va unga qarshi kurash.....	156
<b>XII BOB. O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING QONUNIY VA ME'YORIY ASOSLARI.....</b>	<b>160</b>
12.1. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlarini .....	160
12.2. Korrupsiya qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning me'yoriy-huquqiy jihatlari .....	164
12.3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslari .....	167
<b>XIII BOB. MINTAQA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.....</b>	<b>174</b>

13.1. Mintaqa iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat .....	174
13.2. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi .....	179
13.3. O'zbekistonda mintaqani rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish.....	180
<b>XIV BOB. MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.....</b>	<b>184</b>
14.1. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning turgan o'rni va uning manfaatlariga tahdidlar .....	184
14.2. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash.....	187
14.3. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.....	189
<b>XV BOB. TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH</b>	<b>193</b>
15.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar.....	193
15.2. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq xavfsizlik va mamlakatning raqobatbardoshligi .....	196
15.3. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda milliy manfaatlarni himoyalash va iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari .....	200
<b>XVI BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSIYALAR OMILI.....</b>	<b>208</b>
16.1. Innovatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni .....	208
16.2. Iqtisodiy xavfsizlikda innovatsion tavakkallarni o'lchashlar ..	212
16.3. Davlatning innovatsion siyosati va iqtisodiy xavfsizlik .....	215
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>224</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>229</b>

## KIRISH

Mustaqillikning eng muhim sharti real sharoitlarga muvofiq keladigan darajadagi milliy xavfsizlikni ta'minlashdir.

O'zbekiston keng miqyosli islohotlar amalga oshirilayotgan yillar ichida barcha sohalarda, jumladan, milliy xavfsizlikni ta'minlash ishida ham katta va ijobiy amaliy tajriba to'pladi. Xalqlar birligi, ijtimoiy va milliy totuvlik, iqtisodiy o'sish va xalq farovonligining oshib borishi jahon tan olgan «O'zbek modeli»ning muvaffaqiyatlaridir.

Taraqqiyotning «O'zbek modeli» haqida bundan 30 yil oldin, dastlab 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida so'z yuritildi. Yurtboshimizning boqiy asarida o'zbek modelining mohiyati hamda tamoyillari berildi.

Iqtisodiy rivojlanish modeli (fran. modele o'lchov, andoza, namuna) iqtisodiyotni tashkil etish va rivojlantirish strategiyasi, maqsadlari, umumiy maqsadlari, umumiy tamoyillari ifodalangan nazariy qarashlar majmuidir.

O'zbekiston siyosatining bosh yo'nalishi bevosita xavfsizlikka qaratilgan bo'lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini mustahkamlashdan iboratdir.

Xavf-xatarlar orasida iqtisodiy sabablar birlamchidir. Chunki bozor iqtisodiyoti rivojlangani sari unga dastlab xos bo'lgan tarqoqlik, stixiyalik, alohidalashuv, o'z manfaatini ustun qo'yish kabilar cheklanadi.

Xavf-xatarni ijtimoiy beqarorlik ham hosil qiladi. Ijtimoiy munosabatlardagi keskinlik, ishsizlik va qonunga itoat etmaslik kabi hodisalar iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin.

O'zbekistonning yaqin muddat va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasi avvalo milliy iqtisodiyot ko'lamini kengaytirish va sur'atlarini oshirish maqsadini ko'zlaydi. Ushbu strategiya iqtisodiy xavfsizlikning birlamchi asosi bo'lgan ishlab chiqarishning tarkibiy yangilanish yo'llarini belgilab beradi.

Bularning barchasi makroiqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda yetakchi kuch hisoblanadi. Ma'lumki, milliy, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik masalalari dunyoning deyarli barcha mamlakatlari uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarishning texnologik darajasini innovatsiya asosida oshirib borish, mehnat unumdorligini iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylantirishga eng muhim vazifa sifatida belgilandi.

Ijtimoiy xavfsizlik davlatning o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlarini ijro etish qobiliyati hamdir.

«Ijtimoiy xavfsizlik» jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadigan ijtimoiy institutlarning barqaror faoliyat ko'rsatishidir.

Hozirgi jahon iqtisodiyot ilmidagi va mamlakatlar iqtisodiy siyosatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolariga jiddiy e'tibor berilishi ushbu mavzuning dolzarbligidan darak beradi. Hozirgi dunyoda tartib- qoidalar o'zgarib borayotgan sharoitda geosiyosiy ta'sir doiralarini «qayta taqsimlash»ga urinishlar kuzatilmoqda, bu esa xalqaro huquq universal prinsiplarining buzilishiga va jahonda strategik mavhumlikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuvning muqarrarlik xususiyati, uning bir tomondan, davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar ochib berishi, boshqa tomondan esa, iqtisodiy, oziq-ovqat, energetika, ekologiya, axborot, gumanitar xavfsizlik sohalarida to'g'ridan- to'g'ri va potensial xavf tug'dirmoqda. Bu jarayonlar dunyo mamlakatlarining bir-biriga bog'liqligining ortib borishi, global iqtisodiyotda inqirozli vaziyatlarning yuzaga kelishi, xalqaro moliya tizimining qayta shakllanishi, iqtisodiy taraqqiyot markazi Osiyo Tinch okeani mintaqasi tomon siljishi, turli xil yo'nalishdagi integratsion va dezintegratsion jarayonlarning chuqurlashuvi, strategik resurslar uchun kurashning kuchayishi, shuningdek, dunyoning turli mintaqalari rivojidadagi nomutanosiblikning oshishi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston o'zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zaxiralariga

egaligi bilan doimiy e'tibor obyektiga hamda jahondagi yirik davlatlarning strategik manfaatlari to'qnashadigan hududga aylanmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlikning ilmiy muammolar qatoridan asosiy o'rin olishi unga ta'sir etuvchi omillarning kuchayishidan kelib chiqadi. Bular jumlasiga, birinchi navbatda, globallasuv jarayonlarining kengayishi va chuqurlashib borishi kiradi. Umumbashariy globallasuv hamda ochiq iqtisodiyot milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga qattiq bog'lab qo'ydi, unga jahon xo'jaligidagi o'zgarishlar ta'sirini kuchaytirmoqda. Bu iqtisodiy kuchli bo'lmagan mamlakatlarda chetga qaramlik tahlikasini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy kuchli va zaif mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlarning saqlanishi va ayrim hollarda kuchayishiga olib keladiki, natijada globallasuv qarshi harakatlarni yuzaga chiqara boshlaydi. Globallasuv terrorizm, diniy ekstremizm va odam savdosiga xalqaro tus berganligi uchun ham iqtisodiy tahlikani yuzaga keltiradi.

Harakatlar strategiyasi kreativ, ya'ni zamonaviy voqelikni hisobga olgan siyosat va iqtisodiyot mo'ljali olingan bo'lib, «milliy iqtisodiyotimizni mustahkamlash, yurtimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish» ga qaratilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiy xavfsizlikka oid nazariy xulosalarni ijtimoiy hayot bilan bog'lashga harakat qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida bayon etilgan ilmiy qoidalarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyoti bilan bog'lashga katta ahamiyat berildi.



# **I BOB. “IQTISODIY XAVFSIZLIK” FANIGA KIRISH, IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA TARKIBIY ELEMENTLARI**

**1.1. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, obykti va maqsadi.**

**1.2. “Xavfsizlik” va “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchalarining mohiyati.**

**1.3. Iqtisodiy xavfsizlikning turlari va tarkibiy elementlari.**

*Iqtisodiy xavfsizlik” o’quv kursining asosiy maqsadi, vazifalari va mazmuni. O’quv kursining boshqa fanlar orasidagi o’rni va ahamiyati. Xavfsizlik tushunchasining mazmuni, uning jamiyat va inson hayotidagi o’rni. Milliy xavfsizlikning mazmuni va tarkibiy elementlari.*

## **1.1. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, obykti va maqsadi**

Milliy iqtisodiyotimizni turli tahdidlardan himoya qilish, jamiyat hayot faoliyatining bir qancha sohalarida kechadigan jarayonlarni, shu jumladan korrupsiya va xufyona iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘rganish va ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, chora – tadbirlar samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy, moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tizimdagi har qanday o‘zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo‘lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, unga bo‘ladigan turli tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi. Bunday sharoitda “Iqtisodiy xavfsizlik” fanini o‘rganishning ahamiyati yanada oshadi.

*“Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti* – bir tomondan iqtisodiy tizimning obyektiv himoyalanih hususiyatlari, unga xavf soladigan kuch va omillarga qarshi turish mexanizmini, ikkinchi tomondan, davlatning himoyachi sifatidagi funksiyalari, shu maqsadda tashkil etiladigan institutlarni.

*“Iqtisodiy xavfsizlik” fanining obykti* – mamlakat iqtisodiyoti va unda amalga oshadigan jarayonlar. Iqtisodiy xavfsizlik o‘rganadigan obyektlarga quyidagilar kiradi: tabiiy boyliklar; inson

resurslari, mehnatga layoqatli aholi; ishlab chiqarish fondlari; ko‘chmas mulk; moliyaviy resurslar; xo‘jalik tizimlari; mintaqalar; oila; inson.

*“Iqtisodiy xavfsizlik” fanining maqsadi* – davlat, jamiyat va shaxsning muhim xayotiy manfaatlarini tan olgan holda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar berish.

*“Iqtisodiy xavfsizlik” fanining vazifalari:*

- milliy xavfsizlik asoslari va ustuvorliklarini tushuntirish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo‘nalishlari va yo‘llarini ko‘rsatib berish;

O‘zbekistonning iqtisodiy manfaatlariga bo‘ladigan tahdidlarni hisoblash va tahlil qilish imkonini beradigan bilimlarni shakllantirish va h.k.


Ushbu fan iqtisodiy xavfsizlikka oid nazariy xulosalarni ijtimoiy hayot bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Mazkur fanni o‘rganishda Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida bayon etilgan ilmiy qoidalarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyoti bilan bog‘lashga katta ahamiyat berildi. Unda XXI asr iqtisodiyotidagi jiddiy o‘zgarishlar inobatga olindi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan yoshlarimiz jadal yangilanayotgan iqtisodiyot sharoitida yashashi va ishlashi uchun, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev saylov oldi dasturlarini bayon etganlaridek: «Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi».

## **1.2. “Xavfsizlik” va “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchalarining mohiyati**

XX asr oxirlariga kelib, “xavfsizlik” va “milliy xavfsizlik” tushunchalari tez-tez qo‘llanila boshlandi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatning og‘irligi,

yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorism xavfining kuchayishi, totalitar tuzum yemirilgandan keyin dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo‘linishi barham topgandan keyingi davlatlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o‘zagarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirdi.<sup>1</sup>

Xavfsizlik tushunchasi o‘zining obyektlari va subyektlari nuqtai-nazaridan turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ammo hozirgi davrda bu tushunchaning umumlashgan shakli milliy xavfsizlik deb ataladi.



1.1-rasm. Xavfsizlik subyektlari va obyektlari<sup>1</sup>

<sup>1</sup> «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent - 2012

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma‘naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy va boshqa omillar ta‘siri va tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o‘z ichiga oladi (1.2-rasm).<sup>2</sup>



*1.2-rasm. Milliy xavfsizlik turlari<sup>2</sup>*

Iqtisodiy xavfsizlik – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sish ta‘minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga

<sup>2</sup> «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent - 2012

oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik – bu iqtisodiyotning shunday holatidirki, bunda uning barqaror o‘sishi, ijtimoiy ehtiyojlarning maqbul darajada qanoatlantirilishi, boshqaruvning yuksak sifati, iqtisodiy manfaatlarni milliy va xalqaro darajalarda himoyalash ta’minlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning eng muhim elementi, moddiy bazasi hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot nazariyasi va siyosatshunoslikning sintetik kategoriyasi bo‘lib, iqtisodiy tobelik va mustaqillik, barqarorlik va himoyasizlik, iqtisodiy suverenitet hamda iqtisodiy bosim o‘tkazish, shantaj qilish, majburlash va tajovuzkorlik kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik jamiyat, davlat va iqtisodiyotning maqbul nisbatiga bog‘liq bo‘lgan xususiyat sifatida ifodalanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik kategoriyasini ta’riflash uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning normal ishlashini belgilovchi omillarning majmuasini aniqlab olish, shundan keyingina uni umumiy, milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan sistema sifatida hamda milliy xavfsizlikning alohida ajralgan qismi emas, balki uning uzviy tarkibiy qismi sifatida qarash kerak.

Bu borada mashhur rus olimi N.M.Kalinina shunday deydi: “Iqtisodiy xavfsizlik bu mamlakat iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash maqsadida ichki va tashqi iqtisodiy xavf-xatarlarga qarshi tura olish salohiyatidir”

Hozirgi paytda iqtisodiy xavfsizlik bu – mamlakat iqtisodiyotini doimiy barqaror rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning umummilliy majmuasi bo‘lib, u albatta davlatning ijtimoiy- siyosiy barqarorligi va mustaqilligini hamda tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish mexanizmini ko‘zda tutadi.

Ilmiy adabiyotlarda va darsliklarda «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining turlicha talqinlari berilgan. Bir guruh olimlar mazkur tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyatini,

davlat siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligini, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo‘lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining ahvoli sifatida ta’riflaydi.<sup>3</sup>

Boshqa bir guruh olimlar esa o‘rganilayotgan tushunchani hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan, milliy manfaatlarni himoya qilish va ro‘yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi, deb talqin qiladilar.

A. Isaxodjaev va A. Rasulevlarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik bu faqat milliy manfaatlarni himoya qilishdan iborat bo‘lmay, davlat hokimiyati institutlari, ijtimoiy assotsiatsiyalar, xususiy sektorning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining milliy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmini yaratish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashga tayyorligi va qobiliyatidir<sup>4</sup>.

“Iqtisodiy xavfsizlik” deganda iqtisodiyotning mamlakat ijtimoiy, siyosiy va mudofaa qobiliyatining yetarli darajasini ta’minlash imkonini beradigan holati tushuniladi. “Iqtisodiy xavfsizlik” – bu xalqning (davlat orqali) mustaqil ravishda, tashqaridan bo‘ladigan aralashish va tazyiqlarsiz o‘z iqtisodiy taraqqiyot yo‘li hamda shakllarini belgilashidir.

### **1.3. Iqtisodiy xavfsizlikning turlari va tarkibiy elementlari**

Iqtisodiy xavfsizlik o‘zining obyekt va subyektlariga ega bo‘lib, uning obyektiga deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi elementlari tushuniladi.<sup>4</sup>

Iqtisodiy xavfsizlik obyektlariga quyidagilar kiradi:

- tabiiy boyliklar;
- inson resurslari, mehnatga layoqatli aholi;
- ishlab chiqarish fondlari;
- ko‘chmas mulk;
- moliyaviy resurslar;

---


<sup>3</sup> Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. М.: ЗАО «Финстатинформ», 2000.

<sup>4</sup> Isaxodjaev A., Rasulev A. Xufyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004, 157-bet

- xo‘jalik tizimlari;
- mintaqalar;
- oila;
- inson.

Iqtisodiy xavfsizlik subyektlari quyidagilardan iborat:

- funksional va tarmoq vazirliklari hamda idoralari;
- soliq xizmatlari;
- bojxona xizmatlari;
- banklar;
- birjalar;
- sug‘urta kompaniyalari;
- qonun chiqaruvchi organlarning tegishli qo‘mita va komissiyalari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, ish va xizmatlarko‘rsatuvchilar;
- iste‘molchilar jamiyatlari.



1.3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik darajalari<sup>5</sup>

L.Abalkinning ta’kidlashicha, mamlakatning o‘z-o‘zidan

<sup>5</sup> Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. – СПб.: Питер, 2007, с. 67

rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi ayniqsa hozirgi paytda o‘ta muhimdir. Investitsiya va innovatsiyalar uchun kerakli muhitni yaratish, ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilish, xodimlarning bilim, kasb- malaka, umumiy madaniy darajasini oshirish kabilar milliy iqtisodiyotning barqarorligining zarur va muhim shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi<sup>6</sup>.

Iqtisodiy xavfsizlik va yagona davlat siyosatiga, shaxs, jamiyat va davlat xayotiy manfaatlariga mos iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa choralar tizimi orqali erishiladi.

Iqtisodiyot sohasida mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilish davlat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardir:

– iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– tovar va xizmatlarni sotish (o‘tkazish) bozorini kengaytirish;

– MDHga a‘zo mamlakatlarning umumiy iqtisodiy makonini yaratish.

Jahon tovar va xizmatlar bozoridagi raqobat kuchaygan sharoitda O‘zbekiston tadbirkorlarining manfaatlarini himoyasini kuchaytirish zarur. Mamlakatning tashqi qarzlarga bog‘liqligini kamaytirishda muvozanatlashgan kredit-moliya siyosatini amalga oshirish alohida o‘rin tutadi. Strategik tabiiy resurslar konlarini, shuningdek, telekommunikatsiyalar, transport va tovar o‘tkazuvchi tarmoqlarni xorijiy kompaniyalarga foydalanish uchun berishda cheklovlar belgilash zarur.

Iqtisodiy xavfsizlikni asosiy obyektlari-shaxs va uning xuquq erkinliklari, uning moddiy va ma‘naviy qadriyatlarini, davlat va uning konstitutsiyaviyligi turar-joy tizimi, suverenitet va xududiy yaxlitlik.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash ichki iqtisodiy siyosatda quyidagi yo‘nalishlardan foydalanishni taqozo etadi:

– iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishini kuchaytirish;

---

<sup>6</sup> Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение.// Вопросы экономики. 1994, №12, с. 45



– islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash hamda mamlakat qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning samarali mexanizmini yaratish;

– ilmiy-texnikaviy, texnologik va ishlab chiqarish salohiyatini saqlabqolish hamda rivojlantirish choralarini ko'rish;

– fan yutuqlaridan foydalanishga asoslangan tarmoqlar va ishlab chiqarishni ilgari lama rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyot tarkibidagi buzilishlarini eliminatsiya qilish;

– investitsiya va innovatsiya sohasidagi faollikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni oshirib borish;

– raqobatbardosh tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish;

– moddiy va moliyaviy resurslarni fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlariga jamlash;

– mamlakatdagi yetakchi ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlash.

Iqtisodiy xavfsizlik deganda, iqtisodiyotning shunday ahvolini tushunish kerakki, bunda unga tanazzulga yuz tutish samaradorlik darajasining pasayishi kabi xavflar taxdid qilmaydi, u inqirozga yo'liqqan taqdirda ham tezda qayta tiklanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Uning bu qobiliyati takror ishlab chiqarishni bir maromda borishini bildiradi,

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy xavfsizlik kengaytirilganki takror ishlab chiqarishni taqozo etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish, unga siyosiy va xo'jalik qarorlarini qabul qilish jarayonida normativlik xususiyatini berish, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo'lganidan xabar beruvchi indikatorlarni kiritish, ularni bartaraf etish bo'yicha samarali choralar — bularning hammasi davlat siyosatining yo'nalishlarini tashkil etadi.

Barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositasi qarshilik ko'rsatayotgan kuchga qarama-qarshi kuch yaratishdir<sup>7</sup>.

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiy rivojlanishining

---

<sup>7</sup> Косолапов Н.А. Сила, Безопасность: Современная диалектика взаимосвязей// Мировая экономика и международные отношения. 1992. № 11.С.48.

hozirgi holatiga jamiyat xo‘jalik faoliyatining har qanday sohasidagi va ishlab chiqarish munosabatlarining har qanday darajasida iqtisodiy xavfsizlik muammolarining mavjudligi xosdir. Bularning barchasi to‘la darajada respublikamizdagi vaziyatga ham taalluqli. Shuning uchun, bizningcha, jamiyatimiz iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning ustunligi umuminsoniy qadriyatlar bilan ham, O‘zbekistonning milliy xususiyatlari bilan ham ajralib turadigan ishlab chiqarish munosabatlari tizimining barcha tarkibiy qismlarida saqlanib qoladi.

### **Asosiy so‘z va iboralar**

Xavfsizlik, milliy xavfsizlik, mustaqillik, barqarorlik, o‘z-o‘zidan rivojlanishga qodirlik, risk, kompensatsion salohiyat, iqtisodiy xavfsizlik.

### **Qisqacha xulosalar**

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va O‘zbekistonning integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning, global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi sharoitida mamlakat milliy xavfsizligining muhim elementi bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik esa eng avvalo mamlakatning milliy manfaatlarini himoyalanganligini aks ettiradi.

### **Nazorat savollari**

1. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasiga ta‘rif bering.
3. “Iqtisodiy xavfsizlik” fani nima uchun o‘rganiladi?
4. “Iqtisodiy xavfsizlik” predmeti va ob‘yektini nimadan iborat?

## **II BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAKLLARI VA ASOSIY KO'RSATKICHLAR**

### **2.1. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari.**

### **2.2. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari.**

### **2.3. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari.**

*Iqtisodiy xavfsizlikning ko'rinishlari. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xavfsizligini ta'minlash shakllari. Iqtisodiy xavfsizlikni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi. Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko'rsatkichlari. Mintaqaviy darajadagi iqtisodiy ko'rsatkichlar ko'rsatkichlari. Iqtisodiy xavfsizlik xavfi chegarasi va uni belgilash zarurati va ahamiyati.*

### **2.1. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari**

Iqtisodiy xavfsizlik davlatni moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, buning uchun iqtisodiyot sohasini rivojlantirish bo'yicha barcha chora tadbirlarni amalga oshirish lozim.

«Iqtisodiy xavfsizlik» kategoriyasi umumlashma xususiyatga ega bo'lib, barqarorlikni ham, mustaqillikni ham, manfaatlarni ham qamrab oladi. Iqtisodiy xavfsizlikning juda murakkab va ko'p darajali tuzilishida «barqaror iqtisodiy o'sish» va «iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish» yetakchi o'ringa chiqib bormoqda, aynan ular mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ustunlik qiladi. U yoki bu kategoriyaning predmetini ta'riflash tadqiqot obyekti aniqlashni taqozo etadi. Ammo «predmet» va «obyekt» turli tushunchalardir. Predmet hodisaning mohiyatini, obyekt esa hodisaning o'zini ifodalaydi. Iqtisodiy xavfsizlikning obyektlarini umuman mamlakatning iqtisodiy tizimi va uning quyidagi tarkibiy qismlari tashkil etadi: tabiiy resurslar, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlari, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, xo'jalik tuzilmalari, ijtimoiy birliklar, oila, shaxs va h.k.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ichki iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq tashqi tahdidlarni ham bartaraf etishdir, bular hozir tarixiy bosqichda iqtisodiy xavfsizlikka asosiy tahdiddir.

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllarini uning

subyektlari va obyektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin. Iqtisodiyot subyektlari nuqtai nazaridam iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxonalar (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi (2.1-rasm).

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarini, ya’ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, mulkdor bo‘lish, hayotiy iste’mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo‘lish, qariganda va mehnat yo‘qotganda intimoiy ta’minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi. Bunda shaxsning bozor iqtisodiyotida iste’molchi va ishchi, xizmatchi, tadbirkor sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklari, manfaatlarining himoyalanganligi, kafolatlanganligi nuqtayi nazaridan iqtisodiy xavfsizlikning ikki turini ajratib ko‘rsatish lozim.



2.1-rasm. Iqtisodiyot subyektlarining xavfsizligi <sup>8</sup>

<sup>8</sup> Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

Korxonalar (firmalar)ning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilish jarayonida ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat, notijorat va jamoatchilik tashkilotlari mavqeyida faoliyat yuritishlari nuqtayi nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Korxonalar (firmalar)ning ixtisosligiga ko'ra xavfsizligini ta'minlashning xususiyatlari ham turlicha bo'ladi.

Xo'jalik faoliyati sohaslarida yuzaga keladigan iqtisodiy xavfsizlik turlari:

1. Ishlab chiqarish-xo'jalik sohasidagi xavfsizlik:

- energetik xavfsizlik;
- texnologik xavfsizlik va h.k.

2. Xo'jalik-iste'mol sohasidagi xavfsizlik:

- oziq-ovqat xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik va h.k.

3. Moliyaviy xavfsizlik:

- qarzdorlik;
- to'lovga noqobillik va h.k.

Iqtisodiy xavfsizlik turlarining mohiyati, vujudga kelish sabablarini o'rganish, milliy manfaatlariga tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish va uklardan muhofazalanish chora-tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatarlar va xavfsizlik darajasini aniqlash, ularning ko'rsatkich va mezonlarini o'rganish lozim bo'ladi.

## **2.2. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari**

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda hech bir iqtisodiyot va jamiyat subyekti davlatchilik katta rol o'ynay olmaydi. Davlatning eng muhim vazifasi – jamiyat barqarorligi va rivojlanishini ta'minlash, mamlakat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishdan iborat.

Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko'rsatkichlari (indikatorlari) quyidagilardan iborat:

- turmush darajasi va sifati;
- inflyatsiya sur'ati;
- iqtisodiy o'sish;

- byudjet defitsiti;
- davlat qarzi;
- jahon iqtisodiyotiga kirib borganlik;
- “xufyona iqtisodiyot” faoliyati;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi;
- bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.

Hududiy darajada umumiy ko‘rsatkichlardan tashqari yana quyidagiko‘rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikni ifodalaydi:

- aholi daromadlari;
- chakana narxlar darajasi;
- uy-joy bilan ta‘minlanganlik;
- qochoqlar, emigrantlar soni;
- hududning mamlakat YaIMdagi ulushi;
- hududning to‘lov balansi;
- eksport-import saldosi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlamay turib mamlakat oldida turgan ham ichki, ham xalqaro miqyosdagi birorta ham vazifani amalda hal qilib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining obyektlarini shaxs, jamiyat, davlat hamda iqtisodiy tizimning asosiy elementlari, jumladan iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish chog‘idagi institutsional munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Davlat strategiyasiga quyidagilar kiradi:

– O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bo‘ladigan tashqi va ichki tahdidlarning shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlariga xavf soluvchi shart-sharoitlar va omillar sifatidagi tavsifi;

– qisqa vaqt va o‘rtacha muddatli (uch-besh yil) istiqbolga mo‘ljallangan davlat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining barqarorligiga xavf soluvchi omillarni aniqlash va monitoring qilish;

– iqtisodiy sohasidagi milliy manfaatlarni ifodalovchi va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining talablariga javob beruvchi mezon vako‘rsatkichlarni aniqlash (belgilash);

– milliy iqtisodiyotning barqarorligiga raxna soluvchi omillarning ta'sirini bartaraf etuvchi yoki yumshatuvchi iqtisodiy siyosat, institutsional o'zgarishlar va zarur mexanizmlarni shakllantirish.

Davlat strategiyasining amalga oshirilishi sifat indikatorlari va miqdor ko'rsatkichlari – makroiqtisodiy, demografik, tashqi iqtisodiy, ekologik, texnologik va boshqa ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladigan aniqchora-tadbirlar tizimi orqali ketishi lozim.

Ehtimolligi eng ko'p bo'lgan tahdidlar quyidagilar ekanligi ta'kidlanadi:

1. Aholining mulkiy jihatdan tabaqalanishining ortib borishi hamda qashshoqlik darajasining ko'tarilishi, bular ijtimoiy tinchlik va totuvlikning buzilishiga olib keladi. Ijtimoiy manfaatlarning erishilgan nisbiy muvozanati quyidagi omillar ta'sirida buzilishi mumkin:

– jamiyatning tor doiradagi boylar hamda o'z kelajagiga ishonchibo'lmagan ko'plab kambag'allar ommasiga bo'linishi;

– ishsizlikning o'sishi, bu hol ijtimoiy nizolarga (to'qnashuvlarga) olib kelishi mumkin;

– ish haqini to'lashdagi kechikishlar, korxonalarining to'xtab qolishiva h.k.

2. Mamlakat iqtisodiyoti tuzilishining deformatsiyalanganligi (buzilgan-ligi). Bu quyidagi omillar bilan bog'liq:

– iqtisodiyotning yonilg'i-xomashyo yo'nalishining kuchayishi;

– foydali qazilmalar zaxiralarini qidirib topishning ularni qazibolishdan orqada qolishi;

– mamlakat korxonalarining aksariyati mahsulotlarining raqobatbardosh emasligi;

– qayta ishlash sanoatining hayotiy muhim tarmoqlarida ishlabchiqarishning kamayib borishi;

– ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar samaradorligining pasayishi, texnologik birligining buzilishi, shakllangan ilmiy jamoalarning tarqalib ketishi va buning oqibatida mamlakat ilmiy-

texnikaviy salohiyatining barbod bo'lishi va h.k.

3. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi notekislikning ortishi. Ushbu tahdidning eng muhim omillari quyidagilardir:

– mintaqalar ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi obyektiv mavjud farqlar, sanoat ishlab chiqarishida qayta ishlash tarmoqlarining ulushi keskin kamayishi bilan kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan depressiv, inqirozli va qoloq hududlarning mavjudligi;

– Mamlakatdagi ayrim mintaqalarda korxonalar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalari va texnologik aloqalarning uzilishi;

– O'zbekiston Respublikasining alohida subyektlari o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadni ishlab chiqarish darajasidagi farqning ko'paygani.

4. Jamiyat va xo'jalik faoliyatining kriminallasuvi. Bu asosan quyidagi omillar tufayli yuz bermoqda:

– ishsizlikning o'sishi, chunki jinoyatlarning asosiy qismini doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan shaxslar sodir etadilar;

– uyushgan jinoyatchilikning davlat apparatidagi ayrim amaldorlarga ta'sir ko'rsatishi, jinoyatchilar tuzilmalarining ishlab chiqarishni boshqarish hamda turli hokimiyat tuzilmalariga kirib borish imkoniyati;

– davlat nazorati tizimining susayishi, bu hol ichki moliyaviy bozorda, xususiylashtirish sohasida, eksport-import operatsiyalari va savdo sohasidajinoiy tuzilmalar faoliyatining kengayishiga olib keldi.

Mazkur tahdidlar yuzaga kelishini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar korxonalar moliyaviy ahvolidagi beqarorligi, noqulay investitsiya muhiti, inflyasiya jarayonlarining saqlanib qolishi hamda iqtisodiyotning moliyaviy jihatdan beqarorlashuvi bilan bog'liq boshqa muammolardir.

Milliy iqtisodiyotning O'zbekiston Respublikasiiqtisodiy xavfsizligi talablariga javob beradigan holati aholining aksariyati uchun maqbul bo'lgan shaxs turmushi va rivojlanishining shart-sharoitlari, ijtimoiy- iqtisodiy vaziyatning barqarorligi, jamiyatning harbiy-siyosiy barqarorligi, davlatning yaxlitligi, ichki va tashqi



tahdidlar ta'siriga qarshi tura olishni ta'minlaydigan muayyan sifat mezonlari va ko'rsatkichlari (chegaraviy ko'rsatkichlar) bilan ajralib turishi kerak ekanligi ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining talablariga javob beradigan mezon va ko'rsatkichlarni aniqlash uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

– iqtisodiyotning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish rejimida faoliyat ko'rsata olishi. Bu mamlakatda davlatning ham oddiy, ham ekstremal sharoitlarda faoliyat ko'rsatishi uchun hayotiy jihatdan muhim bo'lgan, tashqi ta'sirga bog'liq bo'lmagan holda takror ishlab chiqarishni ta'minlay oladigan tarmoqlar va ishlab chiqarish korxonalari yetarlicha rivojlangan bo'lishi kerakligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi mamlakatda zarur darajada ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan iqtisodiyotning eng muhim turdagi mahsulotlar importiga nihoyatda tobe bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Shu bilan birga, o'z iqtisodiyotini tashqi iqtisodiy hamkorlik, ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasini inobatga olgan holda rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining eng muhim talabi strategik resurslar ustidan davlat nazoratini saqlab qolish, ularning O'zbekiston milliy manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan hajmda olib chiqilishiga yo'l qo'ymaslikdir;

– aholi turmushining maqbul (muvofiq) darajasi va uni saqlab qolish imkoniyati. Qashshoqlik, aholining mulkiy tabaqalanishi va ishsizlik darajalarining ijtimoiy-siyosiy barqarorlik nuqtai nazaridan yo'l qo'ysa bo'ladigan maksimal chegarasidan chiqishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ta'lim, madaniyat, tibbiy xizmat, issiqlik, elektr va suv ta'minoti, transport, aloqa, kommunal xizmatlardan aholining foydalana olishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining zarur shartlaridan biridir;

– moliyaviy tizimning barqarorligi. U byudjet taqchilligining darajasi, narx-navoning barqarorligi, moliyaviy oqimlar va hisob-kitob munosabatlarining normallasuvi, bank tizimi va milliy valyutaning

barqarorligi, omonatchi manfaatlarining, oltin-valyuta zaxiralarining himoyalanganlik darajasi, O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy bozori va qimmatbaho qog‘ozlar bozorining rivojlanishi, shuningdek tashqi va ichki qarzning kamayishi, investitsiya faoliyatini jadallashtirish uchun moliyaviy shart- sharoitlarning ta‘minlanishi bilan belgilanadi;

– tashqi savdoning mamlakat qayta ishlash sanoati tovarlarining tashqibozorga chiqa olishini, ichki ehtiyojlarning import evaziga (mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda) qondirishning yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan maksimal darajasini ta‘minlovchi oqilona tuzilishi, yaqin xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarning ustunligini ta‘minlash;

– ichki bozor ehtiyojlarining qondirilishini ham, mamlakat ishlab chiqaruvchilarini xalqaro amaliyotda qabul qilingan choralardan foydalanib himoyalashni ham nazarda tutadigan muvozanatlashgan tashqi iqtisodiy siyosat;

O‘zbekiston Respublikasining ilmiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda mustaqilligini ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning strategik jihatdan muhim yo‘nalishlarida ta‘minlay oladigan mamlakatning yetakchi ilmiy maktablarini saqlab qolish;

– separatistik tamoyillarning rivojlanishini istisno etadigan umumdavlat manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlovchi hamda yagona umummilliy bozori yoki mintaqaviy bozorlarning ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvini inobatga olgan integratsiyalashgan tizimning faoliyat ko‘rsatishi;

– jamiyatning hamda xo‘jalik va moliyaviy faoliyatning barcha sohalari jinoiylashuvini, jinoyatchilar tuzilmalarining ishlab chiqarish va moliyaviy institutlarni egallab olishi, hokimiyat tuzilmalariga kirib borishini istisno etadigan iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish;

– ham oddiy, ham favqulodda sharoitlarda bozor iqtisodiyotining normal ishlashini kafolatlay oladigan iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zaruratini aniqlash va ta‘minlash.

Iqtisodiy siyosatning mintaqaviy darajalarda ishlab chiqiladigan

vaamalga oshiriladigan hamda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarning oldini olishga qaratilmog‘i kerak bo‘lgan chora-tadbirlari va mexanizmlarini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmi-ning eng muhim elementlari sifatidan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni belgilovchi omillarni monitoring qilish va prognozlash.

Milliy iqtisodiyot holatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari (chegaraviy qiymatlari)ni ishlab chiqish zarurligini e‘tirof etish.

1. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni belgilovchi omillar monitoringi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmining eng muhim elementlari iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni belgilovchi omillarni monitoring qilish va prognozlashdir.

Monitoring iqtisodiyot xavfsizligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini kuzatishlarning tezkor axborot-tahliliy tizimi bo‘lib jiddiy tarmoqlararo nomutanosibliklar mavjud bo‘lgan va resurslar, (avvalo moliyaviy resurslar) nihoyatda taqchil, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar juda o‘zgaruvchan va beqaror bo‘lgan sharoitdagi iqtisodiyotning o‘tish holati uchun katta ahamiyatga ega.

Bu hol statistik kuzatish obyektlarini qamrab olishning kompleksligi, chuqurligi va shakllari, axborotning sifati va tezkorligi borasida davlat statistikasiga qo‘yiladigan talablarning kuchayib borishini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligi nuqtai-nazaridan iqtisodiyot va jamiyatni xolisona va har tomonlama monitoring qilish iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining aniq miqdor qiymatlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak.

### **2.3. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari**

Davlat strategiyasini amalga oshirish uchun iqtisodiyot holatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari (chegaraviy qiymatlari) ishlab chiqilmog‘i kerakki, ulardan tashqariga chiqish mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid qiladi. Bular esa quyidagilarni

ifodalaydi:

- yalpi ichki mahsulotning dinamikasi va tuzilishi, sanoat ishlab chiqarishining hajmi va sur'atlari ko'rsatkichlari, xo'jalikning tarmoq va mintaqaviy tuzilish hamda ayrim tarmoqlarning dinamikasi (o'zgarishi), kapital mablag'lar (qo'yilmalar) va sh.k.;

- mamlakat tabiiy-resurs, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy salohiyatining faoliyati;

- xo'jalik mexanizmining o'zgarib boruvchi ichki va tashqi omillar (inflyasiya sur'atlari, tashqi iqtisodiy omillarning ta'siri, milliy valyutaning barqarorligi, ichki va tashqi qarzdorlik va sh.k.)ga moslasha olishi;

- moliya-byudjet va kredit tizimlarining holati;

- aholining turmush sifati (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot), ishsizlik va daromadlarning taqsimlanish (tabaqalanish) darajasi, aholi asosiy guruhlarining moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganligi, atrof muhitning holati va sh.k.

Miqdor ko'rsatkichlari nafaqat umuman mamlakat uchun, balki uning har bir mintaqasi uchun ham ishlab chiqilmog'i kerak. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining mintaqalar bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik mezonlari va ko'rsatkichlarining tarkibi umuman O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotiva milliy manfaatlariga doir sohadagi mezonlar va ko'rsatkichlar tarkibiga mos kelishi lozim.

Davlat strategiyasida ifodalangan iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlar, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining mezonlari va ko'rsatkichlari asosida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish choralari belgilanib, mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har qaysisidagi milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan turkumlanadi. Jahon miqyosida qabul qilingan iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari 2.1-jadvalda keltirilgan.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari o'z ichiga 50 ta ko'rsatkichni olgan holda quyidagicha

turkumlangan:

1) iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zaxiralari bo'yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi;

2) moliyaviy tizim barqarorligi ko'rsatkichlariga davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi;

3) ijtimoiy soha ko'rsatkichlari aholi daromadlari darjasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik hamda ijtimoiy soha xarajatlari bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni o'z ichiga oladi;

4) tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Agar iqtisodiy xavfsizlik tavsifi taraflarning bir-biriga zid kelmasligini o'z ichiga olsa, iqtisodiy xavfsizlikning tobora aniqroq toifalari uning ziddiyatli mohiyatidan kelib chiqishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning ziddiyatli xususiyati to'g'risida dastlabki ta'riflar muammoni o'rganishning muhim bosqichi ekanini tushunish muhimdir<sup>9</sup>.

2.1-jadval

### Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari<sup>10</sup>

Ko'rsatkichlar	Quyi tahlikali chegara	
	Mazmuni	Darajasi
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	16
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz	8

<sup>9</sup> Определение сущности экономической безопасности в. и. Лячин, А. И. Смирнов

<sup>10</sup> Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. С. 76-92.

<i>2.1-jadval davomi</i>		
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	25
Tashqi qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	40
Ichki qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	30
Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz	25
Mudofaaga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	1,5
Innovatsion mahsulotlar	Sanoat mahsulotari umumiy hajmiga nisbatan, foiz	15
Sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foiz	25
Davlat byudjeti defitsiti	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	3
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat byudjeti xarajatlari hajmiga nisbatan, foiz	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz	7
Aholi daromadlari bo'yicha tabaqalanishi	Detsil koeffitsienti	8

Har bir mamlakatda rasmiy tarzda belgilangan quyi tahlilali chegara indikatorlari milliy va jahon iqtisodiyotidagi shaoritlarning o'zgarishi natijalari bilan taqqoslanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini milliy iqtisodiyot subyektlarining hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash nuqtai nazaridan ham turkumlash mumkin.

Davlatning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Iqtisodiy rivojlanishning amaldagi yoki prognoz (bashorat)

qili- nayotgan ko'rsatkichlari iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlaridan og'ayotgan hollarni aniqlash hamda mamlakatni xavfli zonadan olib chiqish bo'yicha kompleks davlat choralari ishlab chiqish. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi choralar va mexanizmlar uning (mamlakatning) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid davlat prognozlarini bilan bir vaqtda ishlab chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida amalga oshiriladi;

2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish yoki yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha kompleks choralarni amalga oshirish maqsadida ishni tashkil qilish. Bu ish davomida:

– O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik kengashi byudjet konsepsiyasini davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi;

– O'zbekiston Respublikasi hukumati ijroiya hokimiyatning hududiy organlari, O'zbekiston Respublikasi subyektlarining ijroiya hokimiyat organlari ishini mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish yoki ularga yo'l qo'ymaslik borasidagi choralar majmuini amalga oshirish maqsadida, jumladan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarini tayyorlashda muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish choralari amalga oshirish ularning ijrosini nazorat qilish tizimini talab qiladi. Nazorat tizimi mulkdorlarning huquq va javobgarliklarini inobatga olishi lozim.

Iqtisodiy xavfsizlik, umuman O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi davlat strategiyasi singari asosan iqtisodiy o'sish, sanoat va san-texnikadagi keskin ko'tarilish mafkurasidan kelib chiqishi lozim, chunki faqat shu asosdagina aholining yuksak turmush darajasi va sifatiga, uning ijtimoiy himoyalanihiga erishish mumkin.

Iqtisodiy strategiyaning bosh maqsadi iqtisodiyotning boshqa tarkibi hamda innovatsiyalardan keng foydalanish asosida iqtisodiyotni yuksak sur'atlarda o'stirishdan iborat. Bunga esa iste'mol va innovatsion talabni qamrab oladigan samarali umumiy

talab asosida erishish mumkin, zero to'lov qobiliyatining pastligi ishlab chiqarishning ko'plab turlari yo'qolishiga olib keladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash – davlatga, uning qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati tarmoqlarigagina taalluqli bo'lgan vazifadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq butun milliy xavfsizlik tizimi ustida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshqariladigan hamda ushbu tizimga kiruvchi barcha organlar va institutlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Xavfsizlik kengashi turadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning strategik maqsadi ushbu xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar va choralarni aniqlashtirishga muhtoj. Ushbu choralar iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olishi kerak. Mazkur choralarga quyidagilar kiradi:

- tarkibiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;
- davlatning investitsiya, moliya, pul-kredit va tashqi iqtisodiy sohalardagi faolligini kuchaytirish;
- institutsional islohotlarni davom ettirish.

Tarkibiy siyosat sohasidagi eng muhim vazifalar makrodarajada quyidagilar hisoblanadi:

- jami talabning ko'payishi (ortishi);
- jamg'arma normasining o'sishi va qulay investitsiya muhitining shakllanishi;
- moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarining samarasiz korxonalar va iqtisodiyot sektorlaridan samarali korxonalar va iqtisodiyot sektorlariga oqib o'tishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- mamlakat ishlab chiqaruvchi korxonalarining manfaatlarini himoyalash uchun importni tartibga solish va h.k.

Mikrodarajada:

- iqtisodiy jihatdan samarali korxonalar va tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlanishini rag'batlantirish;
- samarasiz iqtisodiy tuzilmalarni tugatish yoxud qayta tashkil qilish va h.k.

Iqtisodiy xavfsizlikning zaruriy sharti quyidagi istiqbolli yo'nalishlardagi loyihalar va dasturlar tizimini amalga oshirishdan



iborat: ilmiy, innovatsion, ishlab chiqarish va investitsiya.

Ushbu choralarni amalga oshirishda davlatning roli quyidagi shakllarda oshirilmog‘i kerak:

- umumdavlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berishga hududiy buyurtmalar joylashtirish;
- ba’zi tarkibiy-tuzilmaviy investitsiya loyihalarida ishtirok etish;
- mintaqalarni rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- depressiv mintaqalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha markaziy va mintaqaviy byudjet sxemalarining aloqadorligi(o‘zaro ta’siri).

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri davlatning iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olish borasidagi faoliyatidir.

### **Asosiy so‘z va iboralar**

Globalashuv, integrallashuv, geoiqtisodiy maydon, milliy iqtisodiyotning ochiqligi, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, davlat iqtisodiyotini tartibga solish.

### **Qisqacha xulosalar**

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo‘lib, iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o‘z manfaatlarini anglab yetgan davrlardan paydo bo‘la boshlagan. Iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoyalangani, mamlakat iqtisodiy rivojining ijtimoiy yo‘naltirilgani, ichki va tashqi jarayonlar rivojidadagi eng noqulay sharoitda ham mudofaa salohiyatining yetarli darajada ta’minlanganligini ifoda etadi.

### **Nazorat savollari**

1. O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatiga, global iqtisodiy makonning bir qismiga aylayotganligi nimalarda namoyon bo‘lmoqda?
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlat qanday o‘rin tutadi?

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omillari to'g'risida gapirib bering.

4. Iqtisodiy xavfsizlik ob'yektlariga nimalar kiradi. Ularga qisqacha ta'rif bering.

### **III BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR**

- 3.1. Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar.
- 3.2. Iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar.
- 3.3. Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdidlar.

*Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar. Iqtisodiy xavf va xavfsizlik. Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarning sabablari. Iqtisodiy tahdidlarning turlari. Ichki va tashqi tahdidlar. ichki tahdidlar. Iqtisodiy tizim rivojlanishining tsiklik shartlari bilan bog'liq tahdidlar. Tashqi tahdidlar.*

#### **3.1. Iqtisodiy manfaatlar va tahdidlar**

Jamiyatda inson, xo‘jalik subyektlarining faoliyati ularning ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyoj kishilar hayotini saqlash, inson organizmi va shaxsni rivojlantirish uchun uning zaruriy ne‘matlarga va narsalarga bo‘lgan obyektiv zarurati hisoblanadi.

Inson o‘z ehtiyojlarini qondirish zarurligini anglaganida manfaat yuzaga keladi. Manfaat esa mehnatga, faoliyatga undovchi motivatsiyani vujudga keltiradi.

Iqtisodiy xavfsizlikka asosiy tahdidlar – mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy manfaatlarini cheklaydigan, milliy qadriyatlar va turmush tarziga xavf soladigan hodisalar va jarayonlar.

Iqtisodiy anglangan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning namoyon bo‘lish shaklidir. Manfaatlar xo‘jalik yuritishdan ko‘zlangan naf va yutuqni ifodalaydi. Ularga erishilganda xo‘jalik subyekti mustaqillikka va o‘zidan-o‘zi rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu boisdan iqtisodiy manfaatlar xo‘jalik faoliyatini yuritishdan ko‘zlangan iqtisodiy maqsadlarni ham ifodalaydi. Iqtisodiy maqsadlar umumiy tarzda quyidagicha turkumlangan:

1. Iqtisodiy o‘sish. Ko‘p miqdorda hamda yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, ya‘ni yuqori turmush darajasini ta‘minlash.

2. To'liq bandlik. Ishlashga qodir bo'lgan va ishlashni xohlaydigan kishilarni o'zlariga mos mashg'ulot bilan ta'minlash.

3. Iqtisodiy samaradorlik. Cheklangan ishlab chiqarish resurslarini minimal darajada xarajat qilib, maksimal natija olishga intilish.

4. Barqaror narx darajasi. Umumiy narx darajasining keskin ko'tarilishi yoki pasayishi, ya'ni inflyatsiya yoki deflyatsiyaning yuqori darajada o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish.

5. Iqtisodiy erkinlik. Korxonalar boshqaruvchilari, ishchilar va iste'molchilar o'z iqtisodiy faoliyatida yuqori darajada erkin bo'lishlari kerak.

6. Daromadlarning oqilona taqsimlanishi. Aholining eng boy va eng kambag'al, ya'ni kam ta'minlangan qatlamlari o'rtasida farq katta bo'lishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish.

7. Iqtisodiy jihatdan ta'minlash. Mehnatga layoqatsiz, kasalmand, qari, mayib, majruh va boshqa kam ta'minlangan, yordamga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoyalash.

8. Savdo balansi. Xalqaro savdo va xalqaro moliyaviy bitimlar oqilona balansini ta'minlashga intilish.

Suhbu umumiy iqtisodiy maqsadlar xo'jalik yuritishning mikro va makro darajalaridagi, turli iqtisodiyot subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini umumiy tarzda ifodalaydi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari farqlanadi:


- xalqaro (global va mintaqaviy);
- milliy;
- lokal (mamlakat ichidagi mintaqaviy yoki tarmoq);
- xususiy (korxonalar va shaxs).

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – kelishuvlar va institutsional tuzilmalarning birga mavjud bo'lishiga imkon yaratuvchi xalqaro shart- sharoitlar majmui bo'lib, bunda jahon hamjamiyatining a'zosi bo'lgan har bir davlatga tashqi bosimga duchor etilmaslik, dunyodagi qolgan mamlakatlarning mazkur davlatning ichki ishlariga aralashmasligi, hamjihatligi, o'zaro maqbul va foydali hamkorlik

qilishlariga umid qilish asosida o'zining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyati ta'minlanadi.

Iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishning ichki va tashqi shart-sharoitlari mavjud bo'lib, ichki sharoitlariga shaxsning rivojlanishi, konstitutsion tuzumning mustahkamlanishi, mamlakat hudularining yaxlitlig va bo'linmasligini ta'minlash hamda xo'jalik va boshqa faoliyatlar, favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar, fralokatlar ta'sirida vujudga keladigan noxush ekologik holatlardan kishilar salomatligini saqlash kiradi. Tashqi sharoitlarga esa sherikchilik va o'zaro hamkorlik asosida xalqaro aloqalarning samarali tizimini shakllantirish va rivojlantirish, tashqi agressiyalarni qaytarish qobiliyatini ta'minlash, o'zining iqtisodiy, harbiy-siyosiy, intellektual salohiyatiga mos ravishda xalqaro hamjamiyatda o'ziga munosib o'ringa ega bo'lish kiradi. Ushbu iqtisodiy manfaatlarning ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi turli- tuman tahdidlar, xavf-xatarlardan himoua qilish davlat zimmasiga yuklatilgan.

Iqtisodiy tahdidlarni eng umumiy tarzda ichki va tashqi tahdidga ajratib o'rganish mumkin. Tashqi tahdidlar geopolitik, tashqi-iqtisodiy, shuningdek, global ekologik omillar bilan tavsiflanadi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Iqtisodiy tahdidlar tarkibi<sup>11</sup>

<sup>11</sup> «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent - 2012

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik har qaysi xalqning o‘z yo‘lini tanlash huquqini tan olish, turli mulk shakllari va manfaatlarni hurmat qilish orqali rivojlanish modellarini tiqishtirishdan, iqtisodiy va siyosiy majburlashdan voz kechishni, shuningdek, tinch hayot nafaqat harbiy-strategik, balki iqtisodiy munosabatlar konfrontatsiya va qisqa muddatli foyda olishga qaratilishdan ozod bo‘lgani sayin ularda ham bo‘lishi mumkinligini anglashni bildiradi. Uzoq muddatli istiqbolda hattoki xususiy kapital xorijiy davlatlarning taraqqiy topishidan ularni talash va ekspluatatsiya qilishga nisbatan ko‘proq foyda oladi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik dunyo davlatlari iqtisodiyotining yetarlicha yuqori va barqaror o‘sishi, iqtisodiy ehtiyojlarni samarali qondirish, milliy resurslarning harakatlanishi va foydalanish ustidan davlat nazoratini ta‘minlash, mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini milliy va xalqaro miqyosda ta‘minlashga erishish tushuniladi<sup>12</sup>.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirishning huquqiy kafolatlari quyidagi prinsiplarni tan olishdan iborat:

- davlatlarning, ijtimoiy va siyosiy tuzumidan qat’i nazar, teng huquqliligi;
- iqtisodiy hayotni rivojlantirish yo‘llari va tashkil qilish shakllarini erkin tanlash;
- davlatlarning o‘z mamlakatlarning tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyati ustidan suvereniteti;
- davlatlar o‘rtasida o‘zaro foydali hamkorlik hamda iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy va boshqa tinch munosabatlarni erkin rivojlantirish;
- iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarida xalqarohamkorlik qilish;
- jahon hamjamiyatiga kiruvchi kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan maxsus imtiyozlar berish;
- iqtisodiy nizolarni kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan qo‘rqitishsiz tinch yo‘l bilan hal qilish.

---

<sup>12</sup> Шпилевская Е.В.- The economic security of the country: threats and ways to ensure, 2016.

### 3.2. Iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar

Mamlakatning ichki iqtisodiy sohadagi xavfsizligi tabiiy, texnik-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy hamda boshqa makro va mikroiqtisodiy rivojlanish omillari, ichki immunitet va beqarorlik, tangliklar ta'siridan himoylanish orqali ta'minlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilarkiradi:

- ilgari tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalshgan iqtisodiyotning meros qolganligi;

- ko'pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig'imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;

- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;

- yuqori darajadagi inflyatsiya;

- infratuzilma obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va mustahkam emasligi;

- mineral xom ashyo bazalarining kam o'rganilganligi va xo'jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining yetarli emasligi;

- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo'nalishlarida ilg'or o'rinlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat obro'sining tushib ketishi;

- ichki bozorlarda chet el firmalari tomonidan mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining, shu jumladan, iste'mol tovarlarining siqibchiqarilishi;

- hududiy separatizm tendensiyasi va boshqarish qarorlarini qabul qilishda tarmoq lobbizmining yuqori darajadaliigi;

- investitsion faollikning pastligi;

- kapital xarajatlar o'rniga joriy xarajatlarni afzal ko'rish;

- sotsial ziddiyatlarning kelib chiqish xavfining mavjudligi.

Bunday ijtimoiy ziddiyatlar mehnatga haq to'lash mexanizmining takomillashmaganligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, aholi o'rtasidagi tabaqalanishning keskinlashib ketishi, aholi bilim

darajasi va sifatining pasayishi tufayli vujudga keladi;

– qonunchilikning rivojlanmaganligi, bir qancha iqtisodiy subyektlarning ichki va tashqi bozorda monopol holatda ekanligi g'ayriqonuniy faoliyat ko'ratishi hamda huquqiy intizomining pastligi;

– iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy va shartnomaviy intizomining pastligi;

– iqtisodiyotning kriminallasuvi va uni boshqarishda korrupsiyaning kuchayishi;

– daromadlarni yashirish va soliq to'lashdan qochish holatlarining ko'payishi;

– moliyaviy mablag'larni chet ellarga noqonuniy tarzda o'tkazish.

Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy deformatsiya (buzlish)ning o'sib borishi;

– investitsiya va innovatsiya faolligining pasayishi;

– mamlakat ilmiy-texnikaviy salohiyatining parchalanishi;

– mamlakatning rivojlangan mamlakatlar uchun yonilg'i va xomashyoyetkazib beradigan mamlakatga barqaror aylanib borishi;

– jamiyat mulkiy tabaqalanishining kuchayib borishi;

– iqtisodiyot va jamiyatning jinoiylashuvi (kriminalizatsiyasi).

Iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniq baholash uchun kerakliha tegishli aniqlagich vositalari kerak bo'ladi, iqtisodiyotning ko'pgina ko'rsatkichlari bunga misol bo'la oladi. Bunga integral ko'rsatkichlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy xavfsizlikning ichki tahdidlari orasida iqtisodiyotning tarkibiy deformatsiyasi kuchayib borishini alohida ajratib ko'rsatamiz. Zero, mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun avvalo iqtisodiyotda tarkibiy modifikatsiyalar o'tkazish zarur. Uning mohiyatini ishlab chiqarish tuzilishining talab tuzilishiga muvofiqligi tashkil etadi. Iqtisodiyotni qayta qurishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

– iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni saqlab



qolishning maqsadga muvofiqligini tan olish;

– harbiy buyurtma bo'yicha ishlaydigan va konversiyalanishi mumkin bo'lmagan korxonalarni belgilab olish;

– xorijiy kapitaldan tarkibiy siljishlarga katta ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida foydalanish;

– xalq xo'jaligining eng maqbul tuzilishini yaratishga imkon beradigan iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini qonun tartibida belgilab qo'yish.

Investitsiya va innovatsiya faolligining pasayishi iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Ma'lumki, iqtisodiyotning strategik sohalari va tarmoqlariga katta investitsiyaviy mablag'lar kiritmay turib iqtisodiy o'sishlarni ta'minlab bo'lmaydi. Ayni vaqtda mamlakatimizda oxirgi o'n yil mobaynida yuritilayotgan iqtisodiy siyosat investitsiya jarayoni uchun nafaqat sharoit yaratmadi, balki, aksincha, iqtisodiy salohiyatni tiklashga yordam ham bermadi.

Ilmiy-texnikaviy salohiyatning buzilishi (barbod bo'lishi) iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash fan tashkilotlarining moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashga yordam beradigan fan yutuqlariga asoslangan tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalari (asbobsozlik, elektron mashinasozlik, elektrotexnika sanoati)ni tezlik bilan rivojlantirishni, bu bilan tabiatshunoslik va texnika sohasidagi bilimlarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishni taqozo etadi.

Iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdidlardan biri mamlakatning yonilg'i va xomashyo yetkazib beradigan mamlakatga aylanib borishi hisoblanadi. Bu tahdid iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish strategiyasi asosida bartaraf etilishi mumkin. Albatta, bu o'rinda gap hozirgi vaqtda yonilg'i va xomashyo eksportini keskin kamaytirish haqida bormayapti, zero bu ham davlat byudjetiga mablag' tushishini keskin kamaytiradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka eng xavfli tahdidlardan biri – jamiyatning mulkiy tabaqalanishi kuchayib borishi, farovonligining chuqur qutblashuvi (kuchayishi) va jamiyatning dezintegratsiyasi (ajralishi).


Bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli" asosida olib borilgan islohotlar natijasida O'zbekistonda o'ta boylar va kambag'allar bo'lishiga yo'l qo'yilmadi. Qashshoq aholini ko'paytiruvchi bazani iqtisodiyot rivojlanishining past darajasi tashkil etadi. Shu bois kambag'allik darajasini kamaytirish uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish zarur.

Bozor sharoitida daromadlarning yuqori chegarasi bo'lmaydi. Ishning ko'zini bilgan shaxs qancha yaxshi ishlasa, shuncha ko'p topishi, topganining asosiy qismini jamg'arib borishi mumkin. Boy bo'lishning ta'qiqlanmasligi unga intilishni hosil qiladi. «Intilganga tole yor» deganlaridek, harakat qilish natijasida kambag'al o'rta holga, o'rta hol esa boyga aylanishi mumkin. Ish yurishmaganida buning aksi ham bo'lishi mumkin. Iqtisod yuksalgan sari kambag'allar kamayib, o'rta hollar asosiy toifaga aylanadi, boylar soni ham ortadi. Ammo boylarning ichkitabaqalanishi ham yuz beradi. Ular orasida o'ta boylar ajralib chiqadi. Ular ham, sekin bo'lsa-da, ko'payib boradi. Ilgarilari o'ta boylar G'arb mamlakatlarga xos bo'lgan, endi esa ular Sharqda va hatto o'tish davridagi mamlakatlarda ham shakllangan. O'tish davridagi o'ta boylar bozor munosabatlarining rivojlanish mahsuli emas, balki boylikni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uni qonuniy va noqonuniy yo'l bilan o'zlashtirib olgan kishilardir.

Forbes ma'lumotiga ko'ra, 2016- yil oxiriga kelib dunyoda 2043 nafar dollarli milliarderlar mavjud bo'lgan. 2015- yilga nisbatan milliarderlar soni 13 foizga ko'payib, ular boyligining miqdori 18 foizga oshgan, ya'ni 7,67 trillion dollarga etgan.

Tahdidning ichki omillarini, o'z navbatida, ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) iqtisodiy tizimning davriy rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq tahdidomillari;
- 2) davriy rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq bo'lmagan omillar.



**3.2-rasm. Xo'jalik tizimi takror ishlab chiqarilishi natijasida to'plangan noxush tendensiyalar<sup>13</sup>**

Birinchi guruh omillari harakati oqibatida ma'lum vaziyatda makroiqtisodiyot darajasida salbiy holatlar yuzaga kelib, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Ikkinchi guruh omillari harakati esa uzoq muddatli davrda xo'jalik tizimi muhim elementlarining takror ishlab chiqarilishi natijasida to'plangan noxush tendensiyalar tufayliyuzaga keladi.

Ichki tahdidlar ichida xufyona iqtisodiyot o'ta xavfliligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun unga qarshi kurash iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>13</sup> Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

### 3.3. Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdidlar

Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi:

birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan miliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratish;

ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

– eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi;

– mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog'liqligi;

– tashqi qarzlarning o'sib borishi;

– eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining yopiq emasligi;

– raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarining rivojlanmaganligi hamda import tarkibining rasional emasligi;

– eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivojlanmaganligi.

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketish tashqi bozorga nihoyatda bog'liq bo'lgan iqtisodiyot uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Tashqi tahdidlar ayrim ichki tahdidlarning xavfi ortishiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy xavfsizlikning tashqi tahdidlari quyidagilarni qamrab oladi: ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, ekologik,

axborotga oid va boshqa sohalari.

Iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniq baholash uchun kerakli tegishli aniqlagich vositalari kerak bo‘ladi, iqtisodiyotning ko‘pgina ko‘rsatkichlari bunga misol bo‘la oladi. Bunga integral ko‘rsatkichlarni misol qilib olishimiz mumkin<sup>14</sup>.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoriga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadiligining o‘ziyoq milliy manfaatlarga mos keladigan tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo‘yadi. Mamlakat qarz bergan yirik kreditor mamlakatlarga qaram bo‘lib qoladi.

Davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidlarni aniqlab, ularning oldini olish maqsadida iqtisodiy siyosat maqsadlari va strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash mexanizmini yaratadi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdidlar orasida ba‘zilarini ajratib ko‘rsatamiz.

Iqtisodiy xavfsizlik holatini o‘rganish, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yetarlicha yuqori va barqaror o‘shini ta‘minlaydigan ilmiy bilimlar sohasidir.

Eng muhim tahdidlardan biri bo‘lgan mutaxassislarning ketib qolishi («aqlar oqimi» yoki «miyalar oqimi»)dan boshlaymiz. Aholining, odatda uning ziyolilar qatlamining emigratsiyasi mamlakatning intellektual salohiyati qisqarishiga va, binobarin, iqtisodiy o‘shning sekinlashuviga olib keladi. Intellektual emigratsiyaning asosiy sabablari quyidagilardir:

- mamlakatda ilmiy mehnat uchun to‘lanadigan haqning nihoyatda kamligi;
- ilmiy tadqiqotlar jihozlanish darajasining juda pastligi;
- malakali kadrlar tark etayotgan mamlakatlardagi siyosiy beqarorlik.

Mutaxassislar xorijga ketib qolishining oldini olishga qaratilgan

---

<sup>14</sup> Ромащенко Т.Д. Теория экономической безопасности : учеб. пособие / Т.Д. Ромащенко. – Воронеж, :2005. – 24 с.

choralar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

- yuksak malakali mutaxassislar va olimlar ish haqini keskin oshirish;
- fanni davlat byudjetidan moliyalashtirishni keskin ko‘paytirish;
- global va xalqaro xususiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy, axborotga oid va boshqa choralarini amalga oshirish;
- «aqlar oqimi» masalalarini davlat siyosatining eng muhimmuammolari bilan bir darajaga qo‘yish.

Iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri kapitalning xorijga «qochishi»dir. Bu – iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan asosiy tahdidlardan biri. Bu tushunarli, albatta, zero milliy iqtisodiyotga bo‘ladigan investitsiyalar ushbu mamlakat xalq xo‘jaligining rivojlanishiga, uning iqtisodiy o‘shishiga, aholisining turmush darajasi va sifati ko‘tarilishiga yordam beradi. Ya‘ni xorijga ketgan kapital u kirib borgan mamlakatga «ishlaydi».

Kapitalning mamlakatlar rivojlanish darajasiga qarab mamlakatlardan «qochishi»ga xos jihat quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy va siyosiy tizim shaklining tez o‘zgarishi tub xususiyatga egaligi;
- investorlarning milliy valyutaga ishonch darajasining pastligi, bu rubldan dollarga «qochishga» olib kelmoqda;
- mamlakatda inflyasiya darajasining yuqoriligi.

Iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan muhim tahdid davlatning tashqi qarzidir.

Har bir davlatning makroiqtisodiy tizimidagi eng muhim omillardan biri davlat qarzidir. Bu qarzlarni shakllantirish uning moliyaviy tizimi, investitsiya muhitiga sezilarli ta‘sir qiladi. Davlat qarzining shakllanishiga eng asosiy sabablardan biri davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni ta‘minlay olmaydigan siyosat yuritilishidir<sup>1515</sup>.

---

<sup>15</sup> Žaneta Karazijienė „Critical Analysis of Public Debt and Tendencies of Its Management“, Mykolas Romeris University, 2015, page 194

Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar moliyalashtirishning tashqi manbalaridan foydalanadilar, zero ularning aksariyati tanqis (defitsit) byudjetga ega bo‘lib, ichki kapital qo‘yilmalari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish, tashqi qarzlarni bo‘yicha qarz majburiyatlarini bajarish uchun o‘z resurslarining kamligidan qiynaladilar.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga yana bir jiddiy tahdid iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqligidir.

Ochiq iqtisodiyot – dunyo xo‘jalik aloqalari va xalqaro mehnat taqsimotida iloji boricha ko‘proq ishtirok etishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. U o‘zini o‘zi ta‘minlashga asoslangan holda rivojlanuvchi avtarkiya tipidagi iqtisodiy tizimlariga qarshi turadi. Shu bois iqtisodiyotning ochiqligi – normal va obyektiv zarur hodisa. Biroq, iqtisodiyotni ochishga harakat qilganda mamlakat ishlab chiqarishi, moliyasi, bank tizimi, pul muomalasi, ishlab chiqarishning strategik tarmoqlari va sohalarining himoyalanganlik darajasidan kelib chiqmoq lozim.

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasi quyidagi indikatorlar (ko‘rsatkichlar) bilan belgilanadi:

– eksport kvotasi, ya’ni eksport qiymatining YAIM qiymatiga nisbati;

– aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan eksport hajmi va boshqalar.

Iqtisodiyotning ochiqligi jahon xo‘jaligi rivojlanishidagi ikkita asosiy tamoyil (tendensiya)ning ta‘sirini bartaraf etmaydi:

– erkin savdoga mo‘ljallanish (fritriderlik);

– ichki bozorni himoyalash (proteksionizm).

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash choralari sifatida xavfsizlikka bo‘ladigan ichki va tashqi tahdidlarning oldini olishga qaratilgan harakatlar xizmat qilishi mumkin. Shu sababli davlat iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishi va muvaffaqiyatli amalga oshirishi lozim.

Davlatning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasida keltirilgan asosiy choralar quyidagilardir:

- iqtisodiy tahdidlarni belgilovchi omillar monitoringi (aniqlash);
- iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari mezon va indikatorlarini ishlab chiqish;
- davlat hokimiyatining jamiyat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashborasidagi faoliyati.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash – faqat davlatgaginategishli bo'lgan vazifa.

### **Asosiy so'z va iboralar**

Ehtiyoj, iqtisodiy manfaat, shaxs, korxon, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlari, tahdid, ichki tahdid, tashqi tahdid

### **Qisqacha xulosalar**

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Mana shu mezon va ko'rsatkichlar asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma'lum bir chegara doirasida yo'l qo'yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko'rsatkichlarning o'zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. SHu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini barqaror taraqqiy etishiga to'sqinlik qiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Iqtisodiy xavfsizlikning indikatorlari deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy xavfsizlikning darajalariga ta'rif bering.
3. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlarini aytib bering.
4. Iqtisodiy xavfsizlikning chegara ko'rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?
5. Iqtisodiy xavfsizlikning chegara ko'rsatkichlari nechta guruhga bo'lib o'rganiladi?
6. Nima uchun iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va baholanadi?
7. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini guruhlarga ajrating.



## **IV BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMI**

**4.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadi va uning institutsionalsharoitlarining yaratilishi.**

**4.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning tartibga soluvchilikvazifalari.**

**4.3. O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvoryo'nalishlari.**

*Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional shartlari. Tranzaksiya xarajatlari va xizmatlar. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning vazifalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. Xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy boshqaruvning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikni davlat tomonidan boshqarishning tashkiliy shakllari va iqtisodiy usullari. Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajalarda tarkibiy siyosatni amalga oshirish. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi konsepsiyasini ishlab chiqish. O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligining xususiyatlari va muammolari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vositalari va ustuvor yo'nalishlari.*

### **4.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadi va uning institutsional sharoitlarining yaratilishi**

So'nggi yillarda iqtisodiyotga oid adabiyotlarda «o'sish» va «rivojlanish» tushunchalari farqlana boshladi. Ushbu tushunchalarning farqi obyektiv ravishda jahon xo'jaligi, birinchi navbatda, rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy evolyusiyasi amaliyoti bilan bog'liq. Zero, ularning iqtisodiyotida texnologik davrlar tubdan o'zgarmoqda: birlamchi industirlashuvdan texnotron ishlab chiqarish kuchlariga o'tish yuz bermoqda. Bu esa mehnat unumdorligining 80 foizdan ortiq o'sishini ta'minlashga imkon berar ekan.

Tahlilni «o'sish» tushunchasidan boshlaymiz. O'sish deganda iqtisodiy o'sish nazarda tutiladi.


Iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarish real hajmining doimiy

ko'payib borishi hamda u bilan birga kechadigan jamiyat texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarining (xarakteristikalarining) yaxshilanishi. Statistik jihatdan iqtisodiy o'sish yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki yalpi milliy mahsulot (YAMM)ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarida aks etadi.

Iqtisodiy o'sish dunyodagi barcha mamlakatlar uchun muhim iqtisodiy muammo hisoblanadi, chunki ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ushbu muammoning muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq.

Ta'kidlash lozimki, G'arb adabiyotlarida «iqtisodiy o'sish» kategoriyasi turlicha talqin etiladi. Ayrim iqtisodchilar uni imkoniyatdagi va real yalpi milliy mahsulot (YAMM)ning ortishi, mamlakat iqtisodiy qudratining o'sishi sifatida tushunadilar. Boshqa iqtisodchilar esa iqtisodiy o'sishni ishlab chiqarish quvvatlarining ortishi; yo mahsulotning real hajmi (YAMM), yo aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot real hajmining ortishi sifatida ifodalaydilar.

Mamlakatimiz adabiyotlarida iqtisodiy o'sish deganda ijtimoiy mahsulot va uni ishlab chiqarish omillarining miqdor va sifat jihatdan takomillashuvi tushuniladi. «Iqtisodiy o'sish» kategoriyasi quyidagilarga ega: a) o'z mazmuniga (ijtimoiy takror ishlab chiqarish); b) harakatlanish mexanizmi (xodimlar, ishlab chiqarish vositalari, tabiat, texnologiyalarning o'zaro munosabatlari); v) ushbu harakatning ishlab chiqariladigan mahsulotning o'sish sur'atlarida o'z ifodasini topadigan miqdor va sifat belgilari; g) ijtimoiy-iqtisodiy natija (milliy boylik); d) maqsad (xalq farovonligi). Xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun, avvalambor, uning siyosiy-tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda konsepsiya ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish esa iqtisodiyot holatini obyektiv baholash hamda uning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini prognoz qilishga asoslanadi.



#### **4.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi<sup>16</sup>**

Xavfsizlik konsepsiyasi asosida uni ta'minlashning davlat strategiyasi ishlab chiqiladi..

Iqtisodiy adabiyotlarda davlat iqtisodiy strategiyasining uch jihati vatar kibiy qismlari ajratib ko'rsatilgan:

1. Iqtisodiy xavfsizlik va mamlakat hayot faoliyati muhim sohalarining himoyasini ta'minlaydigan milliy, davlat manfaatlarini aniqlash.

2. Shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlariga ziyon keltiradigan iqtisodiy xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarni tavsiflash. Bunda qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda davlat hamda ijtimoiy- iqtisodiy tizim barqarorligiga zararli, salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va sharoitlar aniqlanadi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikning turli tahdidlar, xavf-xatarlardan

<sup>16</sup> Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

barqaror himoyalanihini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Hozirgi zamon iqtisodiyotiga xatolarga yo'l qo'yish tavakkalining yuqoriligi xos bo'lib, buning qiymati borgan sari oshib bormoqda. Bunday xatolarni kamaytirish yoki ta'sirini susaytirish uchun iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining munosabatlari tizimi makro va mikrodarajalarda maxsus tahlil obyektiga aylanmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. To'lov qobiliyatini saqlash
2. Iqtisodiy subyektning kelajakdagi pul oqimlarini rejalashtirish

3. bandlilik xavfsizligi

Ko'pgina ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy tizimining chegaraviy qiymatlari iqtisodiy tahdidlar doirasidan tashqariga chiqmadi. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yalpi ichki mahsulotning natural-ashyoviy hajmi;
- asosiy kapitalga investitsiyalar;
- ijtimoiy ko'rsatkichlar.

Iqtisodiyot sohasida ustuvor yo'nalish aholining farovonligini o'stirish bo'lgani sababli, aynan u YAIM hajmining chegaraviy qiymatlarini va u bilan bog'liq boshqa ko'rsatkichlarni hisoblashda dastlabki bosqich bo'lishi kerak.

Aholining ijtimoiy holati uchta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi:

- yashash uchun eng kam daromadga ega bo'lgan aholining ulushi;
- aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foiz bilan eng kam ta'minlangan 10 foizning o'zaro nisbati;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va yashash uchun zarur eng kam daromad o'rtasidagi nisbat.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, yashash uchun zarur eng kam darajadan ham kam daromadga ega bo'lgan aholining ulushi 7–10 foizni, eng boylar va eng kambag'allar daromadlari o'rtasidagi farq

esa sakkiz baravardan ortiq bo'lmaganida ijtimoiy sohadagi tahdidlar eng kam darajada bo'ladi.

Ayrim rossiyalik olimlar iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatini belgilashda 1990- yildan boshlab BMT qabul qilgan Inson rivojlanishining indeksi (IRI)ni qabul qilishni taklif etadilar. Ushbu indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashtiruvchi ko'rsatkichi (mezoni) hisoblanadi.

Tatqiqotchilarni ta'kidlashicha, xududlararo nizolarni kamayishiga qaramay, siyosiy beqarorlik davom etmoqda, va bir qancha davlatlar iqtisodiy nochorlikka uchrashning ostonasida.

Rossiya iqtisodiy adabiyotlarida iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatlarining uchta asosiy guruhi ajratiladi.

Birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi olamga juda kam bog'liq bo'lgan sharoitda faoliyat ko'rsata olishi kiradi. Ushbu guruhda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha chegaraviy qiymatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, Rossiya davlati uchun YAIM hajmi bo'yicha quyidagi chegaraviy qiymatlar qabul qilingan:

- umuman olganda – «katta ettilik» mamlakatlari bo'yicha o'rtacha indikatorning 75 foiz;
- aholi jon boshiga – «katta ettilik» mamlakatlari bo'yicha o'rtacha darajaning 50 foiz;
- jahondagi o'rtacha indikatorning 100 foiz.

Chegaraviy qiymatlarning ushbu guruhida ichki ishlab chiqarish tarkibida importning ulushi muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagi chegaraviy qiymatlar maqbul hisoblanadi:

- ishlov beruvchi sanoatning sanoat ishlab chiqarishining umumiyhajmidagi ulushi – 70 foiz;
- YAIMda investitsiyalarning ulushi – 25 foiz;
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlikning ulushi – 20 foiz;
- aholining ichki iste'molida importning ulushi – 30 foiz, jumladan oziq-ovqat ulushi – 25 foiz.

Fan yutuqlariga asoslangan tarmoqlar va ishlab chiqarish

korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish ayniqsa katta xavotir uyg'otmoqda. Ishlab chiqarishning umumiy hajmida mahsulotning yangi turlari bo'yicha chegaraviy qiymat 6 foizni tashkil qiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari chegaraviy qiymatlarining ikkinchi guruhi aholining turmush darajasi va sifatiga taalluqlidir. Xorij iqtisodiy adabiyotlarida quyidagi chegaraviy qiymatlar belgilangan:

– aholi tarkibida yashash uchun zarur eng kam darajadan kam daromadga ega bo'lgan fuqarolarning ulushi 7 foizni tashkil etadi;

– umr davomiyligi – 70 yil;

– boylar va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi farq – 8 baravar;

– ishsizlik darajasi – 7 foiz.

Chegaraviy qiymatlarning uchinchi guruhi moliyaviy holatni qamraboladi.

Rossiya iqtisodiy adabiyotlarida quyidagi chegaraviy qiymatlar belgilangan:

– ichki qarz hajmining YAIMga nisbati – 30 foiz;

– tashqi qarz hajmining YAIMga nisbati – 25 foiz;

– byudjet taqchilligining YAIMga nisbati – 5 foiz;

– naqd shakldagi xorijiy valyuta hajmining naqd pullar hajmiganisbati – 25 foiz;

– pul massasi (M2)ning YAIMga nisbati – 50 foiz.

Moliyaviy sohada mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga eng katta tahdid iqtisodiyot monitizatsiyasi darajasining juda pastligidir. O'zbekistondada pul massasini kamaytirish orqali inflyasiya jarayonlarini pasaytirish siyosati iqtisodiyotni monitsizatsiyalash bo'yicha chegaraviy va amaldagi qiymatlar o'rtasidagi katta farqni keltirib chiqardi, bu esa korxonalarining muomala mablag'lari etishmasligiga va qarz bo'lib qolishiga olib keldi.

Metodologik nuqtai nazaridan, chegaraviy qiymatlarning bir xil ko'rsatkichlari (parametrlarini) belgilash har doim ham o'zini oqlamaydi. Masalan, chegaraviy ko'rsatkichlarning birinchi guruhida investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 25 foizdan kam bo'lsa, bu hol

mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid hisoblanishi ko'rsatilgan. Biroq YAIMda investitsiyalarning ulushi 40 foiz bo'lishi ham tahdid solishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq faqat shundaki, birinchi holda mehnat vositalarinig moddiy va ma'naviy jihatdan eskirishi oqibatida iqtisodiyotning to'xtab qolishi tahdidi yuzaga keladi, ikkinchi holda esa aholining turmush darajasi va sifati pasayishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiy xavfsizlikning bir qator chegaraviy qiymatlari bo'yicha bir xil chegaraviy indikator emas, balki o'ziga xos muayyan «yo'lak» ishlab chiqish zarur.

#### **4.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning tartibga soluvchilik vazifalari**

Bozor munosabatlari sharoitida davlat iqtisodiyotga aralashib, bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi va aholini uning salbiy oqibatlaridan himoyalash chora-tadbirlarini ko'radi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsad bozor munosabatlarini muayyan va ma'lum yo'nalishda rivojlantirib, iqtisodiy tanglik, tahdid va xavf-xatardan himoyalash hamda aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning yuqori darajasiga erishish uchun, davlat tizimlarning asosiy funksional komponentlarini maksimal darajada ta'minlashi kerak, bularga quyidagilarni kiritish mumkin<sup>17</sup>:

- Moliyaviy;
- Intellektual mulk;
- Texnika va texnologiya;
- Ekologiya;
- Axborot oqimi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishning quyidagi yo'nalishlarida ham faoliyat yuritadi:

- iqtisodiyodagi jarayonlarni obyektiv, keng qamrovli

---

<sup>17</sup> Гончаренко Л.П. Проблемы экономической безопасности личности: ч. I. М.: Изд-во РЭА, 1997

monitoringi, shu jumladan, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlariga ichki hamda tashqi tahdidlarni aniqlash va prognozlashtirish uchun axborotlar bazasini yaratish;

- iqtisodiy manfaatlarga bo‘lgan tahdidlarning oldini olish, ularning salbiy oqibatlarini yengish hamda barham berish bo‘yicha jarima va uzoq muddatli chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish. Bunda davlatning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish chora-tadbirlarining natijalari baholanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik sohasida qo‘lanuvchi siyosiy vositalardan mamlakat iqtisodiyotiga boshqa mamlakat yoki bir necha mamlakatlar tomonida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar, iqtisodiy huruj, tahdidlardan himoyalanih maqsadida foydalaniladi.

Ushbu siyosiy vositalar o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- BMT va BMTning Xavfsizlik kengashida mamlakat milliy-iqtisodiy manfaatlariga mos keladigan rezolyutsiyalar qabul qilinishiga erishish;

- xalqaro arbitraj yoki xalqaro sudga iqtisodiy tazyiq, tahdidlar yuzasidan murojaat qilish;

- muzokaralar o‘tkazilishini tashkil qilish va amalga oshirish;

- xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda a‘zo sifatida yoki kuzatuvchi maqomida mamlakat milliy-iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida faoliyat yuritish;

- o‘zaro manfaatli xalqaro iqtisodiy hamkorlik shartnomalarini ratifikatsiya qilish va h.k.

Shuni aytib o‘tish joizki, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari Respublika Prezidenti rahbarligidagi Milliy xavfsizlik kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Xavfsizlik kengashi a‘zolari mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Uning tarkibiga Bosh vazir, Xavfsizlik kengashi kotibi, Tashqi ishlar vaziri, milliy xavfsizlik xizmati rahbari, mudofaa va ichki ishlar vazirliklarining rahbarlari kiradi. Kengash doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha idoralararo doimiy komissiya faoliyat yuritadi. Ushbu komissiya Oliy



Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining tegishli qo‘mitalari bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida hamkorlik qiladi, shuningdek, Xavfsizlik kengashiga iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar, tavsiyalar ishlab chiqadi va bu boradagi turli vazirlik hamda muassasalar, hududiy boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirishga ko‘maklashadi.

#### **4.3. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari**

Bozor munosabatlariga o‘tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo‘jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash va fuqarolarga ziyon keltirilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko‘paytirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatbardoshligini rivojlantirish, fond bozori, yer va ko‘chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak.

Ilg‘or mamlakatlar asosan iqtisodiyotni «rivojlantirish»ga mo‘ljallab olib, sezilarli (katta) muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritmoqdalar.

Xitoy, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari bo‘yicha jahon hamjamiyatidagi yetakchilar sirasiga kirdi va bu davlat, jamiyat, insonning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash uchun shart-sharoit yaratadi.

Ma‘lumot uchun: 2010- yilda YAIMning nominal hajmi 61,8 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2017- yilda 249,0 trillion so‘mni tashkil etgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. 2021 yil YAIM hajmi 7,4 % o‘rdi va 734.6 trl. so‘mni tashkil etdi. 2020 yil bu ko‘rsatkich 580,2 trl. so‘m edi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi 21 mln yoki qariyb 2000 dollarni tashkil etdi.

«Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi

narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamiz» bo'lib, inson, jamiyat va davlatning muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Sababi bu milliy iqtisodiyot o'sishining yuqori sur'atlari va investitsiya resurslariga kuchayib borayotgan talabni qondirishga xizmat qiladi.

Milliy manfaatlarni amalga oshirish mamlakatni iqtisodiy suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan izchil iqtisodiy o'sish orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy xavfsizlikning muhim shart hisoblanadi.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi.

Shu ayonki, har qanday jamiyatda o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish va farovon yashash uchun iqtisodiy o'sish yuz berishi kerak. Iqtisodiy o'sish deganda, iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning dinamik rivojlanish bo'lib, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini anglatadi.

Iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlar shaklida ham namoyon bo'ladi.

Shu bois ham, Harakatlar strategiyasi iqtisodiy o'sishning «sifati»ni oshirish maqsadini ko'zlagan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy o'sishning insonga xizmat qilishining ahamiyatiga to'xtalar ekan shunday deydi: «Hammamizga ayonki, o'sish sur'atlari – bu shunchaki bir maqsad emas. Bunday o'sish avvalo xalqimizga, har bir fuqaroga qanday naf yetkazishi, uning dasturxonida, kundalik hayotida aks etishi biz uchun muhim masala» . bo'lib qoladi.

Shunday ekan, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi shaxs, jamiyat va davlatning muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Biroq, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha O'zbekiston dunyo reytingida 187 mamlakat o'rtasida 134-o'rinda turibdi. Vaholanki, O'zbekiston juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan davlat. Yurtimiz zaminida oltin, kumush, mis, uran, neft, tabiiy gaz, ko'mir kabi tabiiy qazilma boyliklarning katta zaxiralari mavjud. Umuman, Mendeleevning kimyoviy moddalar jadvalidagi barcha elementlarni mamlakatimizdan topish mumkin» .

Darhaqiqat, dunyo mamlakatlari reytingida bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston ham 187 ta mamlakatlar ichida 134-o'rinda turishi ham quvonarli ko'rsatkich emas. Agar aholi sonining oshib borishi va har bir kishining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabi oshib borishini hisobga olsak, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni jadal rivojlantirish o'ta jiddiy va dolzarb hayotiy masala ekanligi hammaga ayon bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va aholining ularga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, jumladan, maqbul narxlar bo'yicha keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash oldimizda turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi» , deb ta'kidlashlari O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida «ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish» vazifasi qo'yilgani muammoning jiddiyligidan dalolat beradi.

2018- yil 12- sentyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan yig'ilishda: «iqtisodiy o'sish – bu, birinchi navbatda, yangi korxonalarni qurish va kengaytirish, yo'l- transport, ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, inflyasiya va narxlarni

jilovlash hamda odamlarni ish bilan ta'minlash deganidir»<sup>18</sup>, deb ta'kidlaydi.

Shuni ta'kidlash muhimki, ko'plab mamlakatlar statistikasi miqdor indikatorlariga asoslanadi.

4.1-jadval

### O'zbekiston va dunyoda yalpi ichki mahsulotning o'sishi<sup>19</sup>

Mamlakat	YAIM (VVP) yiliga o'rtacha o'sish foiz		Qishloq xo'jaligi yiliga o'rtacha o'sish foiz		Sanoat yiliga o'rtacha o'sish foiz		Ishlab chiqarish yiliga o'rtacha o'sish foiz		Xizmatlar yiliga o'rtacha o'sish foiz	
	1990- 2000	2000- 2016	1990- 2000	2000- 2016	1990- 2000	2000- 2016	1990- 2000	2000- 2016	1990- 2000	2000- 2016
O'zbekiston	-0,2	7,8	0,5	6,4	-3,4	9,4	-	-	1,1	8,1
Dunyo	2,9	2,8	2,2	2,8	2,9	2,9	-	2,1	3,4	2,8
Evropa va Markaziy Osiyo	1,6	1,6	-0,6	1,2	0,4	1,0	1,9	1,5	2,2	1,9
Daromadi past	2.3	5.3	3.1	3.4	0.5	5.8	-0.7	4.1	2.5	6.9
Daromadi o'rtacha past	3.4	6.1	2.8	3.8	3.4	5.5	4.5	6.2	3.8	7.4
Daromadi o'rtacha yuqori	3.2	5.8	2.2	3.4	301	6.3	-	-	3.1	6.1

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanishni maqsad qilgan davlatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

-samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va istiqboli yo'q, eskirgan ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yish;

-tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;

-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;

-mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng qimmatli elementlarini saqlash;

<sup>18</sup> Иқтисодиётини ривожлантириш бўйича белгиланган вазифалар натижадорлиги таҳлил қилинди// Халқсўзи. 2018 йил 13 сент.

<sup>19</sup> <http://wdi.worldbank.org/table/4.1>.

-iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalgam oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to'lovga qodir talab bilan uyg'unlashtirish;

-korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;

-eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;

-ekologik xavfsizlikni ta'minlashni oshirish.

### **Asosiy so'z va iboralar**

Ehtiyoj, iqtisodiy manfaat, shaxs, korxonalar, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlari, tahdid, ichki tahdid, tashqi tahdid

### **Qisqacha xulosalar**

Tahdid jamiyat, davlat va ularning sub'yektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan, ziyonzahmat keltiradigan, xavf- xatar tug'diradigan omillar va shart-sharoitlarni anglatadi. Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug'diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, aholining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi. Nazorat savollari 1.Tahdid deganda nimani tushunasiz? 2.Tahdidlarning qanday turlari mavjud? 3. Ichki va tashqi tahdidlar iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta'sir ko'rsatadi? 4.O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikka bo'ladigan tahdidlarning oldini olish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?

### **Nazorat savollari**

1.Tahdid deganda nimani tushunasiz?

2.Tahdidlarning qanday turlari mavjud?

3. Ichki va tashqi tahdidlar iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta'sir ko'rsatadi?

4.O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikka bo'ladigan tahdidlarning oldini olish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?

## V BOB. SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

### **5.1. Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi.**

### **5.2. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligigatahdidlar.**

### **5.3. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari vavositalari.**

*Shaxsning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va manfaatlari. Shaxsiy manfaatlarga ta'sir qiluvchi iqtisodiy tahdidlar. Shaxsga qarshi shantaj va terror. Ishsizlik va qashshoqlikning sabablari.*

*Bozor iqtisodiyotiga o'tishda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va inson tavakkalchiligi. Insonni ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan himoya qilish. Shaxsning intellektual va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. Kambag'allikka qarshi kurash shaxsiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Dunyoda va O'zbekistonda Covid-19 koronavirus pandemiyasi sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilishning kuchli tizimini yaratish masalalari.*

### **5.1. Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi**

Inson o'z hayot faoliyatini tabiat va jamiyat bilan dialektik bog'liqlikda olib boradigan, tabiat qonunlari va ijtimoiy munosabatlarning obyektivi va subyektivi bo'lgan tabiiy-biologik mavjudot va ijtimoiy voqelikdir. Insonda tabiiy-moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Insonning hayot faoliyati turli obyektiv va subyektiv omillarga, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari hamda ma'naviy rivojlanishga, shuningdek, tabiiy-iqlimiy ta'sirga, ekologiya, ijtimoiy, millatlararo va geopolitik shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Uning xatti-harakati shaxsning psixologik holatiga, qiziqishi, odati, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, ijtimoiy va milliy xususiyatlari, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabati, yoshi, jinsi, jismoniy kuch va aqliy

qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida insonning imkoniyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

– shaxsiy mol-mulki, boyligining miqdori. Bu esa shaxsning ko'chmas va harakatdagi mulki, shaxsiy kapitalining jamisidan iborat bo'ladi;

– shaxs boshqaradigan kapital miqdori. Bu kapital kimniki va qanday shaklda bo'lishi ahamiyatsizdir;

– shaxsga ma'muriy, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda bo'ysunuvchi yoki unga qaram jismoniy shaxslar soni. Bularga kishilarning ongi va kayfiyatiga ta'sir ko'rsata oladigan hamda bilim, tarbiya, axborot olish, diniy ishlarda ma'lum ijtimoiy vazifani bajaruvchi shaxslar ham kiradi.

Inson va uning manfaatlari uchun oila muhim ahamiyat kasb etadi. Oila qarindoshlik aloqalari va maishiy hayot umumiyligi asosida, ongli ravishda tashkil etilgan kishilarning kichik guruhidan iborat. Oilaning hayot faoliyati shaxsning, u a'zo bo'lgan oila va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi hamda o'zining uy xo'jaligini mustaqil ravishda yuritadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oila, avvalambor, inson kapitalini shakllantirish va jamg'arishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan oilaning vazifalarini uch bosqichda, ya'ni moddiy asosni yaratish, ta'lim, inson kapitalini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishda ko'rish mumkin.

Birinchi bosqichda oila byudjetini shakllantirish va foydalanish, uy xo'jaligini yuritish funksiyalari amalga oshiriladi.


Ikkinchi bosqichda oila farzandni dunyoga keltirish, tarbiyalash va uni ijtimoiy-iqtisodiy hayot kechirish sharoitlariga moslashtirish vazifasini bajaradi.

Uchinchi bosqichda tadbirkorlik faoliyati va mehnat qilish orqali oila bozor xo'jaligida o'z a'zolarining yakka tartibda ishtirok etishi, oilaviy biznesni tashkil etish vazifalarini bajaradi.

## 5.2. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inson o'z kelajagi, yaxshi yashash, o'zining turmush darajasining oshib borishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishiga, tinch, xavf-xatarsiz yashashga umid qiladi va bunga ishonchi bo'lishini istaydi. Insonning o'z ehtiyojlari, manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ularni ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan omillardan himoyalanganligi shaxs xavfsizligi deb ataladi.

Inson xavfsizligiga tahdidlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sur'atlarining jamiyat ehtiyojlari o'sishiga nisbatan orqada qolishi, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining yetarli emasligi, jamiyatda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, tashqi tabiiy muhitning zararlanishi yoki yomonlashuvi hamda ma'lum ijtimoiy harakatlar tufayli vujudga keladi.



5.1-rasm. Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga tahdidlar<sup>20</sup>

<sup>20</sup> Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.



Iqtisodiy sohadagi inson shaxsiga nisbatan tajovuz reketda o‘z ifodasini topadi. Reket kishining moddiy ahvoriga zarar keltiradigan tovlamachilik hisoblanadi. Uning namoyon bo‘lish shakllari quyidagilardan iborat:

– shantaj, tovlamachilik qilish, ya’ni o‘z qurboni uchun noxush axborotni boshqalarga oshkor qilish bilan qo‘rqitib, uni hech kimga aytmaslik uchun haq talab qilish. Masalan, yirik miqdordagi daromadini soliqdan yashirganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni bilib qolib, uni soliq inspeksiyasiga bildirmaslik uchun o‘z qurbonidan haq to‘lashni talab qilish;

– inson hayotiga, salomatligiga, mol-mulki va kapitaliga tahdid solish. Bunda jinoyatchilar o‘z qurbonlariga zara yetkazish bilan qo‘rqitib, ziyon yetkazmaslik uchun pul talab qiladilar;

– iqtisodiy terrorizm – shaxsning ishonchiga kirib olib, turli yo‘llar bilan ko‘rsatayotgan xizmatlari uchun to‘lanadigan haq miqdorini oshirib borish. Agar shaxs qarshilik qilsa, kuch bilan yoki psixologik yo‘l bilan tahdid solish. Bunga shaxsning mol-mulkiga ega bo‘lish maqsadida qilingan tajovuz, o‘g‘rilik, tunash, qaroqchilik qilish, qo‘rqitish, tahdidsolish va boshqalar kiradi.

### **5.3. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizliginida ta’minlash yo‘llari va vositalari**

Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlarga munosabatda insonning ruhiy holatini faollik, bag‘rikenglik (tolerantlik), chidamlilik sifatida tavsiflash mumkin.

Faollik insonning o‘z maqsadini tanlashi hamda unga erishishi yo‘lida kuch-qudrat, shijoat, jo‘shqinlik bilan faoliyat ko‘rsatish va mehnat qilishga shayligi hisoblanadi. Bu hol shaxsning ma’lum bilim, kasb- malaka, mahoratga ega bo‘lib, o‘zgaruvchan vaziyatlar va holatlarda ham o‘ziga munosib joyni erkin egallashga, yuqori natija va samara bilan ishlashga imkon beradi. Bunday holatdagi kishi raqobatbardosh, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lib, o‘zining mehnati, mahorati, ishbilarmonligi tufayli o‘z ehtiyojlarini qondira oladi.

Shaxsning xavfsizligi hozirgi davrda quyidagilar bilan

tavsiflanadi:

- aholining mehnat va tadbirkorlik faolligi;
- mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi, iqtisodiy o‘shishga erishish;
- tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatining yaxshilanishi;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligining oshishi va ishsizlikning kamayishi;
- aholi daromadlari va iste‘molining, o‘rtacha daromad darajasining o‘sishi;
- kishilarning bilim, kasb-malaka va madaniyat darajasining o‘shishi;
- ma‘naviyatning rivojlanishi;
- fanning rivojlanish darajasi;
- kambag‘allik va qashshoqlikning kamayishi;
- aholi o‘lim darajasining kamayishi;
- aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasining o‘shishi.

Shaxsning xavfsizligin ta‘minlashda davlatning ijtimoiy siyosati muhim rol o‘ynaydi. Davlatning ijtimoiy siyosati, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligi va tadbirkorligini o‘stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati quyidagilarga qaratilgan:

- fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat, kasb turlari hamda sohalarini erkin tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash;
- mehnat motivatsiyasining kuchli mexanizmini kiritish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratish;
- aholini maqsadli va manzilli ijtimoiy himoya qilish hamda kam ta‘minlangan guruhlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- ta‘lim, ijtimoiy sug‘urta, sog‘liqni saqlash tizimlarini isloh qilish yo‘li bilan aholining intimoiy xizmatlarga bo‘lgan zarur kafolatini ta‘minlash. Shuningdek, davlat ijtimoiy siyosati aholining daromad va mulkka egalik darajasi bo‘yicha keskin tabaqalashuvining

oldini olish hamda aholining to'lov talablarini keng miqdorda qondirish va uning o'sishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

### **Asosiy so'z va iboralar**

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari, iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari, iqtisodiy xavfsizlik kontsepsiyasi, iqtisodiy xavfsizlikning ishlab chiqarish sohasi, iqtisodiy xavfsizlikning moliyaviy sohasi, iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy sohasi, iqtisodiy xavfsizlikda infratuzilmaning mavjudligi

### **Qisqacha xulosalar**

Globalashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o'tish davrining mahsuli bo'lib hisoblanadi. Globalashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqa darajasida ham eng muhim

### **Nazorat savollari**

1. Globalashuv deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday omillar ta'sirida globalashuv jarayonlari kuchayib bormoqda?
3. "Iqtisodiy globalashuv"ning xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Globalashuv jarayonlari mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Globalashuv sharoitida qanday qilib iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash kerak bo'ladi?

## **VI BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI IQTISODIY XAVFSIZLIKNING IJTIMOIIY INDIKATORISIFATIDA**

### **6.1. Ijtimoiy manfaatlar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari.**

### **6.2. Respublikamizdagi aholining turmush darajasi holati.**

### **6.3. Aholining turmush darajasini oshirish mexanizmi.**

*Ijtimoiy sektor va ijtimoiy xavf. Ijtimoiy sohadagi tahdidlar. Ijtimoiy ta'minot ko'rsatkichlari. Ishsizlik mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ijtimoiy ko'rsatkichidir. Qashshoqlik va qashshoqlik milliy va iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari hisoblanadi. demografik tahdidlar. Ta'lim va sog'liqni saqlashda iqtisodiy xavfsizlik. Davlatning ijtimoiy siyosati va ijtimoiy sohada xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi. Ijtimoiy sohada xavfsizlikning ustuvor yo'nalishlari. Inson salohiyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vazifasidir. Mamlakatda o'rta sinfningshakllanishi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi omil hisoblanadi. Qashshoqlik va qashshoqlikka qarshi kurash yo'llari. Davlatning demografik siyosati va uning milliy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli. O'zbekistonda ijtimoiy himoyani ta'minlash xususiyatlari.*

### **6.1. Ijtimoiy manfaatlar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari**

#### **Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar**

Yangi O'zbekistonni o'z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko'lamlislohotlarimizning asosiy maqsadidir.

Biz ana shu yo'nalishdagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamlislohotlar ilgari hech qachon bo'lmagan.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aho-

li soni qariyb 1,5 barobarga oshdi. Ushbu toifani qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotimizni tiklash uchun davlat budjetidan nihoyatda katta mablag' ajratildi.

Keyingi paytda uyma-uy yurib o'rganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning o'ziga xos fuqarobay va mahallabay yangi tizimi shakllantirildi. Shuningdek, moddiy yordam va ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlarini va nogironligi bo'lgan bolalar kiyim-bosh to'plamlari, maktab formasi va o'quv qurollari bilan ta'minlanmoqda.

Ayni vaqtda oldimizda aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalar turibdi.

Ijtimoiy sohada bizni qiynaydigan bir qancha savollar bor. Jumladan, mamlakatimizda bandlik masalasi qanday yechilmoqda? Barcha ishsiz fuqarolar ish bilan ta'minlanayaptimi? Bu sohada yana

nimalar qilish kerak? Xorijga ish qidirib ketganlarni yurtimizda ish bilan ta'minlash bo'yicha qanday choralar ko'rilayapti?

Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam - o'nta muammo, degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga jiddiy zarar keltirishini hisobga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi.

Ijtimoiy sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligi sir emas.

Avvalo, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslarni o'z vaqtida hisobga olish mexanizmlarini samarali ishlatish, muhtojlik belgilari paydo bo'lgan oila va fuqarolarning ijtimoiy ahvoli- ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, monitoring qilish, ularning turmush sharoitlarini har tomonlama baholab, individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratish darkor.

Jamoaviy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo'lishi, shahar yo'lovchi transporti, ijtimoiy va bosh-

qa infratuzilma obyektlaridan imtiyozli asosda foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish kerak.

Xotin-qizlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish hamda og'ir turmush sharoitida yashayotgan ayollarning mushkulini oson qilishga xizmat qiladigan mexanizmlar, afsuski, samarali ishlamayotganini qayd etish lozim.

Keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish, nafaqadagi otaxonlar va onaxonlarga har tomonlama yordam berish masalalarida ham kamchiliklar mavjud.

Soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan byurokratiya va ortiqcha qog'ozbozlik holatlari davlat ijtimoiy xizmati yoki yordamini tezkor asosda ko'rsatish imkoniyatini bermayotganini ko'pchilik mulozimlar yaxshi biladi. Ammo shunga qaramasdan, bunday noxush vaziyat davom etayotganini qanday tushunish mumkin?

Ijtimoiy sohani takomillashtirish va bu borada idoraviy axborot tizimlari, elektron resurs va ma'lumotlar bazalari mavjud emasligi ham ishimizga xalal bermoqda.

Mamlakatimizning ko'plab hududlaridagi mehnat bozorida doimiy ish o'rinlari mavjud emasligi, shu bilan birga, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini to'la-to'kis ta'minlashga erishilmagani ham ijtimoiy sohadagi islohotlar samarasini kamaytirmoqda.

Ushbu sohada nogironlar, boquvchisini yo'qotganlar va yordamga muhtoj aholi qatlami uchun maslahat-axborot berish xizmatlari va boshqa zarur xizmatlar darajasi pastligi, mazkur yo'nalishda uchrayotgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etish zarurati bizni, albatta, bezovta qilishi kerak.

Ayniqsa, nogironlar uchun protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarining yetishmovchiligi, ba'zi hollarda ular bahosining yuqoriligi bilan bog'liq muammolar ham mavjud.

Ayni paytda tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, "Muruvvat" va "Saxovat" internat-uylarida vasiylikka olinganlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan

tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish, ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish vazifalari ham dolzarblashmoqda.

Bu jihatdan mamlakatimizdagi protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni, jumladan, chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan holda, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni ishlab chiqarishning zamonaviy standartlarini joriy qilish kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi.

Ijtimoiy soha islohotlarining yuqori samaradorligiga erishish, mavjud muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining ijtimoiy jihatdan zarf qatlamlariga davlat ijtimoiy xizmatlari va "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimini yanada rivojlantirish;

- idoralararo elektron hamkorlikni qo'llash vositasida o'zaro hujjat almashish jarayonini avtomatlashtirish orqali davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotnoma va tasdiqlovchi hujjatlar sonini tubdan qisqartirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish;

- belgilangan mezonlarga muvofiq kam ta'minlangan oilalarning ehtiyojmandlik darajasini obyektiv baholash, davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali qarorlarni qabul qilishda subyektiv yondashuvni bartaraf etishga erishish;

- aholining ehtiyojmand toifasi tarkibi o'zgarishi dinamikasi monitoring i va tahlilini yuritish, ularni baholash mezonlarini respublika va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda takomillashtirishni davom ettirish;

- davlat ijtimoiy xizmatlari va ijtimoiy yordam oluvchilarning yagona ma'lumot bazasini muttasil yangilab borish; manfaatdor vazirlik, idoralar va tashkilotlarning o'zlariga yuklatilgan vazifava funksiyalarni bajarishda xizmatlarni bepul yoki imtiyozli asosda

taqdim etishi uchun ma'lumot bilan ta'minlash choralari kuchaytirish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va shu maqsadda nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash;

- ü• nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha faoliyatni davom ettirish;

- tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish darajasi va sifatini, jumladan, diagnostika, davolash va rehabilitatsiyaning zamonaviy uslublarini qo'llagan holda, yuqori texnologik ixtisoslashgan tibbiy va ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali oshirish;

- tibbiy yordam darajasi va sifatini oshirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash hamda tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar o'sishining sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va oldini olishni ham nazarda tutuvchi profilaktika tadbirlarini kengaytirish bo'yicha skrining tekshiruvlarining samaradorligini ko'tarish;

- tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, "Muruvvat" va "Saxovat" internat-uylarida vasiylikka olinganlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish, ularning rehabilitatsiyasi va ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish;

- nogironlikni belgilash va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasida vakolatli davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaf-



fofligini ta'minlash, tartib-taomillardan o'tishni yanada soddalashtirish.

Butun mamlakat hududida ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini yanada kuchaytirish, ularning uy-joy, maishiy va boshqa yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy xizmat va moddiy yordamni kengaytirish, shu jumladan, sifatli yordamchi va texnik vositalar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish lozim.

Bu yo'nalishdagi muhim vazifamiz mamlakatimiz urbanizatsiya darajasini 2025-yilga qadar 40 foizga yetkazish, butun aholining, jumladan, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bazaviy zaxiralardan foydalanishi uchun qulay iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Fuqarolar uchun olis-olis qishloqlarda ham shahardagidan kam bo'lmagan yashash sharoitlari yaratishga erishishimiz kerak. Aholini, eng avvalo, ehtiyojmand va yosh oilalarni arzon va zamonaviy, qulay uy-joy bilan ta'minlash, ichimlik suvi, elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatini oshirish yo'lidagi ishlarimizni izchil davom ettiramiz. 10 yil ichida shaharlarida markazlashtirilgan suv va gaz ta'minotini kamida 90 foizga, oqava tizimi bilan ta'minlashni qariyb 70 foizga yetkazamiz.

Kelgusida aholining to'liq bandligini ta'minlash va barcha uchun munosib ish o'rinlarini yaratish doimiy ravishda diqqat markazimizda bo'ladi. Bandlik darajasini yangi bosqichga ko'tarish, real ish haqining barqaror o'sishiga ko'maklashuvchi oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqa xo'jaligi va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash hisobiga aholi bandligini ta'minlash hamda fuqarolar oilaviy budjeti daromadlarini oshirish borasidagi ishlar ham biz uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Yuqorida zikr etilgan faoliyat bilan mashg'ul fuqarolarning zamonaviy mashinalar, uskunalar, xomashyo va materiallar xarid qilishi uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiramiz.

Yaqin o'n yilda aholi daromadlarining 2,5—3 marta ko'parishiga erishish, eng kam ish haqini yashash minimumi miqdori

darajasiga tenglashtirish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqiladi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar- dan kelib chiqqan holda, 2030-yilgacha kambag'allik darajasini 2 martaga kamaytirish choralari ko'riladi.

Samarali migratsiya siyosatini amalga oshirish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarimizga har jihatdan madad berish, qonuniy manfaatlarni himoyalash bo'yicha uzluksiz ishlarni davom ettiramiz.

Kam ta'minlangan oilalarning 3 yoshgacha bo'lgan farzandlariga to'liq ovqatlanish uchun oylik naqd to'lov yoki oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmonlar bepul berilishi bo'yicha dastur qabul qilinadi.

Har qanday jamiyatning madaniyat darajasi, bag'rikenglik va mehribonlik xususiyatlari imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan shaxslar va keksa avlod vakillariga munosabati bilan belgilanadi.

Nogironlikni belgilash mezonlari jahon andozalariga mos ijtimoiy modelga bosqichma-bosqich o'tkaziladi. Aholining muhtoj qismini protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim yaratiladi.

Mehnat faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan nogironligi bo'lgan shaxslarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish orqali ularning bandligiga ko'maklashish, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yanada takomillashtiriladi. Bu boradagi sa'y-harakatlarimizning huquqiy asoslari sifatida "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi kodeksni qabul qilishimiz kerak bo'ladi.

Keksalar va nuroniylarimizni, duogo'y otaxon va onaxonlarimizni e'zozlash, ularni hayotdan rozi qilish, qo'limizdan kelganicha umrlarini uzaytirish eng ulug' qadriyatlarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Bunday tabarruk insonlarga xizmat qilish, ularga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish bo'yicha olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar belgilaymiz.

Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Iste'mol tovarlari, jumladan, arzon narxdagi oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatini kengaytirish va hajmini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda "Ijtimoiy kodeks" qabul qilish davr taqozosidir.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarning amaliy ijrosi faoliyatimiz kun tartibidan doimiy o'rin olishi zarur.

Ijtimoiy sohadagi manfaatlar milliy manfaatlarning eng asosiylaridan bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy sohadagi manfaatlar xalqning yuqori turmush darajasini ta'minlash borasidagi davlat siyosatida aks etadi. Aynan ijtimoiy sohadagi manfaatlar amalga oshganda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlar o'rtasidagi muvozanatga erishiladi.

Aholining yuqori turmush darajasi uning pul daromadlari dinamikasida, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar iste'moli, aholining mulkiy tabaqalashuvi darajasida, bandlik darajasida, aholining barcha qatlamlari uchun sog'liqni saqlash, ta'lim xizmatlaridan bahramand bo'lish imkoniyatlari mavjudligida namoyon bo'ladi.

Aholi turmush darajasi milliy va shuningdek iqtisodiy xavfsizlikning eng asosiy ijtimoiy indikatorlaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikaning mustaqil taraqqiyoti davrida aholini turmush darajasini oshirish borasida islohotlarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratildi.

Respublika aholisini ijtimoiy muhofaza qilish quyidagilarni o'z ichiga olgan mexanizm asosida amalga oshirildi:

- nogironlar, yetim qolgan bolalar, yolg'iz qariyalarni ijtimoiy ta'minlashni o'z ichiga olgan tizim;
- kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam tizimi;
- aholining alohida guruhlar uchun ijtimoiy imtiyozlar tizimi;
- pensiya ta'minoti tizimi;
- pensiya tizimi orqali qamrab olinmagan keksa kishilarga nafaqa to'lash tizimi;

- ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi.

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlarning birinchi bosqichida inson va oila hayotining barcha sohalarini ta'minlashga, umuman, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan va bir-birini to'ldiruvchi chora-tadbirlarning butun bir tizimi shakllandi. Bu davrdanarxlar erkinlashtirilishi va pulning qadsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib keldi. Islohotlarning ushbu bosqichida daromadlar nisbatini o'zgartirish ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklaridagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorlarini bir vaqtning o'zida markazlashtirilgan tarzda qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshirildi. 90-yillarning birinchi yarmida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi.

## **6.2. Respublikamizdagi aholining turmush darajasi holati**

Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko'rilganligi aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash va ularning turmush darajasini oshirishning ikkinchi eng muhim yo'nalishi bo'ldi.

Islohotlar chuqurlasha borgan sari Respublika aholisi manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o'tish boshlandi. Bunda ichki narxlarni jahon narxlari darajasiga tez tenglashtirib olish va aholi daromadlarini shunga muvofiq ravishda oshirish yo'li bilan himoyalash chora-tadbirlari ko'rildi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi «Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamiz»<sup>21</sup> bo'lib, inson, jamiyat va davlatning muhim manfaatlarini

---

<sup>21</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик –

ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Sababi bu milliy iqtisodiyot o'sishining yuqori sur'atlari va investitsiya resurslariga kuchayib borayotgan talabni qondirishga xizmat qiladi.

Milliy manfaatlarni amalga oshirish mamlakatni iqtisodiy suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan izchil iqtisodiy o'sish orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy xavfsizlikning muhim shart hisoblanadi.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi.

Shu ayonki, har qanday jamiyatda o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish va farovon yashash uchun iqtisodiy o'sish yuz berishi kerak. Iqtisodiy o'sish deganda, iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning dinamik rivojlanishibo'lib, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini anglatadi.

Iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlarishaklida ham namoyon bo'ladi.

Shu bois ham, Harakatlar strategiyasi iqtisodiy o'sishning «sifati»ni oshirish maqsadini ko'zlagan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy o'sishning insonga xizmat qilishining ahamiyatiga to'xtalar ekan shunday deydi: «Hammamizga ayonki, o'sish sur'atlari – bu shunchaki bir maqsad emas. Bunday o'sish avvalo xalqimizga, har bir fuqaroga qanday naf yetkazishi, uning dasturxonida, kundalik hayotida aks etishi biz uchun muhim masala»<sup>22</sup> bo'lib qoladi.

Respublika aholisini turmush darajasini oshirish va shu orqali mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda faol ijtimoiy siyosatning uchinchi yo'nalishi katta o'rin tutdi. Bunda aholini kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-

---

хар бир рахбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. — «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. — Б. 8.

<sup>22</sup> Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор таракқиёт кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Шавкат Мирзиёевнинг Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг VIII съездидаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2016 йил.

quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazildi. Bunday siyosat aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar va aholining shunga o'xshash boshqa guruhlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifasi, degan qoidadan kelib chiqib amalga oshirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida aholining eng muhtoj, ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari manfaatlarini himoya qilish mumkin bo'ldi, bu esa aholining muayyan bir qismi qashshoqlashuvining oldini olish, fuqarolar tinchligi va ahilligini ta'minlash imkonini berdi.

Islohotlar chuqurlasha borgan sari aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan ijtimoiy himoya tizimiga o'tildi. Bunday tizimning eng muhim xususiyati, aholining turli qatlamlariga qat'iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashuvdan iborat bo'ldi.

Ijtimoiy ko'maklashuvning ta'sirchan tizimini tashkil etish yo'llarini izlash natijasida ko'maklashishning eng sodda, ammo samarali va ochiq vositasi bo'lgan mahalla orqali muhtojlarga yordam berishga o'tildi. Muhtoj oilalarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun o'zini o'zi boshqarish organlariga tayinli resurslar ajratib berish maqsadida mahallalarda respublika va mahalliy byudjet mablag'lari, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarning, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o'tkazgan mablag'lari hisobidan maxsus jamg'armalar hosil qilindi.


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borganini yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'tgan davr mobaynida aholi jon boshiga daromadlar muntazam ravishda oshib borgan va 2016 yil ma'lumotlari bo'yicha daromadlar 2000 yildagi darajasiga nisbatan 11,7 marta real oshgan. Shuningdek, ushbu davr oralig'ida o'rtacha ish haqi hamda pensiyalar miqdori mos ravishda 23,6 va 18,1 marta ortgani kuzatildi.

Shunday ekan, iqtisodiy o‘shish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi shaxs, jamiyat va davlatning muhim manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Biroq, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: «Xalqaro valyuta fondi ma’lumotlariga ko‘ra, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha O‘zbekiston dunyo reytingida 187 mamlakat o‘rtasida 134-o‘rinda turibdi. Vaholanki, O‘zbekiston juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan davlat. YUrtimiz zaminida oltin, kumush, mis, uran, neft, tabiiy gaz, ko‘mir kabi tabiiy qazilma boyliklarning katta zaxiralari mavjud. Umuman, Mendelevning kimyoviy moddalar jadvalidagi barchaelementlarni mamlakatimizdan topish mumkin»<sup>23</sup>.




**6.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2000 yilga nisbatan aholi jonboshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning o‘shishi dinamikasi (barobar)<sup>24</sup>**

O‘z navbatida, 2016 yil ma’lumotlari bo‘yicha daromadlar tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning ulushi 73,3

<sup>23</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.—«Ўзбекистон» НМИУ, 2018. — 45- б.

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari: <http://www.stat.uz>

foizni (2010 yilda 69,9 foiz), transfert shaklida olingan daromadlarning ulushi 20,3 foizni (2010 yilda 25,9 foiz), mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,0 foizni (2010 yilda 2,4 foiz), shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi esa 2,4 foizni (2010 yilda 1,8 foiz) tashkil etgan. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi ko'payishining asosiy omili bo'lib yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini oshirishga qaratilgan maqsadli chora- tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida yuzaga kelganligidir.



**6.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2010-2016 yillarda aholiumumiy daromadlarining tarkibi (foizda)<sup>25</sup>**


Aholi daromadlarini oshib borishi bilan bir vaqtda mamlakatimizda iste'mol tovarlarining mahalliyashtirilishi hamda ularni ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholiga xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida «ishlab

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari: <http://www.stat.uz>



chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish» vazifasi qo‘yilgani muammoning jiddiyligidan dalolat beradi.<sup>26</sup>



### 6.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2000-2016 yillarda aholi iste‘mol xarajatlarining tarkibiy o‘zgarishi (foizda)<sup>26</sup>

Shuningdek, aholining iste‘mol xarajatlari tarkibi yildan yilga optimallashtirilib, oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar barqarorlashib, nooziq-ovqat va xizmatlarga qilinayotgan xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Buni quyida keltirilgan grafikda ham ko‘rish mumkin.

### 6.3. Aholining turmush darajasini oshirish mexanizmi

Bozor munosabatlari vujudga kelayotgan davrda jamiyatdagi ma‘naviy, axloqiy muhit, odamlarning ruhiy va jismoniy holati maorif, sog‘liqni saqlash hamda madaniyat va san‘at sohalarining rivojlanganligiga bog‘liq ekanligini hisobga olgan holda ushbu sohalar alohida qo‘llab-quvvatlandi.

Mamlakatni va jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o‘tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilganligi va aholini himoya

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони.

qilishning o‘xshashi bo‘lmagan, samarali mexanizmini ishlab chiqilganligi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qildi.

Iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhiti va investitsiyaviy jozibadorlikni yaxshilash, aholi daromadlarini oshirish va biznes uchun soliq yukini kamaytirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida respublikada aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha olib borilgan siyosat to‘la-to‘kis o‘zini oqladi. Bunday siyosat o‘rtacha umr ko‘rish darajasini uzayishi, aholi daromadlarini oshishi, turmush darajasini ko‘tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishish, turli tahdidlarni oldini olish va oxir-oqibatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun zamin yaratdi.

Agar aholi sonining oshib borishi va har bir kishining tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabi oshib borishini hisobga olsak, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni jadal rivojlantirish o‘ta jiddiy va dolzarb hayotiy masala ekanligi hammaga ayon bo‘ladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va aholining ularga bo‘lgan ehtiyojini to‘liqqondirish, jumladan, maqbul narxlar bo‘yicha keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan xalqimizni to‘liq ta’minlash oldimizda turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi»<sup>27</sup>.

Aholi ish haqi va daromadlarining o‘sish sur‘ati eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, mustaqillikyillarida aholining real daromadlari sezilarli darajada o‘sdi.

Respublikada har 3 yilda ish haqini 2-2,5 barobar oshirish muhim strategik vazifa bo‘lib hisoblanadi. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta’minlash bo‘yicha yuksak marralarga erishayotgan

---

<sup>27</sup> Ш.Мирзиёев. «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз» // Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи газетаси, 2016 йил 15 декабр.

mamlakatlar darajasiga ko'tarilish respublika oldidagi asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi.

Respublikada daromadlar tarkibining takomillashuvi xarajatlarning iste'mol tarkibining ham yaxshilanishiga olib kelmoqda. Aholining banklarga qo'yilmalari va qimmatbaho qog'ozlar ko'rinishidagi naqd pul jamg'armalari ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga aholi iste'mol xarajatlari tarkibida ovqatlanish uchun xarajatlarning kamayishi va xizmatlarga bo'lgan xarajatlarning o'sishi tendensiyasi davom etmoqda. Mamlakatdagi xufiyona iqtisodiyotning ko'lami kengayib borishi, o'z navbatida, hududda yaratilgan milliy boylikni taqsimlash va qayta taqsimlanishida tengsizlikni keltirib chiqaradi. Aholi daromadlarining to'g'ri taqsimlanmasligi, jamiyatda ijtimoiy muxitning yomonlashuvi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlarining kuchsizlanishiga olib keladi. Jamiyatda jinoiy xarakterdagi faoliyatning hamda uyushgan jinoyatchilikning avj olishiga sharoit yaratib beradi. Mamlakatning investitsion muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman aytganda, "xufiyona iqtisodiyot"ning kengayishi aholining siyosiy xokimiyatga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga to'sqinlik qiladi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash, ularga turli xil shaklda imtiyozlar berish – yashirin iqtisodiyot miqyosini kamaytirishda muhim bir omil bo'lib hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy xavfsizligini turli tahdidlar, xavf-xatarlardan barqaror himoyalashini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha quyidagi maqsadlarni belgilab olishi muhimdir:

- aholining barcha ijtimoiy guruhlarini va tabaqalarini turmush darajasini oshirish orqali jamiyat barcha a'zolarining birdamligiga erishish;
- milliy iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni kiritishni rag'batlantirish, investitsion jarayonlarni faollashtirish;
- qat'iy soliq, pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta

qadrini oshirish va mustahkamlash;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va samarali bojxona nazorat tizimini shakllantirish;

- mamlakat fani va intellektual salohiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;

- mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytirish orqali ichki iqtisodiy makonni mustahkamlash;

- xo'jalik subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqishdagi mustaqilligi va erkinligini ta'minlash;


Shuni aytib o'tish joizki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy vosita va chora-tadbirlar bilan bir qatorda, korrupsiya, tashkiliy jinoyatchilik, xufiyona iqtisodiyotga qarshi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar, vositalardan ham foydalaniladi. Bunda iqtisodiy boshqaruv organlari huquq-tartibot, davlat xavfsizlik xizmati, chegara, bojxona organlari bilan birgalikda o'zaro aloqadorlikda faoliyat yuritadilar.

yashirin iqtisodiyot aylanmasi quyidagi usullar bilan hisoblanishi mumkin: 1) aholining iste'mol xarajatlari bilan rasman inobatga olinadigan tovar va xizmatlar aylanmasi (muomalasi) o'rtasidagi farq; 2) aholining iste'mol xarajatlari bilan tovar va xizmatlar, jumladan sotishning barcha kanallari orqali amalga oshiriladigan tovar aylanmasi (muomalasi) o'rtasidagi farq.

Bandlik ko'rsatkichi bo'yicha aniqlash usuli quyidagicha tadqiqot o'tkazish imkonini beradi:

- hisob-kitob asosida bandlikning amaldagi va rasman qayd etilgan darajasi o'rtasidagi farq yotadi;

- hisob-kitob asosida amalda ishlangan va rasman qayd etilgan vaqt o'rtasidagi farq yotadi.



6.4-rasm. Yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi<sup>28</sup>

Bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning ma'lum ko'rsatkichlari mavjud, (daromadlari haqida ma'lumot taqdim etmaydigan taksi haydovchilari, doimiy bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar, noqonuniy faoliyat olib boruvchi firmalar va hakazo...). Jahon bankining tahlil natijalariga ko'ra yashirin iqtisodiyotni vujudga kelishiga asosan sog'lom biznes muhitining rivojiga bo'lganto'sqinliklar sabab bo'ladi.

Davlat iqtisodiyotni samarali boshqara olmas ekan, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun yetarli sharoitlar yaratmas ekan, xufyona iqtisodiyot xunuk ko'rinishlarga ega bo'lib, miqyoslari kengayib boraveradi. Xufyona iqtisodiyot miqyoslari, ayniqsa, inqirozlar davrida, yuqori inflyasiya va valyuta kurslarining keskin o'zgarib turishi, bozor xo'jaligida muvozanat buzilgan sharoitda shiddat bilan kengayib boradi.

### Asosiy so'z va iboralar

Iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning ishtiroki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari, iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor vazifalar.

<sup>28</sup> Institute for Applied Economic Research at the University of Tübingen in Germany.

## **Qisqacha xulosalar**

Terrorizm jahondagi barcha mamlakatlar barqarorligi va milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid bo'lib hisoblanadi. Terrorizm va ekstremizm dunyoning deyarli barcha mamlakatlari va ularning fuqarolari xavfsizligiga tahdid solmoqda va juda katta siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy yo'qotishlarga olib kelmoqda. Terrorizmni jamiyat hayot faoliyatiga tahdid bo'lib, u eng tuban, eng qabih maqsadlarga xizmat qiladigan hodisadir. Globallashuv davrida terrorizm qarshi kurashishda butun jahon hamjamiyati ishtirok etishi kerak. Faqat shundagina kurashning samaradorligiga erishish mumkin.

## **Nazorat savollari**

1. Terrorizm qachon paydo bo'lgan?
2. Terrorizmning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari nimalardan iborat?
3. Terrorizm iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Jahon hamjamiyati terrorizmga qarshi qanday kurash olib boradi?

## **VII BOB. KORXONA (FIRMA)NING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

### **7.1. Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va faoliyati qoidalari.**

### **7.2. Korxonada xavfsizligiga tahdidlar.**

### **7.3. Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.**

*Korxonaning iqtisodiy manfaatlari. Korxonada va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi tushunchalarining mazmuni. Korxonada faoliyatidagi noaniqlik va risklar, iqtisodiy tahdidlar. Sanoat, tijorat, moliyaviy, iqtisodiy xavf va tahdidlar. Korxonagata'sir etuvchi ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlar.*

*Iqtisodiy xavf va tahdidlarni aniqlash, ularni nazorat qilish va kamaytirish usullari. Bankrotlik xavfi va uning oldini olish masalalari. Xatarlarni boshqarish. Iqtisodiy xavfsizlik choralari ishlab chiqish va ta'minlash yo'llari. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Xo'jalik faoliyati va xodimlarni iqtisodiy himoya qilish. Korxonada xavfsizlik xizmatini tashkil etish va uning vazifalari. Koronavirus pandemiyasi sharoitida korxonalar va tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish chora-tadbirlari.*

### **7.1. Korxonaning iqtisodiy manfaatlari va faoliyati qoidalari**

Iqtisodiyotning uzviy tarkibiy qismi va ayni paytda, iqtisodiy jihatdan alohida bo'g'ini hisoblanadi. Korxonada o'z faoliyatini o'zini-o'zi boshqarish, o'z xarajatlarini o'zi qoplashi asosida foyda (daromad) olish maqsadida yuritadigan birlamchi xo'jalik subyektidir. Korxonalar ishlab chiqarish, savdo, tijorat-vositachilik, transport, sug'urta, bank, injiniring, moliyaviy investitsiya, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya va turli xizmatlar ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatadi.

Korxonada (firma) faoliyatining asosiy maqsadi foyda (daromad) olish hisoblanadi. Shuningdek, korxonaning manfaatlari ishlab chiqarishni kengaytirish, personalning kasbiy mahoratini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida texnologiya va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan va taklif etilayotgan mahsulotning iste'molchilari, mijozlari va insofli sherik,

hamkorlarning sonini ko'paytirish ham kiradi.

Korxonalar iqtisodiy xavfsizligi – bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va qo'shimcha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz «texnika xavfsizligi», «piyoda xavfsizligi»,

«ozuq-ovqat xavfsizligi», «yo'l harakati xavfsizligi» kabi tushunchalarni uchratsak-da, «korxonalar xavfsizligi» haqidagi tushunchalar XX asrning so'nggi o'n yilida ommalashga boshladi.

Jahon iqtisodiyotining beqarorligi sharoitidan ilm-fan va amaliyotning eng muhim vazifalaridan biri korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimini ishlab chiqarish va amalga oshirishdir. Iqtisodiy shaxslar siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik sharoitlariga moslashishga, murakkab muammolarni hal etishda to'g'ri echimlarni qidirishga va ularning faoliyatiga tahdidlarni kamaytirishga yo'l qo'yishga majbur bo'ladi<sup>29</sup>.

Korxonalar xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxonalar va uning barcha bo'linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarni himoya qilish;
- korxonalar mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobat-bardoshligini oshirish;
- tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar yetkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo'lishga yo'l qo'ymaslik;
- barcha tuzilmaviy bo'g'inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;
- mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy manfaat-dorligini ta'minlash;

---

<sup>29</sup> Козивкин В. В. Экономическая безопасность промышленного предприятия [Электронный ресурс] // Бизнес, менеджмент и право. 2016.



- ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali axborot bazasini rivojlantirish;
- korxonada obro'ini oshirish.

Ko'rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda korxonada xavfsizligini ta'minlash vazifalari belgilanib, ular korxonaning ichki tartib-qoidalari va ish tartibida hamda maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda o'z aksini topishi mumkin. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) korxonada ichida hamda tashqi tashkilotlar hukumat idoralari, boshqaruv tuzilmasidagi qoidabuzarlik omillari, vakolatni oshirish holatlarini aniqlash;

2) korxonaning barqaror ishlashiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf- xatar hamda bozor kon'yunkturasidagi noqulay o'zgarishlarni aniqlash va zarur choralarini qo'llash;

3) bo'lajak hamkorlarni o'rganish, ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish va baholash;

4) iqtisodiy ayg'oqchilikka qarshi chora-tadbirlarni tayyorlash;

5) korxonada sirlaridan xabardor bo'lgan malakali xodimlarni boshqa korxonalariga jalb qilishning oldini olish;

6) nosog'lom raqobatchilikni engish;

7) korxonada hududi va moddiy resurslarini himoya qilish;

8) tijorat sirlarini muhofaza qilishni tashkil qilish;

9) mehnat jamoasi a'zolaridagi salbiy fikrlarni aniqlash;

10) favqulodda hodisalarning oldini olish va xavfsizlikning boshqa choralari.

Ma'lumki, qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z-o'zidan hal qilinmaydi. Buning uchun, avvalo, o'z ishini yaxshi bilishdan tashqari, mohir va yuqori malakaga ega bo'lgan hamda o'zlari ishlayotgan korxonada uchun jon kuydiruvchi kadrlar zarur. Ularsiz muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Xavfsizlik tamoyillari – xavfsizlikni ta'minlash taktika va strategiyasiga bo'lgan asosiy talablar, xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini tanlashdir. Ularga

quyidagilarnikiritish mumkin:

- qonuniylik tamoyillari;
- mustaqillik va mas'uliyat;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik;
- maqsadli dasturiy rejalashtirish;
- o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirish;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish;
- oshkoralik va zaruriy maxfiylikning uyg'unligi;
- ixtisoslashuv va yuqori kasbiy malaka.

Mikrodarajadagi xavfsizlik iqtisodiyot quyi subyektlarining normal faoliyatini, ya'ni firmalar, banklar va boshqa tijorat tuzilmalari va xonadonlarning rivojlanishi o'ziga iqtisodiy sharoit yetarli bo'lishini bildiradi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlarini amalga oshirish nafaqat uning barqarorligi, balki moliyaviy-iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun sharoitlar yaratadi, shuningdek, sanoatining iqtisodiy salohiyatini va umuman, mamlakat iqtisodiyotini kengaytirishga sharoit yaratadi<sup>30</sup>.

**Firmalarning xavfsizligi** — bu tadbirkorlik kapitali aylanma harakati (oborotini) uzluksiz bo'lishi, ya'ni korxonada darajasidagi takror ishlab chiqarishni uzluksiz ta'minlanishini bildiradi. Uni ichki va tashqi tahdidlar yuzaga keltiradi. Ichki tahdid bu firma jamoasining faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillardir. Firma ishlab chiqarishning dastlabki va asosiy bo'g'inidir. Uning faoliyati o'z ishini qanchalik samarali tashkil etishiga bog'liq. Agar firma bozor talablarini to'g'ri qabul qilib, ularga moslashgan holda bozorbop tovarlarni ko'plab ishlab chiqarsa, uning xavfsizligi shunchalik ta'minlanadi. Firmaning xavfsizligi iqtisodiy xavf-xatarning darajasiga va uning ushbu xavf-xatarga munosabatiga bog'liq bo'ladi. Assimetrik informatsiyaga tayanib ishlagan firma qoqiladi, chunki u katta xatarga duch keladi. Aksincha, simmetrik informatsiyaga tayangan firmaning ishi yurishib, xatarga kamroq yo'liqadi, chunki u bozorbop tovarlarni ko'plab

---

<sup>30</sup> Сенчагов В. К. Экономическая безопасность России: общий курс: учебник; 3-е изд. М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2012. 813 с.

chiqaradi, sotish hajmi va rentabellik oshadi. Ammo iqtisodiy xavf-xatarga munosabatga qarab, ya'ni unga borish, bormaslik yoki befarq qarashga nisbatan xavfsizlik darajasi farqlanadi.

Iqtisodiy xavf-xatarga bormagan firmada xavfsizlik darajasi yuqori bo'lgani holda, rentabellik kam bo'ladi. Iqtisodiy xatarga borgan firmada xavfsizlik darajasi past bo'ladi, rentabellik ko'proq ta'minlanadi. Firmalar yo'liqadigan tashqi tahdid tabiatan ekstrenaliylardan iborat bo'lib, uni tashqi obyektiv muhit, xususan raqobat muhiti yuzaga keltiradi. Xavfsizlikni ta'minlash uchun firmalar raqobat muhitiga moslashadilar, ularni bundan boshqa iloji yo'q, chunki ekstrenaliylar firma uchun obyektiv iqtisodiy borliqdir. Shu sababli firmalar iqtisodiy xavfsizlikka va umuman, xavfsizlik muammolariga juda katta e'tibor berishadi. Bu ishga esa tijorat siri to'g'risidagi qonunlar xizmat qiladi.

Xorijdagi firmalarga tadbirkorlik faoliyatining xavfsizligini ta'minlashga pul sarflari xosdir. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, *ushbu xarajatlar yillik foydaning 15—18 foizini tashkil qiladi*<sup>31</sup> boshqa ma'lumotlarga ko'ra, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun *firma yillik daromadining 15-20 foizini sarflaydi*<sup>32</sup>.

Ba'zi farqlar bo'lishiga qaramay, raqamlar, umuman olganda, yaqin va shu bois ularni hisob-kitob uchun asos qilib olsa bo'ladi. Natijada iqtisodiy xavfsizlikni saqlab turish uchun sarflanadigan xarajatlar xorijiy biznesdagi xususiy tuzilmalaridan bir maromda foyda olishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, korporativ boshqaruvda iqtisodiy xavfsizlik bo'g'ini paydo bo'lmoqda. Tijorat tuzilmalarida iqtisodiy xavfsizlik va razvedka apparatlarining shakllanishi iqtisodiy raqobatga tayyorgarlik masalalariga e'tiborning kuchayishiga olib keldi. Hozirgi kunda ushbu xizmatlarning rahbar va operativ kadrlarini tarbiyalash, o'qitish, ta'lim berish va doimiy

---

<sup>31</sup>Қаранг: Крысин А. В. Безопасность предпринимательской деятельности // Финансы и статистика. — 1996. — С. 249

<sup>32</sup> Қаранг: Банковская система России. Настольная книга банкира. Безопасность банка. — М., 1995. — С. 80.

qayta tayyorlash tizimi qaror topdi. Maxsus maktablar va markazlarda, iqtisodiy xavfsizlikning turli jihatlarini bo'yicha iqtisodiy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning ilg'or usullari o'rganilmoqda, ularni modellashtirilgan tuzilmalar orqali tahlil qilish ko'nikmalari va mahorati hosil qilinmoqda.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik mikroiqtisodiy darajadagi xo'jalik faoliyati subyektlarida o'zining tashkiliy shakllariga ega bo'lmoqda, chunki xavfsizlik firmalar, korxonalar, banklar va boshqa tadbirkorlik tuzilmalari uchun keskin muammo bo'lib qolmoqda.

Mahsulotlarning zamonaviy namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejaları va boshqalar sanoat ayg'oqchiligining diqqat markazida turib, korxonalar va mamlakat uchun ma'lum bir xavftug'diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar, tashkilot va muassasalarning iqtisodiy jihatdan xo'jalik subyektlari sifatidagi muvaffaqiyati ularning iqtisodiy manfaatlari talablarini qanday bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Korxonaning muhim iqtisodiy manfaatlari iste'molchilar talablari va tadbirkorlik tavsifidagi ichki omillarga bog'liq holda vujudga keladigan noaniq kutilmagan vaziyatlarga moslashish qobiliyati kiradi.

Korxonalar o'zining foyda olish maqsadini amalgam oshirishi uchun muntazam ravishda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish texnologiyasini takomillashtirishga, mahsulotlarning iste'mol xususiyatlarini oshirishga, ularni sotish jarayonlariga ko'proq e'tiborni qaratishga majbur bo'ladi. Shuningdek, undan aylanma mablag'lar harakatini tezlashtirish, barcha turdagi zaxiralarni kamaytirish, reklama, hamkorlar bilan ikki tomonlama shartnomalar tuzish, kelishuv majburiyatlariga rioya etish talab etiladi. Mahsulotni sotish va xizmat ko'rsatish jarayonida korxonaning iqtisodiy manfaatlari ro'yobga chiqadi.

Iqtisodiy manfaatlar korxonaning barqaror, ishonchli, moliyaviy-

iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat yuritishi, personalning shaxsiy xavfsizligi va faolligini oshirish, yetarli darajada moddiy, informatsion intellektual salohiyatga ega bo'lishidan manfaatdorligidan ham yuzaga keladi. Iqtisodiy nazariya fanida xo'jalik subyektlari faoliyati to'g'risidagi bir qancha konsepsiyalar ilmiy jihatdan asoslangan. Ularda korxonalar iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq faoliyat, xatti-harakatlarning xususiyatlari yoritilgan.

Iqtisodiy xavfsizlikni, umuman tadbirkorlik faoliyatini ta'minlash borasida o'z kuchlarini birlashtirishga intilishlar ham yuz bermoqda. Masalan, *Banklar xavfsizligi xalqaro uyushmasi mavjud bo'lib, uning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri banklarning iqtisodiy xavfsizligini bevosita ta'minlovchi usullar va vositalarni tarqatishdan iborat*<sup>33</sup>.

Moskva banklar ittifoqi banklararo axborot-tahlil markazining asosiy e'tibori kreditlar olishda namoyon bo'ladigan firibgarliklarning oldini olish borasida banklarning hamkorligini muvofiqlashtirishga qaratilgan. Shuningdek, Moskva shahri va viloyati uchun Rossiya iqtisodiy xavfsizlik xizmati tashkil qilindi. Uning faoliyatidan ko'zlangan maqsad tijorat axborotini himoyalash va xavfsizlik borasidagi global dasturni ishlab chiqishdan iborat.

**Iqtisodiy xavfsizlik uning quyidagi prinsiplari orqali yuzaga chiqadi:**

*Birinchidan*, bu faoliyat turlari va shakllarini tanlash erkinligi. Garchi

«bozor iqtisodiyoti» ko'p qirrali tushuncha bo'lsa-da, uning asosiy belgisixo'jalik faoliyatining erkinligidir.

Tabiiyki, iqtisodiy erkinlik uning anarxiyaga o'tib ketishiga, iqtisodiy o'zboshimchalikka imkon bermaydigan doiralar bilan cheklangan. Ijtimoiy cheklovlar tizimisiz ayrim subyektlar erkinligi boshqalar uchun zo'ravonlikka aylanishi mumkin, vaholanki xavfsizlikni ta'minlashda zo'ravonlikka yo'l qo'yimaslik zarur.

---

<sup>33</sup> Каранг: Банковская система России. Настольная книга банкира. Безопасность банка. — М., 1995. — С. 80.

*Ikkinchidan*, har qanday xo‘jalik yurituvchi o‘zi istagan, maqsadga muvofiq, foyda keltiradigan iqtisodiy faoliyat turini afzal ko‘rib, tanlashi uning xavfsizligiga xizmat qiladi.

An’anaviy firma nazariyasi uning yagona iqtisodiy manfaati foydani maksimallashtirishga qaratilganini asoslaydi. Menejerial nazariyaga ko‘ra firmaning faoliyatini uning egalari emas, balki menejerlari belgilab beradi. Ularning iqtisodiy manfaatlari ishlab chiqarish va mahsulotlar sotish hajmini hamda daromadni maksimallashtirish hisoblanadi. Firma qisqa muddatli davrda tovar sotish hajmini maksimallashtirishga, uzoq muddatli davrda esa foydani maksimallashtirishga harakat qiladi.

Firma egalari kapitalni o‘stirish, shaxsan boyishni xohlaydilar. Bunday xohish cheksiz bo‘lib, menejerlar ish haqi, obro‘-e’tibori, firmadagi o‘z mavqeyini o‘stirishni istaydi.

Ko‘p maqsadlar konsepsiyasiga ko‘ra firma bir necha maqsadni, ya’ni foyda, sotish hajmi, iqtisodiy o‘sish va boshqalarni ko‘zlaydi.

## **7.2. Korxonaxavfsizligigatahdidlar**

Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida har bir alohida holatdagi aniq harakat bo‘lib, korxonaxarakteri, uning joylashuvi, ahamiyati kabilarga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur jarayonda xavfsizlik tizimining o‘zini belgilash muhim ahamiyat kasbetadi. Uning rahbari xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga nisbatan ishlab chiqishda shaxsan ishtirok etishi zarur.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi darajasi uning rahbariyati ichki va tashqitahdidlarning paydo bo‘lishini oldini olish va tashqi xamda ichki muhitning muayyan salbiy qismlarini zararli ta’sirini bartaraf etishga qanchalik ta’sir qilishiga bog‘liq<sup>34</sup>.

Korxonaning iqtisodiy manfaatlari foydali ishni yuritish, turli ehtiyojlar mavjud sharoitda talabni qondirish, yashash va rivojlanish uchunraqobat kurashi kuchaygan sharoitda himoya qilinadi.

Tadbirkor faoliyatining muvaffaqiyati quyidagilarga bog‘liqdir:

---

<sup>34</sup> Горбачев Д. В. Комплексный подход к организации деятельности службы экономической безопасности предприятия // Интеллект. Инновации. Инвестиции. 2014. № 1.С.165-170.

- bozor konyukturasini bilish;
- unga naf keltiradigan bozor talablaridan kelib chiqadigan qimmatli xborotlardan foydalanish;
- o‘zining ishlab chiqarish sirlarini saqlash;
- intellektual salohiyati va texnologiyasi;
- raqobatchining rejasi va texnologik siri to‘g‘risidagi axborotga egabo‘lishi.

*Korxonalar (firmaning) iqtisodiy xavfsizligi* – ma‘muriyat va personal tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va injener texnik tavsifdagi chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir.

Korxonalar turli yo‘nalishdagi iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqadi. Ularning muhimlari quyidagilardan iborat:

- mavjud yoki vujudga kelishi mumkin bo‘lgan. Iqtisodiy tahdidlarni bartaraf etish yoki oldini olishga yo‘naltirilgan, masalan, axborot oqimlariga;
- xavfsizlik obyektlariga noxush, salbiy ta’sirlarni cheklovchi, masalan, tijorat sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlar;
- riskni hisobga olgan holda innovatsion va investitsion siyosatni amalga oshirish oqibatida korxonaga yetkazilgan zarar yoki yo‘qotishlarning o‘rnini qoplash, ularni tiklashga qaratilgan xavfsizlik strategiyalari.

Korxonalar iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar ichida eng muhimlari iqtisodiy shpionaj va razvedka hisoblanadi. Mutaxassislarining hisobotlariga ko‘ra AQSHda har yili xususiy firmalar iqtisodiy razvedka maqsadlari uchun 1,5 mlrd. dollardan ortiq mablag‘ sarflaydilar. Yaponiya korporatsiyalari esa shpionaj orqali boshqa mamlakatlarning texnika yutuqlari to‘g‘risidagi axborotlarning 40 foiziga ega bo‘lishadi. Ushbu yo‘l bilan raqiblar bir-birlarining bozor strategiyalari, bitim (kontrakt)lar, ishlab chiqarish rejalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Xufyonacha olishga harakat qiladilar. Xufyona tarzda saqlanayotgan ma‘lumotlarni hujjatlarni o‘g‘irlash, nusxa ko‘chirish, aloqa kanallarini Xufyonacha eshitish, tegishli xodimlarni sotib olish, ularga tahdid qilish, kompyuter, elektron hisoblash texnikasi tarmog‘iga kirish va boshqa usullarini qo‘llash

yo‘li bilan iqtisodiy shpionlik faoliyatini amalga oshiradilar.

Korxonalar iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni ichki va tashqi tahdidlar guruhiga turkumlash mumkin:

***Ichki tahdidlar (endogen):***

- korxonaning raqobat o‘rni, marketing strategiyasi va siyosati bilan bog‘liq tahdidlar;
- menejment darajasi bilan bog‘liq tahdidlar;
- resurslar va ulardan foydalanish bilan bog‘liq tahdidlar;


***Tashqi tahdidlar (ekzogen):***

***a) Xalqaro tahdidlar***

- umumiy iqtisodiy tahdidlar;
- xalqaro savdo beqarorligi;
- xalqaro raqobat;

***b) Milliy tahdidlar***

- siyosiy barqarorlik;
- ijtimoiy-iqtisodiy, demografik tahdidlar;
- bozordagi beqarorlik.



**7.1-rasm. Korxonaning tijorat sirlarini himoyalashi<sup>35</sup>**

Tadbirkorlar tijorat sirlarini sanoat shpionajidan, oshkora bo‘lishdan himoyalash uchun quyidagilarni amalgam oshiradilar:

<sup>35</sup> «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent – 2012.



- ilmiy-texnikaviy yangilik va fchiщкщедфктш himoya qilish uchun ularni patentlashtirish mualliflik huquqini olish, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni aniqlash;

- hujjatlar bilan ishlaydigan xodimlarni aniqlash, ro'yxatini tuzish, ularning faoliyatini muntazam nazorat qilish, axborot va ma'lumotlar bilan ishlash tartibini belgilash hamda uning ustidan nazorat o'rnatish;

- tijorat ma'lumotlari va axborotlarini maxsus hisobga olish, ularni saqlash tartibini o'rnatish, nazorat ostida ko'paytirish hamda maxsus shaxslar kuzatuvda hujjatlarni yo'q qilish;

- xodimlarni hujjatlar bilan ishlash va ularni himoyalash bo'yicha o'qitish, mashg'ulotlar o'tkazish, ko'rsatma, tavsiyalar berish, kundalikeslatmalar qilish (7.1-rasm).

Shu bilan bir vaqtda korxonalar o'z faoliyatining muhim yo'nalishlari xavfsizligini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak va buning uchun avvalo, mos keluvchi qo'riqlash tartibini yaratish lozim. Mamlakatimiz va xorij amaliyoti tajribasi bunda quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bino va inshootlar, aloqa tarmog'i qurilma va uskunalari qo'riqlashtartibini ta'minlash.

2. Tezkor xavfsizlik, maxfiy axborotlarga bo'lgan vakolatni boshqarish, kelib ketuvchilar, transport va yuk tashishni nazorat qilish, qoidabuzarlik holatlarini tekshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash.

3. Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ma'muriy faoliyat personalini (xodim-lari)ni tayyorlash va o'qitish, inspeksiya, taftish va nazorat, muammoli vaziyatlarning oldini olish, istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

4. Moddiy boyliklarni himoya qilish va tabiiy ofatlarga qarshi kurash, yong'inlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi va ogohlantirishqurilmalari holatini kuzatib borish va hokazo.

Korxonalar rahbarlari mehnat jamoalarini doimiy ravishda xavfsizlikni ta'minlash natijalari to'g'risida xabardor etishlari lozim. Faqat zarur hollarda xavfsizlik chora-tadbirlari maxfiy bo'lishi mumkin. Xavfsizlik chora-tadbirlarining maxfiyligi korxonalar

bo'limlarining zaruriy qoidalarni qo'llash va ularga amal qilishini, nazorat qilishni maxsus tashkiletishni ko'zda tutadi.

Ayrim korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora- tadbirlar miqyosi va shakli bo'yicha farq qilishi mumkin va korxonalar ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa imkoniyatlarga, muhofaza qilinadigan sirlarning miqdori va sifatiga bog'liq.

Hozirgi jamiyatni axborotlashtirish va elektronlashtirish sharoitlarida korxonalarining xavfsizligini ta'minlash uchun doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi, tijorat faoliyatining xavfsizligini ta'minlashning barcha shakl va usullarini qamrab oluvchi tizim amal qilishi lozim. Shu sababli xavfsizlik xizmati marketing va menejment xizmati, valyuta, kredit va huquqiy bo'limlar kabi iqtisodiy bo'linmalar bilan chambarchas bog'liqlikda ishlab, iqtisodiy xavfsizlikka kuchliroq yondashgan holda, ularning faoliyatini to'ldirishi zarur.

### **7.3. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash**

Xavfsizlik xizmati korxonaning tuzilmaviy birligi bo'lib, xavfsizlik tartibini ishlab chiqish, o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, unga rioya qilinishini nazorat qilishni amalga oshiradi. U o'z faoliyatida quyidagilarga asoslanishi lozim:

- qo'riqlash tartibini tashkil etish bo'yicha qoidalar;
- rahbar, mutaxassis va texnik xodimlar uchun maxfiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha lavozim yo'riqnomasi;
- texnik muhandislik jihatidan himoya qilishni tashkil etish bo'yicha lavozim yo'riqnomasi;
- xorijiy vakolatxonalar va vakillar bilan ishlash bo'yicha lavozim yo'riqnomasi.

Korxonalar xavfsizlik xizmati tarkibida axborot-tahlil bo'linmalari, xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha tashkiliy bo'g'inlar hamda muayyan vazifalarni bajarish uchun vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin. Korxonalar rahbariyati yoki aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi qaroriga ko'ra, muayyan maqsadlar va yuzaga keluvchi sharoitlarda xavfsizlikni ta'minlashning murakkab

vazifalarini hal qilish uchun korxonaning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf qilish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xarajatlarning tuzilmasini tezkor tartibga solish imkonini beradigan korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning yaxlit tizimini ishlab chiqish va joriy etish natijasida muayyan korxonaning umumiy moliyaviy ahvoriga sifatli ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa natijada nafaqat faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi korxonaning o'zi ham, umuman olganda mamlakat iqtisodiyotini tiklashga ta'sir qiladi<sup>36</sup>.

Korxonada xavfsizligini ta'minlash uchun xo'jalik faoliyatining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tahlil qilish yo'li bilan uning turli tahdidlargabarqarorligi hamda xavfsizlik darajasi baholanadi.

Ushbu tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar bo'yicha korxonaning zaif tomonlari, tahdidlarning salbiy ta'sirini baholash;
- 2) iqtisodiy tahdidlarning salbiy ta'sirini bartaraf etish bo'yicha shu vaqtgacha ko'rilgan chora-tadbirlarni xo'jalik subyektlarini boshqarish elementlarining faoliyati bilan bog'liq ravishda qayta ko'rib chiqish;
- 3) tahdidning salbiy ta'sirini bartaraf etishda xo'jalik subyektini boshqarishning funksional elementlari rolini miqdor hamda sifat jihatdan tavsiflash va baholash;
- 4) iqtisodiy xavfsizlik darajasini integral baholashni shakllantirish;
- 5) xavfsizlik darajasini baholashning joriy natijalarini ilgari davrdaolingan natijalar bilan solishtirish va taqqoslash;
- 6) iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarni bartaraf etish yoki neytrallashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarning yetarli darajada natija bermaganligi sabablarini aniqlash;
- 7) iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda xo'jalik subyektini boshqarishning funksional elementlari faoliyatini yaxshilash bo'yicha

---

<sup>36</sup> Экономическая и национальная безопасность: учебник / под ред. Е. А. Олейникова. М.: Экзамен, 2005. 768 с

qo‘shimcha tavsiyalar tayyorlash.

Iqtisodiy xavfsizlikning intellektual va kadrlar bilan bog‘liq jihati personal bilan ishlash, xodimlarni o‘qitish va mehnat motivatsiyasini rivojlantirish, intellektual salohiyatni saqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bunda kadrlar malakasining yetishmasligi, ularning korxonaga naf keltirishga qodir emasliklari yoki buni istamasliklari, korxonaning turli bo‘linmalari mehnat unumdorligi va ish sifatining pasayishi iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda ishlab chiqarishning texnik darajasi, sotilayotgan va xarid qilinayotgan litsenziyalar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va qo‘llanilayotgan texnologiyaning jahonning eng yaxshi andozalariga mosligi, mahsulotning ilm talabligi va innovatsiyadarajasi muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida xo‘jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi hisobot ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi:

- korxonaning o‘z mablag‘lari bilan ta‘minlanish koeffitsienti, o‘zining aylanma aktivlarining umumiy aktivlar summasiga nisbati;
- joriy likvidlik ko‘rsatkichi;
- o‘z kapitalining rentabelligi;
- umumiy to‘lovga qodirlik ko‘rsatkichi, aktivlar bozor qiymatining xo‘jalik subyektining barcha majburiyatlariga nisbati;
- kapitallashtirish koeffitsienti, o‘z kapitalini bozor qiymati qarz mablag‘larining balans qiymatiga nisbati;
- menejment koeffitsienti, sotishdan olingan pul tushumining joriy majburiyatlar miqdoriga nisbati.

Korxonaning tijorat sirlari ishlab chiqarish, texnologik ma‘lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni oshkor qilish korxonaning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlardir. Korxonaning tijorat sirlari toifasining qonunchilikda belgilab berilgan tavsifnomasi shunday.

Mavjud nuqtai nazarlarga ko‘ra, korxonaning tijorat sirlari umumiy holda quyidagilar haqidagi ma‘lumotlarni qamrab oladi:

- korxonaning savdo aloqalari;
- kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejalari;
- ta'minotchi va iste'molchilar, tuzilgan shartnomalar;
- ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag'lar va foyda hajmi;
- bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi;
- bank operatsiyalari va hokazo.

Ko'pincha «tijorat sirlari» tushunchasidan tashqari, «korxonaning ishlab chiqarish sirlari» tushunchasi ham qo'llanadi. U ishlab chiqarish usullari, texnologiyalar, texnik kashfiyotlar, tadqiqot ishlari, mehnatni tashkil qilish, aloqa tarmog'i va shu kabilar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi bozor munosabatlari, ayniqsa, raqobatchilik maxfiy sharoitlarda korxonalar tijorat va ishlab chiqarish sirlarining oshkor qilinishi uning ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar iste'molchilarini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Mutaxassislar fikriga ko'ra, tijorat sirlariga mansub ma'lumotlarning to'rtidan bir qismi yo'qotilishi ham raqiblar uchun katta imkoniyat yaratadi hamda bir necha oy ichida ma'lumotlar chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ygan firmalarning yarmi bankrotga uchrashiga olib keladi. Shu sababli hozirgi paytda tijorat sirlarining huquqiy maqomi va toifasini aniq belgilash, ularni oshkor qilish uchun javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi, korxonaning moliyaviy va texnik imkoniyatlari bilan aloqada bo'lganda, shuningdek ma'lumotlarni himoya qilishning ishonchli tizimi mavjud bo'lganda to'liq kuch bilan ishlaydi. Bundan tashqari quyidagilarni to'g'ri tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- tayyor mahsulot (ayniqsa, tajriba namunalari) va materiallarning ba'zi turlarini hisobga olish va qo'riqlash;
- tadbirkorlik sirlari mavjud bo'lgan hujjatlar bilan ishlash tartibi (ularni hisobga olish, saqlash, yo'q qilish qoidalari va

boshqalar);

- hujjatlarni ko‘paytirish va ulardan nusxa olish vositalarini nazorat qilish;

- aloqa vositalari va hisoblash texnikasida tijorat ma’lumotlarini himoya qilish;

- korxonada hududi va uning asosiy bino hamda inshootlarini qo‘riqlash;

- mazkur korxonaga begona shaxslar tashrif buyurishini nazorat qilish.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha vazifalarni samarali bajarish boshqaruv apparatida tijorat sirlarini muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi maxsus xizmatlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Xorij mamlakatlarida mazkur faoliyat bilan firmalarning maxsus bo‘linmalari shug‘ullanadi. Ular raqobatchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni izlash va to‘plash bilan ham shug‘ullanadi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida ular savdo hamkorlarining tijorat sirlarini birgalikda himoya qilish imkoniyatini ham rad qilmaydilar. Masalan, ba’zi firmalar faoliyatida tadbirkorlik aloqalari davomida hamkorlarga berilgan ma’lumotlarni birgalikda himoya qilish bo‘yicha maxsus shartnomalar tuzish tartibi ko‘zda tutilgan.

Tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning kompleks tizimi - jismoniy yoki yuridik shaxslarning jiddiy iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan haqiqiy yoki potensial faoliyatidan tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan bir- biriga bog‘liq tashkiliy-huquqiy choralar majmuidir<sup>37</sup>.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning yagona tizimini yaratish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladiki, ular hayotiy muhim manfaatlarni himoya qilish va tadbirkorlik faoliyati vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishning muhim talablari ham hisoblanadi:

### **1. Qonuniylik** – xavfsizlik choralari mamlakatda amal

---

<sup>37</sup> Кудрявцев А.В. Экономическая безопасность, как ресурс управления на предприятиях с государственным участием // Гуманитарные научные исследования. 2017. № 6

qilayotgan qonunlar doirasida ishlab chiqiladi.

**2. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik** – ko‘rilayotgan iqtisodiy xavfsizlik choralari xo‘jalik faoliyatining yomonlashuviga, foydasining kamayib ketishiga olib kelmasligi kerak.

**3. Dasturli-maqsadli rejalashtirish, mustaqillik va mas’uliyat** – korxonaning xavfsizlik xizmati o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan mablag‘, resurs, moddiy texnika anjomlari bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim.

**4. O‘zaro hamkorlik va faoliyatlarni muvofiqlashtirish** – korxonaning turli bo‘limlari ushbu tamoyil asosida faoliyat yuritishlari kerak bo‘ladi.

**5. Ixtisoslashuv va professionalizm** – xavfsizlik xizmatining kadrlar tarkibi ushbu yo‘nalishda ma’lum tayyorgarlikdan o‘tgan va shunday ixtisoslikda kasb-korga ega bo‘lishi kerak.

**6. Ishni tashkil etish** – xavfsizlikni ta’minlashda himoyaning zamonaviy vositalaridan foydalanish, ilg‘or tajriba va ilmiy ishlanmalarga tayangan holda ishni tashkil qilish lozim.

**7. Talabchanlik va nazoratning ochiqligi** – korxonada ma’muriy-huquqiy tartibni qo‘llash va unga rioya qilish ustidan nazoratni tashkil etish.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda mustaqil xo‘jalik subyektlari sifatida faoliyat yurituvchi xavfsizlik tadbirkorlik firmalari muhim rol o‘ynaydi. O‘zining xavfsizlik xizmati bo‘limini tashkil qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan korxonalar xususiy xavfsizlik xizmati hamda obyektlarni qo‘riqlash bo‘yicha huquq-tartibot organlari bilan shartnomalar tuzishi mumkin.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning davlat idoralarida maxsus vositachilik xizmatlari mavjud bo‘lib, u mijozlarni ularni qiziqtirayotgan korxonalar va tashkilotlar haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Mamlakatimizda korxonalar davlatga soliqqa tortish va iqtisodiy ma’lumotlarni yig‘ish va ular bilan ishlash tizimi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, korxonalar o‘z faoliyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, jumladan, yillik balansni nashr qiladilar. Shu bilan bir

paytda korxonalar tijorat sirlariga oid ma'lumotlarni bermaslik huquqiga ega. Tijorat sirlari davlat boshqaruv va nazorat idoralari xodimlari orqali chetga chiqib ketishining oldini olish maqsadida korxonalar rahbari ularning vakolatlarini bilishi hamda ular talab qilgan istalgan ma'lumotni emas, balki faqat xizmat vakolatiga doir ma'lumotlarni taqdim etishi zarur. Birinchi o'rinda bu statistika xizmati, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi, huquqni muhofaza qilish organlari, moliya, soliq, sanitariya, yong'inga qarshi kurash va boshqa xizmatlar vakillariga tegishli. Korxonalar rahbari, shuningdek, davlat idoralari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan arz qilish tartibi, ular tufayli korxonaga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash mexanizmini bilishi va unga amal qilishi zarur. Ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va boshqa xizmatlar mutaxassislari o'zi ishlayotgan korxonaning tijorat sirlariga oid ma'lumotlar chetga chiqib ketishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va real yo'qotishlarni to'g'ri va aniq (qiyamat shaklida) baholashni o'rganib olishlari zarur. Korxonalarining maxfiylik shartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keluvchi yo'qotishlari umumiy ko'rinishda quyidagilarga olib keladi:

- ilmiy tadqiqotlarga litsenziya sotish imkoniyatlari pasayadi, fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ustunliklar yo'qotiladi, ilmiy tadqiqot bo'linmalarining yo'nalishni o'zgartirishlari uchun xarajatlari o'sadi;
- ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo'lgan xom ashyo, texnologiya va ashyolarni sotib olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi (yoki raqobatchilar tomonidan sun'iy ravishda yaratiladi);
- korxonaning tadbirkorlikdagi sheriklar bilan hamkorligi cheklanadi, foydali shartnomalarni imzolash imkoniyatlari kamayadi, shartnomamajbu-riyatlarini bajarishda muammolar vujudga keladi;
- korxonaning yangi bozor strategiyasini yaratish, marketing tadqiqotlari tuzilmasini o'zgartirish kabilarga sarflanuvchi xarajatlari o'sadi;
- tijorat sirlarini oshkor qilganlarga nisbatan iqtisodiy jazo



choralari qo‘llash xavfi kuchayadi.

Barcha yo‘qotishlarning umumiy miqdori qiymatini aniq hisoblash juda murakkab va kuchli mehnat talab qiluvchi jarayon bo‘lib, ba’zida ishonchli ma’lumotlar yo‘qligi sababli ularni hisoblashning imkoni ham bo‘lmaydi. Yuqorida keltirilganlar korxonalaridan qo‘shimcha xarajatlarni talab qilib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatdagi muvaffaqiyatlar imkoniyatini kamaytiradi. Xuddi shuning uchun ham hozirgi paytda tijorat sirlarini muhofaza qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

### **Asosiy so‘z va iboralar**

Shaxsning erkinliklari, shaxsning iqtisodiy mustaqilligi, shaxsning hayotiy muhim manfaatlari, shaxs xavfsizligiga tahdidlar, kambag‘allik, qashshoqlikning kamayishi,

### **Qisqacha xulosalar**

O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida tashqi siyosatini olib borishda respublikaning manfaatlaridan kelib chiqadi. XXI asrning boshlarida Markaziy Osiyo faol geosiyosiy raqobat mintaqasiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining mintaqa markazida joylashganligi uning geostrategik jihatdan o‘rni belgilaydi. SHuning uchun ham Markaziy Osiyo hududida sodir bo‘ladigan voqealar u yoki bu darajada O‘zbekistondagi vaziyatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston Osiyo qit’asidagi eng nufuzli tashkilotga aylangan SHHTda muhim o‘rinni egallaydi va uning maqsadlarini amalga oshirishda, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash va ta’minlash borasidagi faoliyatida faol ishtirok etadi.

### **Nazorat savollari**

1. O‘zbekiston tashqi siyosat olib borishda qanday maqsadlardan kelib chiqadi?
2. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni qanday?
3. SHanxay Hamkorlik Tashkiloti qachon va nima maqsadlarda tashkil etilgan?
4. SHanxay Hamkorlik Tashkilotining mintaqaviy aksilterror tuzilmasining vazifalari nimadan iborat?

## **VIII BOB. XO‘JALIK FAOLIYATINING PUL-MOLIYA SOHASIDAGI IQTISODIY XAVFSIZLIK**

**8.1. Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari, moliyaviy oqimlarga tahdidlar.**

**8.2. Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdidlar.**

**8.3. Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashvositalari.**

*Moliyaviy va iqtisodiy xavfsizlik. Moliyaviy tashkilotlar va muassasalarning iqtisodiy manfaatlarining xususiyatlari. Moliyaviy tashkilotning ishonchliligi va barqarorligi mezonlari. Mamlakatning moliya-kredit tizimiga tahdidlar. Kapital migratsiyasi va uning istiqbollari. Moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlash yo‘llari.*

*Valyutani tartibga solish va kapitalni chetlashtirishda buzilishlar. Moliyaviy konsolidatsiyaning tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlari va kapital migratsiyasining oldini olish. Pul muomalasidagi jinoiy vaziyatlarning sabablari. Pul muomalasining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash. Bank tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda soliq-byudjet siyosatining o‘rni. O‘zbekistonda pul-kredit siyosatining xususiyatlari va uning iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashdagi roli.*

### **8.1. Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari, moliyaviy oqimlarga tahdidlar**

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida tijorat hisobi asosida faoliyat yurituvchi moliyaviy muassasalar tizimi shakllanadi. Ular jumlasiga banklar, birjalar, sug‘urta kompaniyalari, investitsion fondlar va boshqa iqtisodiy-moliyaviy muassasalar kiradi. Moliya iqtisodiy siyosatning va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning dasturiga aylanadi. Moliyaviy muassasalarning iqtisodiy manfaatlari pul muammosining barqarorligi, milliy pul birligining qadriligi, hisob va soliq intizomiga rioya qilish, moliyaviy operatsiyalarning daromadliligi, inflyatsiyaning qanoatlantiruvchi


darajasi, investitsion talab va mijozlarning kreditlarni to‘lash qobiliyatiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Davlat va xo‘jalik subyektlari pul mablag‘lari fondlarining vujudga kelishi, taqsimlanishi va ishlatilish shakllari hamda usullari tizimi moliyaviy tizimni tashkil etadi. Ushabu tizim infrastrukturasi banklar, birjalar, kommunikatsiya vositalari, axborot-analitik va maslahat (konsalting) xizmatlari tashkil etadi. Ular pul muomalasi, moliyaviy oqimlarni ko‘plab instrument (vosita)lardan foydalanib tartibga soladilar.

Moliyaviy tashkilotlarning ishonchligini ikki muhim tamoyil belgilab beradi:

- 1) oqilona yuritiluvchi moliya-kredit siyosati;
- 2) samarali xavfsizlik tizimi.

Moliya tizimi moliyaviy resurslar oqimi bilan tavsiflanadi. Bozorlardagi tovarlar va xizmatlar oqimlari pul muomalasi vositasida sodir bo‘ladi hamda moliyaviy munosabatlarning subyektlarini bir-birlari bilan bog‘laydi.



**8.1-rasm. Moliya sohasini mustahkamlashdagi ustuvor vazifalar<sup>38</sup>**

<sup>38</sup> Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

Moliyaviy oqimlar xo‘jalik subyektlari jamg‘armalarining investitsiyalarga aylanishi jarayonini ifodalaydi. Ammo kapitalning oquvchanligi oshkora, qonuniy yoki xufyona, noqonuniy shakllarda namoyon bo‘ladi. Ushbu moliyaviy oqimlar harakatida ikki xil noxush, salbiy holatlar ham sodir bo‘lishi mumkin. Bir tomondan, mamlakatda investitsiya resurslari yetishmagan bir sharoitda capital qochib, chet mamlakat iqtisodiyotni investitsiyalash manbaiga aylanishi mumkin. Bu esa mamlakatning ichki moliyalashtirish, investitsiyalash imkoniyatlarini zaiflashtiradi. Ikkinchi tomondan, noma‘lum manbalar hisobiga capital to‘planib, iqtisodiyotning real va xufyona sektorlarida muomalaga tortiladi. Kapital “qochishi”ning sabablari tijorat foydasi olish emas, balki uni saqlash, undan foydalanishning ishonchli sharoitlarga ega bo‘lishiga intilishi bilan izohlanadi.

Mamlakatdan kapital qochishining oldini olish va moliyaviy muhitni sog‘lomlashtirish uchun quyidagi tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlaramalga oshiriladi:

- mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etishni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni yuksaltirish. Oqibatda, kapitalni chetga chiqarish kamayib, xorijdagi vatandoshlarimiz hisobidagi mablag‘larning yurtimizga qaytish jarayoni yuz beradi;

- aholining banklarga ishonchini tiklash va mustahkamlash chora- tadbirlarini amalga oshirish;

- milliy valyutadagi jamg‘armalarning ko‘payishi hamda ularni investitsiyalarga aylanishini rag‘batlantirish tizimini yaratish;

- moliyaviy oqimlarni – bojxona, valyuta, bank nazoratining shakl va vositalari, usullarini takomillashtirish;

- kapitalning eksport va importni tartibga solishning huquqiy- me‘yoriy bazasini takomillashtirish va kengaytirish.

## **8.2. Pul muomalasi sohasidagi iqtisodiy tahdilar**

Pul muomalasidagi qonunbuzarlik, jinoiy, o‘g‘rilik holatlarining

vujudga kelishiga quyidagilar qulay sharoit yaratadi:

- inflyatsion jarayonlarning kuchayishi;
- daromadlarni deklaratsiya qilish tizimining yetarli darajada rivojlanmanligi;
- xorijiy valyutalar muomalasining tartibga solinmaganligi;
- bank va moliyaviy muasasalar tomonidan pul mablag'larini huquqiy himoya qilish tizimining bo'shligi;
- hisob-kassa operatsiyalarining takomillashmaganligi hamda pul to'lovlari muddatlarining atayin cho'zib yuborilishi holatlari.

Moliyaviy tovlamachilik o'zga shaxslarning pulini o'zlashtirish, ularni soxta firma hisobiga o'tkazish, to'plangan pullarni naqd pullarga aylantirish hamda keyinchalik yashirish, to'lovsizlik inqirozini yuzaga keltirish namoyon bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida ilgarigi kriminal, tashkiliy jinoiy guruhlar savdo sohasidan pul-kredit munosabatlari sohasiga o'ta boshladilar. Soxta to'lov hujjatlari, soxta bank kafolatlaridan foydalanish orqali pul mablag'larini o'g'irlash ommaviy tus oldi. Shuningdek, imtiyozli kreditlarni noqonuniy olish va maqsadsiz ishlatish, kapitalning xufyona iqtisodiyotga, xorijiy banklarga nazoratsiz oqib o'tishi, kriminal pullarning legallashtirilishi, shuningdek, moliyaviy hujjatlar o'tishini tezlashtirish, naqd pul va kreditlar berish bilan bog'liq poraxo'rlik holatlari o'tish davrida yanada kengayib ketdi.


Tijorat banklarining axborot tizimiga kirib, pul mablag'larini noqonuniy tarzda maxsus hisob raqamlariga ko'chirish jinoyatchilikning yangi turlaridan biridir. Kreditlarni qasddan qaytarmaslik, ularni maxsus tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari hisob raqamiga o'tkazib, naqd pulga aylantirish yoki konvertatsiya qilib, so'ngra xufyona ish hollari ham so'nggi yillarda ko'p uchraydigan jinoiy harakatdir.

Asossiz ravishda kredit olish va uni maqsadsiz ishlatishga tijorat banklari tomonidan kredit shartnomalari tuzishda yetarli darajada nazorat yo'qligi, qarz oluvchi hujjatlarning sinchiklab tekshirilmasligi,

uning to'lov qobiliyatining o'rganilmaganligi, kreditlashtiriladigan loyihalarning iqtisodiy ekspertizadan o'tkazmasligi yoki bu ishlarni amalga oshirishda ayrim mutasaddi xodimlar tomonidan sovuqqonlik, suiiste'molliklarga yo'l qo'yilganligi sabab bo'ladi.

### **8.3. Moliya, pul-kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dastaklari**

Iqtisodiyot normal amal qilishi uchun moliyaviy mablag'lar uningsohalari, tarmoqlari, hududlari bo'yicha taqsimlanadi.



#### **8.2-rasm. Moliyaviy hujjatlarning umumo'rnatilgan huquqiy-me'yoriy talablari<sup>39</sup>**

Bularning barchasi hujjatlar aylanmasi, hisobotlar va iqtisodiy axborotlarda qayd etiladi hamda o'z ifodasini topadi. Shu boisdan moliya sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash uchun, avvalambor, moliyaviy hujjatlarning umumo'rnatilgan huquqiy-me'yoriy talablarga muvofiqligini tekshirish lozim bo'ladi.

Biznes bo'yicha hamkorlik qiluvchi xo'jalik subyektlari, sheriklar, mijozlarni o'rganish, ular to'g'risida quyidagi obyektiv ma'lumolarga ega bolish lozim:

<sup>39</sup> Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

- xo‘jalik subyektining ro‘yxatdan o‘tganligi, soliq va boshqa organlarda ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tekshirish;

- tashkilotning qaysi uyushmaga, xolding kompaniyaga kirishi, sho‘ba kompaniya, shirkatga ega yoki ega emasligi, ustav kapitali, xo‘jalik faoliyati, rekvizitlari, rahbarlari, boshqaruv tizimi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish, ularning to‘g‘riligini tekshirish;

- tashkilot, mijozning manzilini aniqlash, agar ijarada turgan bo‘lsa, ijara haqini to‘lagan yoki to‘lamaganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish;

- muassasalarning mulkdorlar-arendatorlar bilan o‘zaro munosabatini o‘rganish;

- mijozning obro‘-e‘tibor, mol-mulki holati, qarzi bor yoki yo‘qligi to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘plash;

- majburiyatlarning ta‘minlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning haqqoniyligini tekshirish, buxgalterlik ma‘lumotlarini soliq inspeksiyasidagi ma‘lumotlar bilan taqqoslash;

- kafil bo‘lgan tashkilotning kreditni to‘lash qobiliyati, bank kafolatining haqqoniyligi to‘g‘risidagi ma‘lumotga ega bo‘lish;

- qarz oluvchi foydalanishi mumkin bo‘lgan hisob raqamlari, turdosh korxonalar hisob raqamlari, mijozga yaqin munosabatda bo‘lgan korxonalar va shaxslarni o‘rganish;

- tashkilot muassasalari va rahbarlarining faoliyati, o‘zaro munosabatlarini aniqlash.

Ushbu ma‘lumotlarga ega bo‘lish hamda xavfsizlikni ta‘minlash uchun uning ishonchli tizimini ishlab chiqish va joriy etish lozim bo‘ladi. Buning uchun esa quyidagilar ko‘zda tutulishi lozim:

- bank va uning har bir bo‘linma(filial)sida xavfsizlikni ta‘minlashning tashkiliy tuzilmalarini vujudga keltirish;

- axborotlarni o‘g‘irlash, yo‘q qilish maqsadida uni olishning potensialimkoniyatlarini muntazam ravishda o‘rganish va baholash;

- axborotlar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha uslubiy,

tashkiliy- me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularning talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlikka tortish chora-tadbirlarini qabul qilish;

- axborotlarni himoya qilishning tashkiliy-texnik, dasturiy chora- tadbirlari, vositalarini maxsus tashkilotlar yordamida ishlab chiqib, joriy etish;

- axborotlarni himoyalash tizimini attestatsiya qilish, uning amal qilinishini muntazam nazorat qilish;

- hujjatlar, blanklar, muhr, shtamlarni saqlashning himoya choralarini ko'rish, rasmiylashtirilmagan shartnoma loyihalari va boshqahujjatlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash;

- moliyaviy hujjatlar bo'yicha ichki va tashqi auditorlik teshiruvlari o'tkazish;

- bank operatsiyalari bo'yicha risklarni aniqlash va baholash.

Kapitalning yetarlilik ko'rsatkichi va har bir qarz oluvchi uchun riskni maksimal miqdorini aniqlash muhim hisoblanadi. Alohida mijozning riskini aniqlash uchun bank tomonidan xo'jalik subyektlarining kredit kotirovkasi tuziladi. Shuningdek, banklar risklarni boshqarishlari kerak bo'ladi.

Respublikamizda pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi inflyatsiyani past darajada ushlab turish va so'mni barqaror ayirboshlash kursini ta'minlashga qaratilgan. Bu vazifalar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan umumiy iqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'langan. Markaziy bank pul-kredit siyosatining vositalari sifatida ochiq bozorda qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi va tijorat banklariga majburiy zaxira talablari vositalarini ishga solmoqda.

Ayniqsa, moliya-kredit sohasida banklar xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-boshqarish chora-tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor qoidalariga binoan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda investitsiyalarni serfoydah sohalarga yuborilishi talab etiladi. Biroq davlat xususiy investitsiyalarni umumiy iqtisodiy ahamiyatga molik



sohalarga yuborilishini o'z qo'lidagi moliya-kredit vositalari bilan rag'batlantiradi. Biroq, investitsiya masalasiga subyektiv yondashuv milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «**Hududlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarini solishtirsak, ular kun va tunde bir-biridan farq qilayotganligi**»<sup>40</sup> mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ichki va tashqi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni kechiktirib bo'lmasvazifa sifatida belgilashga olib keldi.

### **Asosiy so'z va iboralar**

Ijtimoiy xavfsizlik, shaxs huquqi, baholash mezonlari, xususiy mulk, pul daromadlari, demografik tahdidlar, faol aholi, bandlik, ijtimoiy imtiyozlar, moliyalashtirish, ijtimoiy majburiyatlari

### **Qisqacha xulosalar**

Raqobat bozor xo'jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida raqobat yangi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan o'z salohiyati va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitlarda esa xalqaro raqobat muammolari birinchi o'ringa chiqib boradi. Raqobatdoshlik – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim mexanizmi bo'lib, iqtisodiy xavfsizlik va raqobatdoshlik doimo o'zaro munosabatda bo'lib turadi. Iqtisodiy xavfsizlik ham, raqobatdoshlik ham milliy xo'jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini tavsiflovchilaridir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, uni diversifikatsiya qilish va raqobatdoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini uning tahdidlaridan himoya qiluvchi muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun raqobatbardoshlikni oshirish iqtisodiy xavfsizlik omili bo'lib hisoblanadi?

---

<sup>40</sup>Мирзиёев Ш.М. Танкидий-таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавбгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т., 2017. — 49- б.

2. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?

3. Inqirozga qarshi choralar Dasturida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar beogilangan.

## **IX BOB. SANOAT TARMOQLARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH**

**9.1. Energetika xavfsizligi va uni ta'minlash yo'nalishlari.**

**9.2. Elektr energiyasini barqaror rivojlantirish istiqbollari.**

**9.3. Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy ahamiyati va uni ta'minlash muammolari.**

*Tarmoqlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash*

*Sanoat tarmoqlari xavfsizligi kontsepsiyasining mohiyati. Milliy va iqtisodiy xavfsizlik tizimida sanoat xavfsizligining o'rni va ahamiyati. Sanoat tarmoqlarining xavfsizlik komponentlari. Sanoat tarmoqlaridagi xavfsizlik tahdidlari. Markaziy Osiyo mintaqasi va O'zbekistonda sanoat tarmoqlariga tahdid. Xavfsizlik tahdidlari.*

*Sanoat tarmoqlarida xavfsizlik mexanizmi. Sanoat tarmoqlarida xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari. Sanoat tarmoqlarida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sanoat tarmoqlarida xavfsizlikni ta'minlash choralari ko'rildi.*

### **9.1. Energetika xavfsizligi va uni ta'minlash yo'nalishlari**

Energiya (yunoncha “energia” – harakat, faoliyat) – har qanday ko‘rinishdagi matreiya, xususan , jism yoki jismlar tizimini tahkil etuvchi zarralar harakatining hamda bu zarralarning o‘zaro va boshqa zarralar bilan ta’sirlarining miqdoriy o‘lchovi.

Energiya – energiyaning har xil turlarini hosil qilish, ularni bir turdan ikkinchi turga o‘zgartirish, muayyan masofaga uzatish va yetkazib berish, ulardan barcha sohalarda foydalanish hamda shular bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan

Oxirgi 200 yil ichida dunyo demografik, texnologik va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini boshdan kechirmoqda. Faqat XX asrdayoq Yer aholisi deyarli to‘rt barobar (1900-yilgi 1,6 milliarddan 2000-yilga kelib 6 milliard), energiya iste’moli esa o‘n barobar oshdi. Biroq qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish sohasida barchasi

o‘zgacha. Taxminan 20 yil avval quyosh hisobidan olingan 1 kVt s energiya 2,5 dollar tursa, hozirgi paytda uning qiymati 0,05—0,1 dollargacha pasaygan.

“Arzon” energiya davri yakuniga yetayotgan ko‘rinadi. Shubhasiz, energiya bilan ta’minlashning yangi amaliy tizimi kerak. U milliy davlatlar, shu bilan birga global ko‘lamda amalga oshirilishi lozim. Bu murakkab masalalar asosan davlatlar xavfsizligi va geosiyosiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lganligi tufayli yanada murakkablashadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ba’zi qo‘shimcha murakkab jihatlar mavjudligini tushunish lozim.

1. Birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining katta qismi energiyaning zamonaviy turlari, birinchi navbatda, elektr energiyasidan foydalanish imkoniga ega emas. Aynan shunday mamlakatlarda aholi o‘shish sur‘atlari ham yuqori. Tegishli ravishda energiya zahiralari iste’molchilari mamlakatning energiya quvvatiga mos bo‘lmagan ravishda oshib boradi. Mustaqillikning 25 yili davomida respublikamizning doimiy aholisi 53 foizga yoki deyarli 11 millionga oshdi. Taqqoslash uchun, energiya ta’minoti eng mukammal hisoblanuvchi Germaniyada ushbu davrdagi aholi o‘shish ko‘rsatkichi bor-yo‘g‘i 2,6 foizni tashkil etgan.

2. Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarning qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tishi ularning energiyani qazilma energiya manbalariga nisbatan yuqori qiymatda ishlab chiqarishga majbur bo‘lishini anglatadi. Mamlakatimizda aholiga yetkazib berilayotgan elektr energiyasi dunyo bo‘yicha eng arzon (2,4 sent)laridan biridir. Turli hududlarida katta uglevdorod zahiralari ega ekanligi bilan mashhur Buyuk Britaniya poytaxtida elektr energiyasi tarifi 18,6 sentni tashkil etadi.

Ehtimol bunday sharoitda qayta tiklanuvchi energiyani asosan uzoq hududlar uchun ishlab chiqarish, elektr energiyasining asosiy hajmini esa nisbat arzonroq, tabiiy gazdan ishlab chiqarish eng yaxshi variant hisoblanadi.

1. Uchinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqin

yillarda qayta tiklanuvchi energiya past sur'atlarda rivojlanishini quyidagi shart- sharoitlar bilan oqlash mumkin:

a) qayta tiklanuvchi energiyani qayta shakllantirish texnologiyalari ham texnik, ham iqtisodiy nuqtai nazardan mukammal emas va bu masalada shoshqaloqlik qilish katta zarar va energiya tizimidagi uzilishlarga olib kelishi mumkin;

b) ushbu texnologiyalarni ishlab chiqarish va ularning istiqboli ko'p jihatdan chet el kompaniyalari irodasiga bog'liq.

Masalan, yaqindagina istiqbolli texnologiya hisoblangan amorf kremniysi asosida fotoelektrik panellar ishlab chiqarish, hozirgi paytdadeyarli qo'llanilmayapti.

2. To'rtinchidan, yuqorida sanab o'tilgan jihatlar rivojlanayotgan mamlakatlar qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish bilan shug'ullanmasligi kerakligini anglatmaydi. Ushbu masalalar energiya samaradorligi masalalari bilan bir qatorda ushbu mamlakatlar energetika siyosatining ustuvor masalalari qatorida bo'lishi lozim. Biroq e'tibor faqat (Samarqanddagi 100 MVt quvvatga ega bo'lgan fotoelektr stansiyasi kabi) yirik loyihalar qurilishiga emas, quyosh qurilmalarini boshqarish tajribasini o'zlashtirishga yo'naltirilgan loyihalarga ham qaratilishi kerak.

## **9.2. Elektr energiyasini barqaror rivojlantirish istiqbollari**

Sir emaski, elektr energiyasi bugungi kunda hayotimizning ajralmasqismiga aylangan. Zero, uyimizdagi elektr lampasi, televizor va kompyuterlar, kichik va yirik ishlab chiqarish korxonalari, oziq-ovqat tayyorlashdan tortib, gigant sanoat obyektlari ham elektr energiyasi bilan ishlaydi. Insoniyat maishiy hayoti takomillashib, yaxshilanib borar ekan, uning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji tobora oshib boraveradi. Aytaylik, 2000- yilda yurtimizda bitta xonadonning oylik elektr iste'moli 114 kVt soatni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 160 kVt soatga yetdi. Shubhasiz, bu o'rinda iste'molchiga elektrni uzluksiz uzatishni yaxshilash, energetika xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda soha yuzasidan mamlakatimizda olib borilayotgan

ishlar xususida atroflicha soʻz yuritsak. Ayni kunda Oʻzbekistonda barcha jabhalarda boʻlgani kabi energiya resurslari ishlab chiqarishni kengaytirish, muqobil energiya ishlab chiqarish rivoji borasida ham izchil islohotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda elektr energiya sohasidagi islohotlarni hayotga joriy etishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyatga egadir.

“Oʻzbekenergo” aksiyadorlik jamiyati elektroenergetika sohasida mamlakatimizdagi vakolatli organ sifatida iqtisodiyotimiz tarmoqlari va aholining markazlashgan elektr taʼminotini amalga oshirish bilan bir qatorda respublikamiz shaharlaridagi sanoat hamda kommunal-maishiy isteʼmolchilarni issiqlik energiyasi bilan ham taʼminlaydi.

Ayni paytda “Oʻzbekenergo” AJ tarkibida 54 ta korxonalar mavjud. 40 ta aksiyadorlik jamiyati, 11 ta unitar korxonalar va 3 ta masʼuliyati cheklangan jamiyat shular jumlasiga kiradi. Hozirgi kunda Oʻzbekiston elektrostantsiyalarining belgilangan jami quvvati 14,1 million kilovatt dan oshadi. Xususan, “Oʻzbekenergo” AJ tomonidan 13,6 million kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Ushbu elektr energiyasining 85 foizi issiq elektr stantsiyalari, 12 foizi gidroelektrostantsiyalar ulushiga toʻgʻri keladi.

“Oʻzelektrtarmoq” unitar korxonasi oʻzining jami uzunligi 8,8 ming kilometrli 220-500 kV kuchlanishli magistral tarmoqlari orqali elektr energiyasini manbadan taqsimlash korxonalariga yetkazib berishga ixtisoslashgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015- yil 4- martdagi 2017—2021- yillar davrida “Oʻzbekenergo” AJda tuzilmaviy oʻzgarishlarni hamda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni taʼminlash borasidagi farmoniga muvofiq, jami qiymati 11 milliard AQSh dollari miqdoridagi 62 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish koʻzda tutilayotir. Shunisi eʼtiborga molikki, yuqoridagi loyihalardan 25 tasi issiqlik energetikasi sohasiga tegishli hisoblanadi.

Issiqlik energetikasi sohasidagi tadbirlarni roʻyobga chiqarish yuqori samarali bugʻ-gaz va gaz turbina qurilmalari negizida zamonaviy texnologiyalarni elektr energiyasi ishlab chiqarishga joriy

etishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, "O'zbekenergo" AJ elektr energiyasi nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini amaliyotda qo'llash bilan elektr energiya hisobi tizimini modernizatsiyalashga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur loyiha kelgusida bosqichma-bosqich ravishda butun mamlakat hududida amalga oshiriladi. Darvoqe, dunyoning boshqa mamlakatlarida ham bu masala dolzarbligicha turibdi.

Shuning uchun ham hozirgi kunda butun dunyoda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etayotir. Bunda ayniqsa, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Aytish kerakki, keyingi yillarda mamlakatimizda bu kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish borasida samarali loyihalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, yaqin yillar ichida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish maqsadida Samarqand, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida har biri 100 mVt quvvatli 3 ta quyosh elektr stantsiyasini va Navoiy viloyatida 102 mVt quvvatli shamol elektrostantsiyasini qurish ko'zda tutilmoqda.

Dasturda belgilangan energiya tejoychi zamonaviy texnologik uskunalarni amaliyotga joriy etish kamroq issiqlikni sarflagan holda energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Respublika iste'molchilarini elektr bilan barqaror ta'minlash hamda energiya zaxiralari sarfini kamaytirish maqsadida 2016- yilda Tallimarjon issiqlik elektr stantsiyasida 450 mVt quvvatli ikkita bug'-gaz bloki foydalanishga topshirildi. Ular yiliga 7 milliard kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Shuningdek, Angren issiqlik elektr stantsiyasida 150 million mVt quvvatli energoblok ishga tushirildi. Uning yillik elektr ishlab chiqarish hajmi esa 900 million kVt soatni tashkil etadi. Ayni paytda Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida 450 mVt quvvatga ega bo'lgan ikkinchi bug'-gaz qurilmasini, Taxiato'sh issiqlik elektr stantsiyasida 230-280 mVt quvvatli ikkita bug'-gaz qurilmasini hamda Namanganda umumiy quvvati 900 mVt bo'lgan To'raqo'rg'on issiqlik elektr stantsiyasini barpo etish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalari (shamol, quyosh, gidravlik energiya)ning katta zaxirasiga ega bo‘lib, ularni issiqlik-energetika balansiga kirgizish istiqbolli hisoblanadi. Nega deganda, mamlakatning barcha mintaqalarida quyoshli kunlarning davomiyligi yiliga 2650 soatdan 3050 soatgachani tashkil etadi. Mutaxassislarning tahliliga ko‘ra, yurtimizda quyosh yorug‘ligining yalpi quvvati 525 milliard kVt soatdan 760 milliard kVt soatgacha deb baholanmoqda.

Qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, gidroenergetik salohiyatdan foydalanish bo‘yicha xalqaro moliya institutlarini jalb etgan holda Toshkent, Qodiriya, Quyi Bo‘zsuv va Shahrixon kaskadlarini modernizatsiyalash va rekonstruksiyalashning investitsion loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ko‘mir sanoati ham muhim o‘rinni egallaydi. Iqtisodiyotni va aholini ko‘mir bilan barqaror ta‘minlash mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Ayni vaqtda respublikamizda aniqlangan ko‘mir zaxiralari 2,2 milliard tonnani, taxminiy zaxiralar miqdori esa 5,7 milliard tonnadan ziyodni tashkil etishini nazarda tutsak, sohaning istiqbolli ekani o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston energetika balansida ko‘mir ulushini ko‘paytirish muhimligini e‘tiborga olgan holda 2017—2021-yillarda ko‘mir sanoatini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilmoqda. Ayni kunda yiliga o‘rtacha 3,7 million tonna ko‘mir qazib olinayotgan bo‘lsa, qabul qilinayotgan dasturning amaliyotga joriy etilishi tufayli 2030 yilga borib, yiliga 14 million tonnaga yetadi.

### **9.3. Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy ahamiyati va uni ta‘minlash muammolari**

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga qaraganda, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi to‘yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Bu jahon aholisining deyarli har sakkiz nafaridan biri, deganidir. Bundan tashqari, sayyoramiz nufusining 30



foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqdaki, bularning barchasioziq-ovqat xavf-sizligini ta'minlash naqadar dolzarb masala ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Aslida oziq-ovqat xavfsizligi juda keng tushuncha bo'lib, u, eng avvalo, aholi ehtiyojini fiziologik me'yorlarga mos ravishda iste'mol tovarlari bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq keyingi paytda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi aholi soni va ehtiyojlarining ortishidan orqada qolayotgani, ayniqsa, qishloq xo'jaligi hamda qayta ishlash sanoati rivoji uchun yetarli sharoit mavjud bo'lmagan mamlakatlarda muammo tobora chuqurlashib borayotgani tashvishlanarlidir.

Shunday murakkab bir paytda O'zbekistonimizda aholining muhim kundalik iste'mol tovarlariga bo'lgan talabi to'liq qondirilibgina qolmay, katta miqdorda eksport qilinayotgani tahsinga loyiq.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bosh direktori Joze Gratsianu da Silva 2014-yilning 5-6-iyun kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzuidagi xalqaro - konferensiyada so'zlagan nutqida mamlakatimizda mazkur jabhada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga alohida to'xtalib, jumladan, shunday degan edi: "2000-yillarning boshlaridan bugungi kungacha O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ulkan taraqqiyotga erishdi. 2000- yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va hosildorlik muttasil oshirib kelinayotgani bunday hayratlanarli yutuqlarning bosh omilidir".





Mazkur tarixiy hujjatda 1991-yilning sentyabriga qadar ajratib beriladigan tomorqa uchastkalari rasmiylashtirilishini ta'minlash, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 1989-1990-yillarda ajratib berilgan barcha tomorqa yerlarini qayta ro'yxatga olish, foydalanilmayotgan uchastkalarni muhtoj oilalarga berish, yer uchastkalari ajratishda ijtimoiy adolatga rioya etilishini qat'iy nazoratga olish kabi vazifalar belgilab olingan ediki, bu yurti, xalqi

uchun har qanday xizmatga tayyor turgan davlat rahbarining qahramonligi va yuksak jasorati namunasibo‘ldi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda yerni haqiqiy egasiga berish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini ko‘paytirish yo‘lidagi ana shunday yirik siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar takomillashtirilib, jamoa va shirkat xo‘jaliklarining yerlarini xususiy mulkchilik shaklidagi fermer xo‘jaliklariga uzoq muddatga ijaraga berish amaliyoti boshlandi.

Bugungi kunda yurtimizda 160 mingdan ziyod fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ularning 36 mingdan ortig‘i ko‘p tarmoqli yirik subyektlardir. Ularda dehqonchilik yoki chorvachilik bilangina cheklanib qolmasdan, balki zamonaviy texnologiyalar, ixcham qayta ishlash uskunalari jalb etilgan holda, qo‘shimcha tarmoqlar o‘zlashtirilgan. Bu aholi, ayniqsa, qishloq odamlarining bandligini ta’minlash, daromadini oshirish, ichki bozorni arzon va yuqori sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘zbekiston o‘zining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdan tashqari, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta’minotiga munosib hissa qo‘shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirof etilmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining 2015-yil iyun oyida Italiyaning Rim shahrida bo‘lib o‘tgan 39-konferensiyasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgan davlatlarni taqdirlash marosimida O‘zbekiston 14 ta davlat qatorida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda erishgan mislsiz yutuqlari uchun maxsus mukofot bilan taqdirlangan.



**9.1-rasm. 2000-2016- yillarda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli (kg)<sup>41</sup>**

Keyingi yillarda dunyo bo'yicha iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik omillar seleksionerlar oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, suv

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari: <http://www.stat.uz>.

tanqisligi va qurg'oqchil sharoitga moslashuvchan, turli zararkunandayu kasalliklarga chidamli, yuqori hosilli navlarni ko'paytirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Respublika doimiy aholi o'rtacha soni 2000-2016- yillarda 29,2 foiz oshganiga qaramay, oxirgi 16 yil davomida aholi daromadlarining muntazam o'sishi moliyaviy imkoniyatlarning mustahkamlanishini va aholi tomonidan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish hajmining oshishini ta'minladi. Jumladan, 2016- yil yakunlari bo'yicha sabzavotlar – 277,2 kilogramm, mevalar – 148,8 kilogramm, tuxum – 213,6 dona, go'sht va go'sht mahsulotlari – 44,4 kilogramm, sut va sut mahsulotlari – 279,6 litr, kartoshka – 56,4 kilogramm, shakar – 32,4 kilogramm, o'simlik yog'i – 24,0 kilogrammni tashkil etdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqilligimizning dastlabki yillarida iste'mol uchun zarur bo'lgan g'alla, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlari, kartoshka va boshqa mahsulotlar chetdan keltirilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarilishining jadal rivojlanishi natijasida xalqimiz ehtiyojlarini to'liq ta'minlabgina qolmay ko'plab chet mamlakatlariga eksport qilib kelinmoqda.

2000-2016 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol hajmi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan go'sht va go'sht mahsulotlari 1,3marta, sut mahsulotlari 1,7 marta, tuxum 4,5 marta, sabzavot va polizlar 2,2 marta, kartoshka 1,6 marta, shakar va qandolat mahsulotlari 2 marta, meva va rezavorlar 3,5 marta, o'simlik yog'i esa 2 martaga oshgan.

Istiqoldan avval yurtdoshlarimiz bugungi dorilamon kunlar, farovon hayot, beqiyos imkoniyatu g'amxo'rliklar haqida tasavvur ham qila olmasdi. Axir ilgari ular umr bo'yi dalada mehnat qilib, kosasi oqarmay, biri ikki bo'lmay, amallab ro'zg'or tebratgan, xolos. Bugun-chi? Yaratib berilgan qulay shart-sharoitlardan oqilona foydalanib, fidokorona mehnat qilayotgan dehqon va fermerlar nafaqat jamiyatimizga naf keltirayapti, balki o'zlari katta manfaat hamda rag'bat ko'rayapti. Ularning ishlab topgan daromadi oila

a'zolarining farovon turmush kechirishi, dasturxonini to'kinligi, yurtimiz taraqqiyotining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Odamlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dunyoda abadiy muammo bo'lgan va doimo dolzarb bo'ladi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hayotning birinchi sharti hisoblanadi. Shu bois, u doimo va o'sib boruvchi hajmlarda amalga oshirilishi kerak, chunki sayyoramiz aholisi ortib bormoqda.

*Oziq-ovqat xavfsizligi* bozordagi oziq-ovqat mahsulotlarining taklifi bilan aholi uchun maqbul narxlardagi joriy iste'mol talabi o'rtasida yetarlicha assortimentda muvozanat bo'ladigan, shuningdek, mahsulotlarning zarur zaxirasi yaratiladigan holati.

Inson va jamiyatning oziq-ovqat xavfsizligi ular hayotidagi asosiy muammodir. Shu bois, 1996- yil oxirida Rimda Butunjahon oziq-ovqat anjumani bo'lib o'tgani bejiz emas, unda 130 ta mamlakat ishtirok etdi va «**Yer aholisini qanday qilib boqish mumkin?**» degan masala muhokama qilindi. Anjumanda gap asosan odamlar ochlikdan o'layotgan, kam rivojlangan mamlakatlarga oziq-ovqatlar bilan yordam ko'rsatish haqida bordi.

Ana shu maqsadda 2015-yilga borib dunyoda to'yib ovqat emayotgan odamlar sonini 2 baravar kamaytirish vazifasi qo'yildi. Biroq 2002- yilning iyulida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO) o'tkazgan anjuman jahon hamjamiyati qo'yilgan vazifalarni bajarmayotganini tan oldi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda har kuni 360 ta odam ochlikdan o'lmoqda. Shu bois, oziq-ovqat xavfsizligi XXI asrda ham dolzarbligicha qolmoqda.

**Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid** deganda, oziq-ovqat bozorida oxirgi iste'molchilar uchun noqulay vaziyat o'zgarishlariga olib keladigan shart-sharoit va omillar majmui tushuniladi. Oziq-ovqat xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlarning tashqi shart-sharoitlari iqtisodiyotning ochiqligi omili bilan bog'liq. Ichki tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti doirasida hosil bo'ladigan ommaviy talab va ommaviy taklif o'zgarishlarini nazarda tutuvchi ichki omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari taklifi nuqtai nazaridan bozor vaziyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri iqtisodiyot agrar sektorining beqaror faoliyat ko‘rsatishi va buning oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir etishidir.

Agrosanoat kompleksi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning faoliyati ko‘p jihatdan xalq farovonligini oshirishga, taraqqiy etgan davlatga aylanib, xalqning siyosiy birligini mustahkamlashgabo‘liq.<sup>42</sup>

Oziq-ovqat xavfsizligi odamlar hayotini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi, u birinchi navbatda, insonning asosiy huquqi uning mavjudligini ta’minlashga bo‘lgan huquqini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy yo‘nalishni aks ettiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir, chunki u asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining barqaror ishlab chiqarilishi vaaholining undan foydalana olishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, mustaqil O‘zbekistonda hozirgi zamon qishloq xo‘jaligini isloh qilishning muhim siyosiy xususiyati mavjud. Ana shu xususiyatni ko‘zda tutgan holda bugun shuni chuqurroq anglash joizki, umuman jamiyatimizning yangilanishi samaradorligi, mamlakatimizdagi demokratik jarayonlarning rivojlanishi darajasi qishloq xo‘jaligini isloh qilishning qanchalik muvaffaqiyatli kechayotganligiga, bu jarayon qishloq hayotining barcha jabhalariga qanchalik chuqurroq singib borayotganligiga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligini isloh qilishning fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi aytib o‘tilgan siyosiy omili tarkibida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va xalq farovonligini oshirish masalalarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Agrar sektorni davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar orqali qo‘llab-quvvatlash miqdorini oshirish va yo‘nalish- larini kengaytirish, shuningdek, turli imtiyoz va prefrensiyalar ko‘rinishidagi bilvosita qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish mamlakat oziq-ovqat ta’minoti va

---

<sup>42</sup> Осипов В.С. Модель сил конкуренции сетевой бизнес-структуры (на примере кластера) // Инновации и инвестиции. — 2013. — № 6. — С. 176–179.

xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi

Ma'lumki, «oziq-ovqat xavfsizligi» zamonaviy iqtisodiy, huquqiy va siyosiy fanlarning fundamental tushunchalaridan biridir. Ushbu tushuncha «oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik» tushunchasining sinonimi bo'lib, ayni paytda BMTning rasmiy terminologiyasiga muvofiq «oziq-ovqat siyosati», «oziq-ovqat rejalashtirilishi», «oziq-ovqat ta'minoti», «oziq-ovqat ehtiyojlari», «oziq-ovqat rezervlari», «oziq-ovqat resurslari» kabi turdosh atamalar bilan uzviy bog'liq. Bundan ko'rinadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning doirasi birmuncha keng.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammolari umuman butun dunyoda va xususan, ayrim hududlarda bugun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada misol sifatida shuni qayd etish mumkinki, g'allaning jahon narxi 2006 yilga nisbatan o'rta hisobda ikki baravar, sabzavotlarning narxi ikki baravardan ziyod oshgan. Bunday sharoitda anglanadiki, ichki iste'mol bozorini mamlakatimizdagi etishtiriladigan oziq-ovqat mollari bilan uzluksiz va ishonchli ta'minlash, ularning hajmini va turlarini ko'paytirish, sifatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyatga egabo'lmoqda.<sup>43</sup>

Fuqarolik jamiyati institutlarining oziq-ovqat ta'minotidagi ishtirokinimalarda ifodalanadi? Bir necha misol keltiramiz.

O'zbekistonda qadimdan sug'orish tizimi mavjud bo'lgan. Sug'oriladigan dehqonchilik respublikamiz oziq-ovqat mustaqilligining asosi hamda asosiy eksport mahsulotlari manbaidir. Mamlakatimizda, ayniqsa, mustaqillik yillarida erlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish, moliyalash mexanizmlarini takomillashtirishga tizimli, izchil va boqichmabosqich e'tibor qaratib kelinmoqda.

Qayta ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi aloqalar alohida o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligining asosiy funksiyasi aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish, xom

---

<sup>43</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Озиқ-овқат экинлари экиладиган майдонларни оптималлаштириш ва уларни етиштиришни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2008 йил 20 октябрь ПФ-4041 фармониغا шарҳ // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлигининг веб-сайти – [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

ashyo uchun esa – sanoatdir. Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xosligi – uning boshqaruvi yerdan foydalanish bilan bog‘liq – ishlab chiqarishning asosiy vositasi va tabiiy muhit.<sup>44</sup>

Ma‘lumki, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini ko‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida ularning barqaror faoliyatini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish, o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha ko‘zda tutilgan qo‘shimcha choralar ichki manbalar hisobidan mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun ishonchli zaxiralarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa jahon bozorlarida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxi oshishi sharoitida alohida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, bular vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish va aholining, ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy madaniyatini oshirish bo‘yicha yangi, qo‘shimcha majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

**Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.** Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Afsuski, biz modernizatsiya deganda, ko‘pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishga o‘rganib qolganmiz. Holbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo‘jaligi kabi yetakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibigakiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohaslarining butun kompleksida texnik va texnologik ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Demak, agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko‘tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan chorvachilik, g‘allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg‘or mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va amalda qo‘llash, bizning iqlim sharoitimizda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug‘orish tizimlari,

---

<sup>44</sup> Гавель О.Ю. Реализация требований управленческой гибкости в анализе и оценке инвестиционных решений // Инновационное развитие экономики. — 2013. — № 1 (13). — С. 46–52.



energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: «Ma'lumki, hozirgi kunda yurtimizda 51 foiz-dan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmaydi. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga ham etmaydi. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Shu munosabat bilan **qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha kompleks dastur** ishlab chiqish lozim.

Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etish, genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar etishtirmaslik bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. So'nggi yillarda mamlakatimiz bozorlarida import meva-sabzavot mahsulotlari ko'payib borayotgani bizni albatta hushyorlikka chaqirishi kerak. Bunday holatning oldini olish uchun, avvalo, yo'qolib borayotgan qadimgi navlarni tiklash, seleksiya ishlarini oqilona va samarali yo'lga qo'yish, sohaga ilm-fan yutuqlari, innovatsion ishlanmalarni keng joriy etishimiz zarur.

Ma'lumki, mamlakatimiz to'qimachilik sanoati 1 million 400 ming tonnagacha paxta tolasini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bu respublika- mizdagi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar ehtiyojini to'liq qoplay oladi. Lekin paxta tolasini qayta ishlash sanoatini boshqarishda ko'pgina muammolar mavjud. Bu esa paxta xomashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlashda rentabellikning pasayishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan sohadagi muammolarni hal etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rag'batlantirishga oid alohida farmon qabul qilindi. Bugungi kungacha o'zimizning to'qimachilik korxonalarimizga paxta xomashyosini faqat «O'zpaxtasanoat» aksiyadorlik jamiyati orqali sotar edik. Farmonga muvofiq to'qimachilik korxonalari paxta xomashyosini

endi to'g'ridan- to'g'ri tuzilgan shartnoma asosida bevosita fermerlardan sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Sanoat korxonalari, texnik va tijorat axborotlari, intellektual mulk, savdo belgisi egalari, ruqsatsiz foydalanish, ma'lum sanoat korxonalarining moliyaviy holatiga putur yetkazadi va bu butun mintaqadagi sanoatning iqtisodiy xavfsizligining bir yoki bir nechta qismiga ta'sir etmaydi.<sup>45</sup>

Chorvachilik sohasiga to'xtaladigan bo'lsak, qoramol va parranda sonini ko'paytirish, bu borada sifat va mahsuldorlikka erishish uchun yetarli sharoit yaratishimiz zarur. Yaqin istiqbolda har bir tumanda ixtisoslashtirilgan bo'rdoqichilik komplekslari, yuqori texnologik parrandachilik fabrikalari, shuningdek, issiqxona xo'jaliklari tashkil etilishi lozim.

Biz hozirgi vaqtda 1,5-2 milliard dollar miqdorida meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilmoqdamiz. Lekin ushbu sohada yiliga 10-15 milliard dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati mavjud. Mahsulot tayyorlash va eksport qilishda «O'zagroeksport» aksiyadorlik jamiyati, birjalar, agrofimlar va ulgurji kompaniyalar katta rol o'ynashi lozim.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali realizatsiya qilish juda muhim masaladir. Shu maqsadda **fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar hajmi va miqdori haqidagi ma'lumotlarning yagona bazasini yaratish zarur**<sup>46</sup>ligi vazifa etib belgilandi.

Energiya xavfsizligini ta'minlash butun dunyo mamlakatlarida dolzarbmavzulardan biri bo'lib hisoblanadi. Energiya xavfsizligi tushunchasi, mamlakatmilliy xavfsizligi tushunchasi bilan birga baholanadi. Xavfsizlik va milliyxavfsizlik tushunchasi, juda ko'p qirrali va murakkab bo'lgan tushuncha va jarayonlarni o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday mamlakatning energiya xavfsizligi,

---

<sup>45</sup> Гайфуллин А.Ю. Методический подход к оценке социальной устойчивости территориальных образований // Известия Уфимского научного центра РАН. - 2016. - №1. - С. 104-109.

<sup>46</sup> <sup>48</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси.— «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. — 62-63- б.

uning milliy xavfsizligining ajralmas qismidir. Mamlakatda energiya xavfsizligini ta'minlash milliy iqtisodiyotning asosiy vazifasi hisoblanib, jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishida eng muhim vazifalarni bajaradi. Energiya sohasi qolgan barcha soha va tarmoqlar uchun ishonchli va sifatli energiya yetkazib berishni ta'minlaydi. Oxirgi yillarda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining o'sishida, davlatlar o'rtasida yuqori siyosiy mavqeiga ega bo'lishda, mamlakat energiya xavfsizligi darajasi sezilarli ta'sir qilmoqda. Energiya xavfsizligi muammosi yer yuzida tabiiy yoqilg'i-energetika resurslarining notekis taqsimlanishi va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida energiya iste'mol qiluvchi va energiya ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda o'rtasidagi hududiy tafovut bilan belgilanadi. Energiya xavfsizligini ta'minlash doirasida mamlakatlar ikki guruxga bo'linadi. Birinchi guruxda – energiya eksport qiluvchi, ya'ni energiya ishlab chiqaruvchi mamlakatlar, ikkinchi guruxda - energiya import qiluvchi, ya'ni energiya sotib oluvchi mamlakatlar. Har ikki guruxga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun harakat qilishadi. Energiya xavfsizligi va energiya samaradorligi, har qanday davlat energetika siyosatining asosiy strategik maqsadlari bo'lib hisoblanadi. Energiya xavfsizlik darajasini oshirishda, davlat energetika siyosatining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish zarur: mamlakat xududidagi yer qo'ridan olinadigan resurslardan foydalanishda samarali boshqaruv mexanizmini joriy etish; energetika sohasida tarkibiy o'zgarishlarni doimiy olib borish; yoqilg'i-energetika bozorini bozor tamoyillari asosida tashkil etish; oqilona yoqilg'i-energetika balansini shakllantirish, ichki va tashqi energetika siyosatini takomillashtirish; energetika sohasida zamonaviy ilmiy-texnik siyosatni rivojlantirish; mintaqaviy energiya bozorida raqobat muhitini va xalqaro standartlar mos keluvchi me'yoriy huquqiy bazani shakllantirish.

Bu borada, mamlakatida bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda, jumladan, Prezidentimizning 2019 yil 27 martdagi “O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada

rivojlantirish va isloh qilish strategiyasito'g'risida"gi qaroriga asosan [1], "O'zbekenergo" AJ negizida bir-biradan mustaqilbo'lgan, "Issiqlik elektr stantsiyalari" AJ, "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari"AJ va "Xududiy elektr tarmoqlari" AJ tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, respublika energetika sohasida samarali boshqaruv tizimini tashkil qilish vasohani jadal rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5646-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda, O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan [2]: birinchidan, mamlakatning energetika xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiyot sohalari va aholining energiya resurslariga tobora o'sib borayotgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan yagona energetika siyosatini yuritish; ikkinchidan, energetika sohasida davlat tomonidan tartibga solish hamdaxo'jalik faoliyati funksiyalarini aniq chegaralash, ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish, tarif siyosatini amalga oshirishning aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish va shu asosda sog'lom raqobat muhiti tamoyillarini ilgari surish; uchinchidan, infratuzilma ob'ektlarini qurishga, shuningdek tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun sharoitlar yaratish; to'rtinchidan, energiya tejamkorlik va iqtisodiyotning energiya sarfini kamaytirish sohasida davlat siyosatini yuritish, iqtisodiyot tarmoqlari va maishiy sektorda resurs va energiya tejovchi ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, muqobil energiya manbalarini keng rivojlantirish; beshinchidan, energetika tarmog'i korxonalarida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning zamonaviy vositalarini, energiya resurslarini qazib olish, yetkazib berish va iste'mol qilish hajmlarini hisobga olish tizimlarini keng tatbiq qilish; oltinchidan,

tarmoq korxonalarini boshqarish tizimini, ularning tuzilmalari va bo'linmalarini maqbullashtirish, ishlarni tashkil qilishning aniq natijalarga erishishga qaratilgan zamonaviy usullari va maqsadli indikatorlarni (sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish) joriy etish. Mamlakatimizda energiya xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, aholining energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yoqilg'i-energetikaga bo'lgan talabini samarali qondirishga qaratilgan

### **Asosiy so'z va iboralar**

Iqtisodiy manfaatlar, ichki va tashqi tahdidlar, boshqaruv qarorlari, bevosita va bilvosita ta'sir omillari, ichki muhit segmentlari, xavfsizlik tamoyillari.

### **Qisqacha xulosalar**

Mamlakat iqtisodiyotida real sektori asosiy o'rinni egallaydi, SHuning uchun ham ushbu sektorda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotning barqarorligi va taraqqiyoti aynan real ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda real sektor korxonalarini rivojlantirish borasidagi islohotlar mustaqillikning ilk davrlaridan amalga oshirib boshlandi. Iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarni rivojlantirish respublika iqtisodiy mustaqilligining eng asosiy sharti ekanligidan kelib chiqib, ularni taraqqiy ettirishga alohida e'tibor qaratildi. Amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida respublika va aholi ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg'i-energetika resurslari, iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ishonchli tarzda qondirishga erishildi. Bu esa mamlakatda energetik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun asos yaratdi.

### **Nazorat savollari**

1. Real sektorning iqtisodiyotda tutgan o'rni qanday?
2. Nima uchun real sektorda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash zarur?
3. Mustaqillik yillarida real sektorni rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

4.Real sektorni qo'llab-quvvatlash borasidagi Prezident Farmonlarining mazmuni nimadan iborat?

5.Real sektorda xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday choratadbirlar amalga oshirilishi kerak?

## **X BOB. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**10.1. Axborot xavfsizligining mohiyati va unga tahdidlar.**

**10.2. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.**

**10.3. O'zbekistonda axborotni himoyalashning davlat tizimi.**

*Axborot xavfsizligi va uning xususiyatlari*

*Axborot xizmatlari bozori va uning xavfsizligini ta'minlash. Axborot xavfsizligining mohiyati, uning iqtisodiy xavfsizlik tizimidagi o'rni va roli. Axborot xavfsizligiga tahdidlar. Axborot xavfsizligi mexanizmi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilish davlat tizimi. Axborot xavfsizligining ustuvor yo'nalishlari.*

### **10.1. Axborot xavfsizligining mohiyati va unga tahdidlar**

**Axborot** – ma'lumotlar, bilimlar. Axborot keng ma'noda – bir obyektning boshqa obyektga aks ettirilishining natijasi bo'lib, undan pirovard-natijada boshqaruv ta'sirini shakllantirish uchun foydalaniladi. Bu – obyektning in'ikosi (axborot modeli)dir. Axborotning maqsadli funksiyasi uning boshqaruv jarayoniga ta'sir ko'rsata olishidadir.

«Axborot» va «boshqaruv» tushunchalarining o'zaro aloqasi axborot qandaydir farqning ifodasidir, degan nazariy aksiomaga tayanadi. Amaliy ma'noda axborot – qanday shaklda idrok etilishidan qat'i nazar –shaxslar, narsalar, faktlar, voqealar, hodisalar yoki jarayonlar haqidagi ma'lumotlardir.

Axborot doimo inson hayotida juda katta rol o'ynagan. Ammo XX asr o'rtalaridan boshlab ijtimoiy taraqqiyot hamda fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida axborotning ahamiyati mislsiz darajada o'sdi. Dunyoda turli-tuman axborot hajmi ko'chkin singari juda tez ortib bormoqda. Bu jarayon «axborot portlashi» degan nom olgan bo'lib, «axborot» tushunchasi talqinining o'zgarishiga olib keldi. «Axborot» tushunchasining talqiniga yondashuvlardan birida axborot moddiy tizimlar muayyan sinfining ushbu tizimlar shakllanishi, rivojlanishi, o'zaro va tashqi muhit bilan aloqasi

jarayonida yuzaga kelib va boyib boradigan xususiyati sifatida baholanadi. Axborot boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

Umumiy, iqtisodiy va axborot xavfsizligi tushunchalari, mohiyati, shundaki: Axborot xavfsizligi – umumiy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.<sup>47</sup>

Bu borada ikki xil nazariy-metodologik qarash mavjud: bir tomondan, raqobatli bozorlar konsepsiyasi, boshqa tomondan raqobatsiz bozorlar konsepsiyasi.

Birinchi konsepsiya tarafdorlari bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatli bozorlar faoliyat ko'rsatadi, shu bois iqtisodiyotning samaradorligi oshishini kafolatlashga raqobat uchun zarur shart-sharoit yaratishning o'zi kifoya qiladi, bu raqobat ishlab chiqarish resurslarini iqtisodiy agentlar o'rtasida maqbul taqsimlash imkonini beradi deb hisoblaydilar.

Ikkinchi konsepsiya tarafdorlari bozor iqtisodiyotida erkin raqobat uchun sharoit yo'q va binobarin, raqobatli bozorlar mavjud emas, buning natijasida bozorlar samarasiz ishlaydi va o'z navbatida iqtisodiyotningsamaradorligini pasaytiradi deb hisoblaydilar.

Xorijiy iqtisodiy fanda hozirgacha raqobatli bozorlar konsepsiyasi ustunlik qiladi. Biroq raqobatsiz bozorlar konsepsiyasi ham borgan sari ommalashib bormoqda.

Jahon mikroiqtisodiy adabiyotlarida raqobatsiz bozorlarning mavjud- ligiquyidagi omillarning amal qilishi bilan izohlanadi: bozor hokimiyatining resurslar ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilarda ekanligi; iqtisodiy agentlar farovonligining ularning bozordagi harakatlari bilan bog'liq bo'lmagan o'zgarishlarni ifodalovchi tashqi omillarning mavjudligi; alohida individlarning ham, butun jamiyatning ham ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy ne'matlarning mavjudligi; assimetrik axborotning mavjudligi.

**Assimetrik axborot** shunday vaziyatdirki, bunda bitim ishtirokchi- larining bir qismi to'liq va aniq axborotga ega bo'ladi,

---

<sup>47</sup> Абрамов, А.В. Новое в финансовой индустрии: информатизация банковских технологий. – СПб: Питер, 1997.



boshqa ishtirokchi- lari esa bunga ega bo‘lmaydi. Masalan, mahsulot sotuvchilar uning sifatini xaridorlardan, xodimlar o‘zlarining mehnat qobiliyatlarini – tadbirkorlardan, menejerlar o‘z imkoniyatlarini firmalar mulkdorlaridan yaxshiroq biladilar.

Asimmetrik axborot, masalan, u yoki bu firmalar nima uchun ular mahsulotlarining xaridorlariga turli kafolatlar berishlari va xizmatlar ko‘rsatishlarini yoki kompaniyalar aksiyalarining egalari nima uchun menejerlarning xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib borishlari lozimligini tushunib olishga imkon beradi va h.k.

Asimmetrik axborot substansiyasi shundaki, sotuvchi va xaridorlar eng samarali qaror qabul qilish uchun to‘liq va aniq axborotdan har doim ham bimalol foydalana olmaydilar, natijada bozorlar raqobatsiz va pirovardida nochor bo‘ladi.

Keng ko‘lamdagi davlat xavfsizligi mamlakatning barqaror geosiyosiyholati, davlat va jamoat institutlari, korxonalar, tashkilotlar, xizmatlar va aholi hayotining xavfsizligini anglatadi. Ushbu konsepsiya bir necha asosiy tarkibiy qisimlaridan iborat, jumladan, iqtisodiy xavfsizlik va axborot xavfsizligi.<sup>48</sup>

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotini olgan bir qator iqtisodchilar ushbu asimmetrik axborot nazariyasini ishlab chiqishda faol va samarali xizmat ko‘rsatmoqdalar. Ular orasida amerikalik iqtisodchilar Jon CHARlz Xarshani, Jon kichik F. Nesh, Uilyam Spenser Vikri, Jorj Akerlof, Maykl Spens, Jozef Stiglis, britaniyalik iqtisodchi Jeyms Mirrlis, nemis iqtisodchisi Raynxard Selten alohida o‘rin tutadilar. Asimmetrik axborot muammosini u yoki bu jihatdan va muayyan hajmda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotlari sovrindorlari K. Errou, Robert kichik Eberton Lukas va boshqalar tadqiq etganlar.

**Axborot xavfsizligi** – axborot tizimlari va axborot resurslarining jamiyat, davlat, alohida individuumlarning axborotdan samarali foydalanishlarini qiyinlashtiruvchi tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganligi.

Axborot xavfsizligi iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda

---

<sup>48</sup> Автоматизированные информационные технологии в экономике: Учебник / Под ред. проф. Г.А. Титоренко. – М.: ЮНИТИ, 2000.

iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy faktor sifatida qaraladi. Shu sababli mamlakatda axborot xavfsizligini ta'minlashda yangi texnologiyalarni qo'llash turli xil axborot xujumlari, spam va shu kabilarni oldini olishda ijobiy samara beradi.<sup>49</sup>

Axborot xavfsizligi quyidagi **vazifalarni** bajarishi lozim:

– axborot tizimlari va axborot resurslariga bo'ladigan tahdidlarni aniqlash, baholash va ularning oldini olish;

– yuridik va jismoniy shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlarini, shuningdek axborot to'plash, jamlash va undan foydalanish huquqlarini himoyalash;

– davlat, xizmat, tijorat sirlari va shaxsiy sirni saqlash.

Axborot xavfsizligiga **tahdidlarning** quyidagi **guruhlari** ajratiladi:

– **dasturiy** tahdidlar – axborot tizimlariga «viruslar», apparat va dasturiy ma'lumotlarni kiritish, ushbu tizimlardagi ma'lumotlarni yo'q qilish va o'zgartirish;

– **texnik**, jumladan, radioelektron tahdidlar – aloqa liniyalaridan axborotni tutib olish; aloqa liniyalaridagi, boshqaruv tizimlaridagi signal- larni radioelektron vositalar bilan bostirish;

– **jismoniy** tahdidlar – axborotga ishlov berish vositalari, axborot tashuvchi vositalarni yo'q qilish, axborot tashuvchi vositalar, shuningdek apparat yoki dasturiy parol kalitlarini o'g'irlash;

– **axborot** tahdidlari – axborot ayirboshlash reglament (tartib)larini buzish, axborotni noqonuniy to'plash va ishlatish, axborot resurslaridan ruxsatsiz foydalanish, axborot tizimlaridagi ma'lumotlarni qonunga xilof tarzda kodlashtirish, yolg'on ma'lumot berish (dezinformatsiya), axborotni yashirish yoxud o'zgartirish, axborotni ma'lumotlar bazalaridan o'g'irlash. Bugungi kun zamonaviy iqtisodiyotining resurslari orasida axborot resurslari muhim ahamiyatga ega. Chunki kuchli raqobat kurashi sharoitida haqqoniy axborotga ega bo'lgan iqtisodiyot subyektlarigina muvafaqiyatga erishadi.

---

<sup>49</sup> Ross Anderson and Tyler Moore- The Economics of Information Security, University of Cambridge, Computer Laboratory 15 JJ Thomson Avenue, Cambridge CB3 0FD, United Kingdom

“Axborot” (arabcha, axbor – xabarlar, ma’lumotlar) – muayyan voqea-hodisalar to‘g‘risidagi xabar yoki ma’lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelayotgan kibernetika, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, keng ma’no kasb etayotgan tushuncha. Ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinadigan ko‘rsatuv va eshittirishlarning nomi, jurnalistika sohasidagi maxsus janr ham shunday ataladi. Biron voqea haqidagi batafsil ma’lumot, davlatlar o‘rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnomalar to‘g‘risidagi rasmiy xabar ham axborot deyiladi.

Axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asr asrning axborot asri deb atalishiga sabab bo‘ldi. Axborot texnologiyalari axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborotlashgan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga ishlov berish, saqlash va jamiyat a’zolariga yetkazishga bog‘liq ekanini anglatadigan tushunshadir.

Resurs – biror narsa yoki hodisaning zahirasini belgilaydi, ayni vaqtda, u axborot tizimidagi alohida hujjatlar va ularning butun bir majmuidir. Axborot resurslari ma’lumotlar bazalari va banklari, turli xil arxivlar, kutubxonalar, muzeylar fondi va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Axborot resurslariga tahdidlar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- turli yo‘llar orqali maxfiy axborotlar bilan tanishishga intilish;
- buzg‘unchilik maqsadida axborotlarni o‘zgartirish;
- axborot tizimini ishdan chiqarish, buzish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasiga ko‘ra barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjat, qaror va boshqa xil materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishilozim.<sup>50</sup>

Axborot xavfsizligi obyektlarini davlat, tashkilot (korxonalar) va

---

<sup>50</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T: O‘zbekiston, 2016. 30-modda.

alohida shaxs darajasida turkumlash mumkin (10.1-jadval).

10.1-jadval

### Axborot xavfsiligi obyektlari<sup>51</sup>

Davlat	Tashkilot	Shaxs
<ul style="list-style-type: none"> <li>• milliy madaniy qadriyat va an'analar;</li> <li>• axborot resurslari;</li> <li>• axborot resurslarining shakllanishi, tarqatilishi, foydalanilishi;</li> <li>• axborot texnologiyalari;</li> <li>• axborot infratuzilmasi;</li> <li>• fuqarolarning axborotni olish, tarqatish va foydalanish huquqlari, cheklangan axborotlar va intellektual mulkni himoyalash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• tashkilotning korporativ madaniyati;</li> <li>• tijorat siri;</li> <li>• kasb siri;</li> <li>• xizmat siri va boshqa cheklangan axborot;</li> <li>• intellektualmulk;</li> <li>• imidj;</li> <li>• tashkiloting axborot infratuzilmasi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• shaxs psixikasi, ruhiyati;</li> <li>• intellektual mulk;</li> <li>• shaxsiy, oilaviy sir;</li> <li>• kasbiy sir;</li> <li>• shaxsiy ma'lumotlar;</li> <li>• ishbilarmonliknufuzi.</li> </ul>

Axborot xavfsizligiga tahdidlar ichida axborot xuruji muhim rol o'ynaydi. Axborot xuruji iqtisodiy jihatdan milliy iqtisodiyot beqarorligini keltirib chiqarish, korxonalar faoliyatini izdan chiqarishga, raqobat kurashida mag'lub bo'lish, uning bozorining kasod bo'lishi, bankrot bo'lish, shaxs iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan va axborot usullari yordamida davlat monopolistik birlashmalari, transmilliy korporatsiyalar ta'sir doirasini kengaytirishga intilishdir.

### 10.2. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi

Axborot xavfsizligini ta'minlash moddiy va intellektual xarajatlar qilishni taqozo qiladi. Shuningdek, davlat o'zining milliy manfaatlari doirasida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi demokratik huquqiy ta'sir vositalarining shakl hamda usullarini ishlab chiqadi hamda amalgam oshiradi. Axborot

<sup>51</sup> Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. Ростов-на-Дону.; Феникс, 2007. 243 бет.

xavfsizligini ta'minlash vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot jarayonlarining globallasuvi sharoitida axborot tarmoqlarining shakllanishida milliy manfaatlarni himoya qilish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, tashkilot, korxonalar va fuqarolarni haqqoniy, to'liq ma'lumotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash. Bu esa ular uchun qaror qabul qilishga asos bo'lib xizmat qiladi;

- davlat, jamiyat, shaxs axborot xavfsizligiga ziyon keltiradigan darajada axborot resurslari butunligi buzulishining oldini olish;

- fuqaro, tashkilot hamda korxonalarining axborot faoliyati sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash va amalgam oshirish;

- mamlakat axborot infratuzilmasini himoya qilish va takomillashtirish;

- xalqaro axborot muhiti va maydoniga qo'shilishini ta'minlash;

- axborot sohasidagi tahdidlar va xavf-xatarlarga qarshi harakat qilish.

Mamlakatda axborot xavfsizligini iqtisodiyot sohasida ta'minlashning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- statistik, moliyaviy, birja, soliq, bojxona ma'lumotlarini yaratish, yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va himoyalash ustidan davlat nazoratini tashkil etish hamda amalgam oshirish;

- axborotlarni himoya qilishning sertifikatlashgan milliy vositalarini ishlab chiqish va ularni statistik moliyaviy, birja, soliq, bojxona ma'lumotlarini yaratish, yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish tizimi va vositalariga joriy etish;

- elektron savdo va elektron pullar hamda ularning standartlashgan tizimlari bazasida himoyalangan milliy elektron to'lovlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek ularidan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasini ishlab chiqish;

- iqtisodiyotda axborot munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normativ bazani muntazam ravishda takomillashtirib borish;

- iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish

tizimlarida ishlash uchun xodimlarni tayyorlash va tanlash usullarini takomillashtirish.

Axborot xavfsizligini ta'minlashning quyidagi **choralari** farqlanadi:

- yuridik;
- tashkiliy-iqtisodiy;
- texnologik.

Mazkur choralar quyidagi **prinsiplarga** asoslangan:

– jamiyatdagi axborot munosabatlarining normativ-huquqiy bazasi fuqarolarning har qanday qonuniy yo'l bilan axborotni erkin izlash, olish, ishlab chiqarish va tarqatish huquqini ta'minlash mexanizmini qat'iy tartibga soladi;

– axborot resurslari mulkdorlari, egalari va uni tarqatuvchilarning manfaatlari qonun bilan muhofaza etiladi;

– axborotni maxfiylashtirish (yopiq qilish) axborotdan foydalanish bo'yicha umumiy qoidadan istisnodir;

– axborotning saqlanishi, sir tutilishi va oshkor etilishi uchun javobgarlik muayyan shaxsga yuklatiladi;

– zamonaviy kompyuter tarmoqlari, umum foydalanishida bo'lgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va maishiy axborot ma'lumotlariga ega bo'lgan, foydalanish huquqi qonun hujjatlarida kafolatlangan va tartibga solingan ma'lumotlar bazalari va banklari tizimi asosida aholiga va mutaxassislariga ko'rsatiladigan axborot xizmatlari sohasini rivojlantirish davlatning maxsus vazifasi hisoblanadi.

2001-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotlarini olgan Jorj Akerlof, Jozef Stiglis va Maykl Spens Jorj Stiglerning muayyan bozorda axborotning ahamiyati haqidagi konsepsiyasini engib, mikroiqti- sodiyotdan (alohida bozorlar – mehnat, kredit, sug'urta, ishlatilgan avto- mobillar bozorlarini o'rganish) to makroiqtisodiy tadqiqotlarga (iqti- sodiyotni rivojlantirish, aholining qashshoqligi va ishsizlik masalalari) bo'lgan yo'lni belgilab berdilar.

Hech shubhasiz, barcha darajadagi xavfsizlikning axborot komponenti ustundir, chunki u orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar va

davlatning, shu jumladan jismoniy shaxslarning o‘zaro ta’siri mavjud.<sup>52</sup>

Asimmetrik axborot nazariyasining asosiy g‘oyasi bozor iqtisodiyotini tartibga solish ishiga davlat aralashishi zarur degan g‘oyadir. Chunki raqobatsiz bozorlarning tartibsiz faoliyati iqtisodiyot agentlarining faoliyati uchun har xil sharoit yaratib, raqobatli bozorlarning chorasizligiga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid qiladi.

### **10.3. O‘zbekistonda axborotni himoyalashning davlat tizimi**

Axborot resurslari va axborot tizimlarining xavfsizligi quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- shaxs jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash;

- axborot resurslarini qalbakilashtirish, o‘g‘rilash, yo‘qotish, buzish, to‘siq qo‘yish va boshqa ruxsat etilmagan foydalanishlarning oldini olish;

- axborotni buzib ko‘rsatish, ko‘chirish, to‘siq qo‘yish bo‘yicha noqonuniy harakatlarni va axborot resurslari hamda axborot tizimlariga boshqa ta’sir shakllarining oldini olish;

- davlat sirlari va maxfiy axborotlarni mavjud bo‘lgan axborot resurslarini saqlash.<sup>53</sup>

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasiga ko‘ra:

- axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkilotish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi;

- davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza

---

<sup>52</sup> Алексеев, В.М. Международные критерии оценки безопасности информационных технологий и их практическое применение: Учеб. пособие / В. М. Алексеев, В. В. Андрианов, С. Л. Зефирова ; М-во образования Рос. Федерации. Пенз. гос. ун-т. – Пенза: Изд-во Пенз. гос. ун-та, 2002

<sup>53</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 2003 yil 11 dekabr, 19modda.

qilinishini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internet tarmog‘idan foydalanish xavfsizligini ta‘minlashning milliy tizimini yanada takomillashtirish, ularga kompyuter xavfsizligiga tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash, bartaraf etish va ta‘sirini yo‘qotish masalalarida ko‘maklashish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005- yil 5-sentabrdagi “Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-167-son Qarori asosida “Uzinfokom” markazi qoshida Kompyuter hodisalariga qarshi chora ko‘rish xizmati (UZ-CERT) tashkil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining PQ-614-son Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati axborotni kriptografik muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalgam oshiruvchi va mahsulotlar (xizmatlar)ni sertifikatlashni ta‘minlovchi vakolatli organ deb belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilish to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq axborotni kriptografik muhofaza vositalarini ishlab chiqishda:

- litsenzion dasturiy mahsulotlar ishlatilishi;
- talablarning vakolatli organ bilan kelishilishi;
- axborotning kriptografik muhofaza vositalarining ilmiy tadqiqot ishlari olib borish yo‘li bilan ishlab chiqilishi va boshqa talablar belgilangan.

Axborot xavfsizligi-mamlakat va uning fuqarolarining umumiy va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlaydigan axborotdan foydalanish shartlari va qoidalaridir.

Axborot xavfsizligi axborot bozorining faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu bozorning eng tarmoq otgan qismini «axborot sohasi» tashkil etadi, axborot sohasining asosiy sektori esa iqtisodiy axborot bo‘lib, u, o‘z navbatida, umuman mamlakatning,



jumladan turli xil xo'jalik yurituvchi subyektlar, inson shaxsining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan bevosita bog'liq.

Axborot bozorini rivojlantirish borasida jahonda to'plangan tajribaboshqaruv va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy axborot, jumladan ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarga katta ehtiyoj sezayotganligini ko'rsatmoqda.

### **Asosiy so'z va iboralar**

Moliya, moliya tizimi, moliya resurslari, moliya oqimlari, pul, pul muomalasi, inflyatsiya, kredit, bank, bank krediti, investitsion resurslar, kapital, kapitalningqochishi, qalbaki pul chiqarish, iqtisodiy tovlamachilik, asossiz kredit berish, pul-kredit siyosati, valyuta siyosati.

### **Qisqacha xulosalar**

Aholi turmush darajasi milliy va shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikning eng asosiy ijtimoiy indikatorlaridan bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham respublikaning mustaqil taraqqiyoti davrida aholini turmush darajasini oshirish borasida islohotlarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratildi. Mamlakatni va jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilganligi va aholini himoya qilishning o'xshashi bo'lmagan, samarali mexanizmini ishlab chiqilganligi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida respublikada aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan siyosat to'la-to'kis o'zini oqladi. Bunday siyosat o'rtacha umr ko'rish darajasini uzayishi, aholi daromadlarini oshishi, turmush darajasini ko'tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishish, turli tahdidlarni oldini olish va oxir-oqibatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun zamin yaratdi. Insonning iqtisodiy xavfsizligi bu insonning muhim hayotiy manfaatlarining himoyalaniishi uchun shart-sharoitlarning kafolatlangandagi, ijtimoiy taraqqiyot hamda inson va jamiyat himoyasi tizimi ta'minlangandagi holatdir.

## **Nazorat savollari**

1. Mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatning mazmuni nimadan iborat bo'ldi?
2. Aholi turmush darajasi qanday ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi?
3. Respublikada aholi turmush darajasini oshirish qaysi yo'nalishlarda olib borildi?
4. Mustaqillik yillarida aholi turmush darajasida qanday o'zgarishlar amalga oshdi?
5. Aholi turmush darajasidagi o'zgarishlar ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda qanday rol o'ynadi?
6. Insonning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligi hamda ularning o'zaro bog'liqligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ijtimoiy xavfsizlikka qanday ta'sir ko'rsatdi?

## **XI BOB. XUFYONA IQTISODIYOT VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH**

**11.1. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari.**

**11.2. Xufyona iqtisodiyot turlari va ularga qarshi kurashish.**

**11.3. Korrupsiyaning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri va unga qarshikurash.**

*Yashirin iqtisodiyot tushunchasining mohiyati. Yashirin iqtisodiyot va iqtisodiyotning norasmiy sektori. Yashirin iqtisodiyotning sabablari. Mafiya, uning ko'rinishlari va salbiy oqibatlarini. Yashirin iqtisodiyotning mavjudligining mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'siri. Yashirin iqtisodiyotning asosiy shakllari. Yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy tahlili va baholari.*

*Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash vositalari va usullari. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot. Noqonuniy iqtisodiyot va yashirin iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashning xususiyatlari. Norasmiy iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish masalalari.*


### **11.1. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari**

Insonni qiyin ahvolga tushiradigan, ruhan ezadigan holatlar ichida eng og'iri adolatsizlik hisoblanadi. Uning bir ildizi korrupsiya bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishida ifodalanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonuniy asosda kurash olib borilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy adolat tamoyillari asosida ish ko'rish, qonun ustuvorligini ta'minlash, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, bu borada profilaktika choralari tobora kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini taʼminlash, sud-huquq tizimini tubdan isloh etish muhim yoʻnalishlardan biri sifatida belgilangani, korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy qonunchilik takomillashtirilayotgani sohaga doir chora-tadbirlarning yorqin namunasidir.

Xufyona iqtisodiyotga boʻlgan kompleks yondashuv uni quyidagicha taʼriflash imkonini beradi. Xufyona iqtisodiyot bozor xoʻjaligining obyektiv va doimo mavjud boʻluvchi tizimi boʻlib, uning doirasida xoʻjalik yurituvchi subyektlar nohalol raqobat usullari orqali iqtisodiy manfaat olishga harakat qiladilar, yaʼni, oʻz tashabbuslari yoki tashqi shart- sharoitlar taʼsirida qonunga, ish yuritish etikasiga, biznes bilan hokimiyat oʻrtasidagi oʻyin qoidalariga, jamiyatning maʼnaviy-axloqiy meʼyorlariga zid boʻlgan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar.<sup>54</sup>



### **11.1-rasm. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablarining guruhlanishi<sup>55</sup>**

Umumiy qabul qilingan transaksiya xarajatlari nuqtai nazaridan xufyona iqtisodiyotning faoliyat koʻrsatishi huquqiy bazaning takomillashmaganligi, davlat tomonidan oʻziga xos funksiyalarning samarasiz bajarilishi, xoʻjalik faoliyatida ikki xil standartlarning keng tarqalishi kabi tovlamachiliklarning oʻsishi bilan bogʻliq katta

<sup>54</sup> Попов Ю.Н. , Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства . «ДЕЛО»,«ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.50.

<sup>55</sup> «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». Н.П.Абулqosimov. Toshkent - 2012.

miqdordagi transaksiya xarajatlari bilan kuzatiladi.

Transaksiya xarajatlari o‘shining sababi xufyona sektori iqtisodiyoti emas, balki rasmiy iqtisodiyotda yuqori transaksiya xarajatlarining mavjudligi xufyona sektor faoliyat ko‘rsatishining sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xufyona biznes ishtirokchilari o‘zini soliqlardan, litsenziyalashdan, shartnomalar tuzishdan, qonunlarga amal qilishdan ozod qiladi va “o‘yin qoidalariga” ko‘ra mulkchilik huquqini mustaqil ravishda muhofaza qiladi hamda uni buzgan xatti-harakat uchun jazolaydi va bu bilan rasmiy faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qaraganda raqobat jihatdan ustunlikka ega. Jadvalda iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorlarida tadbirkotlik faoliyatini tashkil etish yuzasidan transaksiya xarajatlari taqqoslanadi(11.1-jadval).

*11.1-jadval*

**Transaksiya xarajatlari: iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha qiyosiy tahlil<sup>56</sup>**

<b>Transaksiya xarajatlari turi</b>	<b>Rasmiy sektor</b>	<b>Xufyona sektor</b>	<b>Izoh</b>
1. Tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya olish	+	-	Norasmiy ishlab chiqarish
2. Yerga egalik qilish yoki uni ijaraga olish huquqini qo‘lga kiritish	+	-	Noqonuniy qurilish
3. Tegishli qonunlar va normativlarni bilish va ularga amal qilish	+	-	Xufyona iqtisodiyotning o‘yin qoidalariga amal qilish
4. Soliqlarni to‘lash	+	-	
5. Kredit olish	+	+	Kredit imtiyozli shartlarda beriladi
6. Shartnomalar shartlarining bajarilishini nazorat qilish tizimi	+	+	Bitimlarni noiqtisodiy nazorat qilish
Jami	6+	2+	

<sup>56</sup> «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent – 2012.

Mazkur jadval shuni yaqqol ko'rsatib turibdiki, iqtisodiyotning xufyona sektorida aksariyat pozitsiyalar bo'yicha faqat tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda transaksiya xarajatlari rasmiy iqtisodiyotga qaraganda ancha past(6+/2+). Masalan, yerga egalik qilish yoki uni ijaraga olish huquqlarining noqonuniy qo'lga kiritilishi imorat soluvchilar uchun bepulga tushmaydi, lekin barcha rasmiy tartib-qoidalar va ushbu transaksiyani amalga oshiruvchi instansiyalar, sarflangan vaqt va boshqa sarf-xarajatlarni hisobga olgan holda nolegitim yo'l ayrim subyektlar uchun ancha oson va foydali bo'lib chiqadi. Chunki xufyona iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan o'tib bo'linmas to'siq bilan ajralmagan, ko'pchilik xo'jalik yurituvchi subyektlar transaksionalarni xufyona sektor yordamida amalga oshirish mumkin.

“Xufyona” iqtisodiyot milliy xavfsizlikka tahdid sifatida ayrim individlar, ularning guruhlari, institutsional subyektlar o'rtasida moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va istemol qilish borasida yuzaga keladigan hamda natijalari u yoki bu sabablarga ko'ra rasmiy statistikada inobatga olinmaydigan va soliqqa tortilmaydigan munosabatlar majmuidir.

Xufyona iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishida davlatning iqtisodiy xavfsizligiga imkoniyatdagi va aniq tahdid mavjud. «Xufyona» iqtisodiyot aksariyat odatdagi, «normal» iqtisodiy jarayonlarning kechishiga - daromadning taqsimlanishi va shakllanishiga, xalqaro savdoga, investitsiya kiritish va umuman iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

«Xufyona» iqtisodiyotning xususiyatlarini aniqlashda ushbu muammo tadqiqotchilarini turli ta'riflarni muomalaga kiritishga undovchi har xil omillar inobatga olinadi. Bunday mezonlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Mazkur mezonlarga ko'ra, «jinoiy», «nojinoiy», «norasmiy», «soxta», iqtisodiyot ajratiladi.

Soliqlarni kamaytirib to'lash o'z-o'zicha firibgarlik operatsiyasi hisoblanmaydi va har doim ham Xufyona biznes sohasiga kirmaydi. Hammasi qo'llaniladigan usullarga bog'liq. Soliqqa tortish bo'yicha

har qanday tizimda ungagina xos bo'lgan ko'plab soliqlarni qonuniy kamaytirish imkoniyatlari mavjud. Buning ustiga soliqlarni kamaytirishning ushbu o'ziga xos usullarini soliqqa tortishning boshqa tizimlarida ko'pincha amalga oshirib bo'lmaydi. Soliq qonunchiligi barcha mamlakatlarda takomillashib boradi. Takomillashuv deganda, avvalo soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash imkoniyatlarini bartaraf etish tushuniladi.

### **“Xufyona” iqtisodiyot doirasidagi operatsiyalarning quyidagiturlarini ajratish mumkin:**

- buxgalteriya hisobiga butunlay kiritilmaydigan (jumladan, ham oshkora, ham ro'yxatdan o'tmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'tkaziladigan) operatsiyalar;

- boshqa operatsiyalar niqobi ostida o'tkaziladigan muomalaning bir qismini yashirishga qaratilgan operatsiyalar. Bu yerda xo'jalik faoliyati ko'pincha daromadni yashirish yoki soliq, boj va boshqa to'lovlarni amalga oshirishdan qochish bilan kechadi.

Shu erda xulosa o'rnida soliqlar to'lashda intizomning buzilishi jamiyatning iqtisodiy negizlariga putur yetkazadi, deb aytish lozim. Soliq qonunchiligining buzilishi mamlakatda amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning me'yorda ishlashiga rahna soladi. Byudjet kamomadini keltirib chiqaradi. Natijada egri soliqdar miqdori ko'payadi. Mamlakatning ijtimoiy xavfsizligiga tahdid solinadi. Iqtisodiyotning notekis ishlashiga sabab bo'ladi.

Xufyona iqtisodiyot zamonaviy jinoiy tizimlarning shakllanishiga moddiy asos bo'ladi, siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlarga, inqirozdan chiqish, bozor munosabatlariga asoslangan davlatga aylanishga to'sqinlik qiladi. Shu o'rinda quyidagi fikrlarni ta'kidlash lozimki, “jinoiy yoki ko'p holatlarda “xufiyona” deb ataluvchi iqtisodiyot voqelik sifatida quyidagicha sharoitda o'sadi va rivojlanadi: u ishlab chiqarish sohasidagi qonunlarni qo'pol ravishda buzib, o'ziga xon-o'ziga bek bo'lib olgan edi. Chunki unga raqobatchi bo'lgan davlatning iqtisodiy tuzilmalari qotib qolgan ko'rsatmalar va ta'qiqlar bilan cheklab qo'yilgan edi.

Xufyona iqtisodiyotning vujudga kelish manbalari jinoiy va

jinoiy bo‘lmagan munosabatlardan kelib chiqadi.

Xufyona iqtisodiyot, o‘z navbatida, korrupsiyani vujudga keltiradi. Korrupsiya esa “Xufyona iqtisodiyot”ning rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi. Ya’ni, - bir tomondan, “Xufyona iqtisodiyot” davlat hokimiyati va boshqaruvining barcha tizimi sezilarli darajada korrupsiyalashgan shart-sharoitda rivojlansa, **ikkinchi tomondan**, “Xufyona iqtisodiyot” siyosat va iqtisodiyotning o‘zaro xotirjam holatda mavjud bo‘lishini ta’minlovchi sohalar bilan korrupsiyali munosabatlarni shakllantiradi. **Uchinchi tomondan**, korrupsiya “Xufyona iqtisodiyot”ni ko‘ziga ko‘rinmasdan, noqonuniy ravishda tijoratni olib borishga majbur etadi. **To‘rtinchidan**, korrupsiya “Xufyona iqtisodiyot”ning yangi ko‘rinishi va sohalar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish “Xufyona iqtisodiyot”ga qarshi kurash bilan birga olib borilmasa, kerakli samarani bermaydi”.<sup>57</sup>

Bugungi kunda jahondagi moliyaviy iqtisodiy inqiroz, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mahalliyashtirish va uni modernizatsiyalash sharoitida “xufiyona iqtisodiyot” ni batafsil tahlil qilish va uni kamaytirish yullari yetarli darajada o‘rganilmagan.


## **11.2. Xufyona iqtisodiyot turlari va ularga qarshi kurashish**

Tadqiqotchilarning katta bir qismi xufyona faoliyat va xufyona iqtisodiyotni o‘rganishga huquqiy jihatdan yondashadilar (11.3–rasm). Ushbu yondashuv tarafdorlari xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishda qonunning buzilishini asosiy mezon qilib oladilar. Xufyona iqtisodiyotni ikkiga ajratadilar: kriminal («qora») va nokriminal («kul rang»). Bunda biror bir faoliyatni davlatdan yashirish faktini ikki turdagi motiv bilan bog‘liq, deb hisoblaydilar. Birinchisi, xo‘jalik subyektlarining o‘z harajatlarini kamaytirish (birinchi navbatda soliq to‘lashdan bosh tortish hisobiga) bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi faoliyatning noqonuniy ekanligi bois uni to‘xtatib qo‘yilishidan hadiksirash bilan bog‘liq.

---

<sup>57</sup> <sup>59</sup>Алимов Р.М., Тошев З.К. “Хуфиёна иқтисодиёт” - коррупция даражасининг ортишига таъсиркўрсатувчи омил сифатида. //Жамият ва бошқарув. 2014.№1. 34-38б.





**11.3-rasm. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan huquqiy yondashuv<sup>58</sup>**

Noqonuniy (xufyona) ishlab chiqarish faoliyatiga biznes ko‘rinishida tashkil etilgan, qonun yo‘li bilan taqiqlangan faoliyat turlarini kiritish mumkin. Noqonuniy (xufyona) ishlab chiqarish faoliyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:


- qurol ishlab chiqarish va sotish;
- narkobiznes;
- qimor o‘yinlari;
- kontrabanda;
- fohishabozlik va b.

Iqtisodiy jinoyatlar iqtisodiy sohadagi jinoyatlar bo‘lib, ular ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo‘lmagan va g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab qilingan iqtisodiy jinoyatlardir (ular yaratilgan qiymatni qayta taqsimlash sohasida amalga oshadi):

- g‘arazli maqsadlarda xizmat mansabini suiste‘mol qilish (poraxo‘rlik);
- firibgarlik;
- o‘g‘rilik;
- ta‘magirlik (reket) va b.

<sup>58</sup> Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства . «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.28.

Bundan tashqari, xufyona iqtisodiyot sohasi o‘zining yuqori daromadliligi va subyektlarining huquqni himoya qilish organlariga murojaat qila olmasliklari bois, iqtisodiy jinoyatchilik uchun yaxshi muhit bo‘lib hisoblanadi. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan statistik yondashuv xufyona iqtisodiyotni rasmiy statistikadan yashirilgan faoliyat sifatida tavsiflaydi (11.4-rasm).




**11.4-rasm. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan statistik yondashuv<sup>59</sup>**

Real xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar davlat organlaridan ongli ravishda, ataylab yashirilishi yoki milliy statistika tizimida qamrab olinmasligi mumkin. Statistik hisob-kitoblardan tadbirkorlik faoliyatining turli elementlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yashirilishi yoki ongli ravishda ma‘lumotlarni buzib ko‘rsatilishi mumkin:

- korxonani yashirish (ro‘yxatdan o‘tkazmasdan yoki litsenziya olmasdan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish);
- xo‘jalik operatsiyalarini yashirish (ularni shartnoma va hisobotlarda aks ettirmaslik);
- ishchi kuchini Xufyona ravishda yollash (ishchi kuchini mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmasdan yollash); mehnat sharoitlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni (ish haqi, pensiya va sug‘urta to‘lovlari, texnika xavfsizligi, ish vaqti va b.) buzib ko‘rsatish;
- daromadlarni yashirish (soliq to‘lashdan qochish).

<sup>59</sup> Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.28.



**11.5-rasm. Xufyona iqtisodiyotning iqtisodiy faoliyat sohalari bo'yicha tasniflanishi<sup>60</sup>**

Ularning fikricha, bunday yondashuv, yuqorida keltirilgan yondashuvlarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lish bilan birga, ulardan muhim xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Ushbu yondashuv quyidagi mezonlar guruhini o'z ichiga oladi:

- huquqiy;
- statistik;
- iqtisodiy;
- ijtimoiy;
- ma'naviy.

Xufyona iqtisodiyotning subyektlari bo'yicha, faoliyatning maqsad va motivlari bo'yicha, oqibatlar va zarar miqyoslari bo'yicha, davlatning javobgarlik darajasi bo'yicha, aholining munosabati bo'yicha mezonlarorqali tasniflashni taklif etadilar.

<sup>60</sup> Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.28.

### **11.3. Korrupsiyaning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri va unga qarshi kurash**

“Korrupsiya” lotincha (corruptio) soʻzidan olingan boʻlib, buzilish degan maʼnoni anglatadi. Korrupsiya faqat bir koʻrinishda namoyon boʻladigan hodisa boʻlmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Oʻz tabiatiga koʻra turlicha boʻlgan yuzaga kelish va qayta tiklanish mexanizmlari bilan xarakterlanadi.

Korrupsiya hodisasini tadqiq qilgan barcha tadqiqotchi hamda siyosatchilar uning axloqsizlik ekanligi va har qanday mamlakatning iqtisodiy va demokratik taraqqiyotiga ziyon yetkazishini tan oladilar. Lekin, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda ushbu hodisa jamiyat va iqtisodiyot institutlari tizimidan tashqaridagi “maʼnaviy jinoyat” sifatida oʻrganiladi. Uning tabiati, funksiyalari, jamiyat va iqtisodiyotga yetkazadigan zararlari toʻgʻrisidagi tasavvurlar va fikrlar cheklanib qolmoqda degan fikrlar mavjud.

Insonni qiyin ahvolga tushiradigan, ruhan ezadigan holatlar ichida eng ogʻiri adolatsizlik hisoblanadi. Uning bir ildizi korrupsiya bilan bogʻliq boʻlib, bu shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishida ifodalanadi.

Korrupsiya - mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga taʼsir etib, iqtisodiy sohada mamlakatning nazorat qilish funksiyasining susayishi, raqobat mexanizmlari ishlamasligi, mulk huquqining poymol qilinishiga, tovar va xizmatlar baholarining oshishiga olib kelishi, ijtimoiy sohada xalqning sotsial tabaqalanishiga, qonun ustuvorligi prinsipining obrusizlanishi, siyosiy sohada esa xalqning hukumatga ishonchiyoʻqolishiga olib keladi.

“Tenevaya ekonomika v sistememy nochnogo xozyaystva”, deb nomlangan darslikning korrupsiya masalasiga bagʻishlangan qismida mualliflar N. Makiavellining korrupsiyaga bergan taʼrifini keltiradilar, yaʼni, kooruptsiya “ommaviy imkoniyatlardan shaxsiy

manfaatlar yo'lida foydalanish"ni anglatadi<sup>61</sup>. Hozirgi davr xalqaro me'yoriy hujjatlarida korrupsiyaning turlicha talqinlari keltirilgan. BMTning korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash to'g'risidagi hujjatlarida, korrupsiyaga shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiste'mol qilish, deb ta'rif beriladi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy taraqqiyotga intilishda aks etgan tarixiy jarayonlar shundan dalolat beradiki, mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi avvalo, hokimiyat tepasiga kelgan kuchlarning maqsadlariga, demokratik talablarga rioya etishiga, boshqarishning maqbul yo'llarini tanlagan holda, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bora olganligiga bog'liq bo'lgan. Bularning biror birida ijobiylik bo'lmagan taqdirda, bu holat davlatlarning ijtimoiy taraqqiyot sari islohotlariga ham salbiy ta'sir etgan.

Korrupsiyaning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishida farqlar mavjudir. Iqtisodiy jihatdan, bu erkin bozor qonun-qoidalariga mos kelmaganidan yashirincha yuz beradi. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan guruhning manfaati uyg'unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo'lganidan, u sotadi. Bu yerda pora yashirin xizmat haqi shakliga kiradi. Poraxo'rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo'ysunuvchi munosabat bo'lganligi sababli uni jamiyat tan olmaydi, chunki bu erda ayrim shaxslar yohud guruhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaati hisobidan bo'ladi. Shuning uchun buni jamiyat qabul qilmaydi va natijada u yashirin tus oladi.

Korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lar ekan, demak uning iqtisodiy ildizlarini topish kerak bo'ladi. Bu ildizlar pul munosabatlarining o'zidadir. Pul universal to'lov vositasi, uni hamma operatsiyalar uchun qabul qilinadi, pul boylikning timsoli, boylik to'plashning eng qulay shakli. Pulni saqlash xavfsiz, uni xohlagancha jamg'arish mumkin. Pul likvidligi eng yuqori bo'lgan aktivdir. Likvidlikni esa pulning qadr-qimmati ta'minlaydi. U ko'zga

---

<sup>61</sup> Попов Ю.Н. , Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства . «ДЕЛЮ», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.76.

ko‘rinmas moliyaviy aloqalar o‘rnatish imkonini beradi. Pulning likvidligi muhim bo‘lganidan, pora berishda qattiq valyutalar ishlatiladi, chunki ularning qadri barqaror bo‘lgani uchun jamg‘arish vositasi bo‘la oladi. Pul-bozor munosabatlarining mahsuli, shu sababli pul munosabatlarining rivojlanishi korrupsiyani oziqlantiradi.

Korrupsiyaning salbiy hodisa sifatida xavfsizlikka tahdid solishi hech kimda shubha tug‘dirmaydi, shu sababli davlat idoralari va jamoatchilik tashkilotlari unga qarshi kurashib keladi. Biroq dunyoning hech bir mamlakatida, hatto har tomonlama yuksak rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya tugatilmagan. Jamiyat korrupsiyani cheklab turishi, katta xavf tug‘dirmaydigan darajaga keltirishi mumkin. Unga qarshi kurashishtadbirlarini ishlab chiqish va qo‘llash uchun qaysi soha qay darajada korrupsiyalanganini bilish talab qilinadi.

Korrupsiya shunisi bilan xavfliki, u ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi, biznes yuritish xarajatlarini oshiradi, demak milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini pasaytiradi, muayyan darajada siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, o‘tgan asrning 80- yillari boshida korrupsiya, iqtisodiyotni uquvsiz boshqarish bilan qo‘shilib, Venesueladek neftga boy mamlakatning to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lishiga olib keldi.

Korrupsiya faqat bir ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan hodisa bo‘lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Korrupsiya shakllari xilma-xil bo‘lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste‘mol qilib, jamiyat mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirishigacha kiradi.

### **Asosiy so‘z va iboralar**

Investitsiya, innovatsiya, iqtisodiy xavfsizlik, metodologiya, sifat, xususiylashtirish, kafolat, texnologiya, tajriba vataklif, bankrotlik, intellektual mulk, kontseptsiya, liberallashtirish, lizing, sug‘urta, investitsiya vizasi

### **Qisqacha xulosalar**

Ishsizlik jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishining bosh sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim indikator sifatida alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muammolar qatorida turadi. Ishsizlik mamlakatda mavjud tabiiy, mehnat, moddiy, iqtisodiy va moliyaviy resurslardan samarali hamda yetarlicha foydalanmaslik holatini anglatadi.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikator sifatida o'rganiladi?
2. Ishsizlik tushunchasi va uning turlari.
3. O'zbekistonda ishsizlikning oldini olish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

## **XII BOB. O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING QONUNIY VA ME‘YORIY ASOSLARI**

**12.1. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlari.**

**12.2. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning me‘yoriy-huquqiy jihatlari.**

**12.3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslari.**

*Korrupsiya va uning ko‘rinishlari. Korrupsiyaga qarshi global kurash. Korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy mamlakatlar tajribasi. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash yo‘llari va usullari. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining mazmuni va ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmini yanada takomillashtirish.*

### **12.1. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlari**

Korrupsiyaning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishida farqlar mavjud bo‘lib, iqtisodiy jihatdan, bu erkin bozor qonun-qoidalariga mos kelmaganidan Xufyonacha yuz beradi. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan guruhning manfaati uyg‘unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo‘lganidan, u sotadi. Bu yerda pora Xufyona xizmat haqi shakliga kiradi. Poraxo‘rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo‘ysunuvchi munosabat bo‘lganligi sababli uni jamiyat tan olmaydi, chunki bu yerda ayrim shaxslar yohud guruhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaati hisobidan bo‘ladi. Shuning uchun buni jamiyat qabul qilmaydi va natijada u xufyona tus oladi.


Insonni qiyin ahvolga tushiradigan, ruhan ezadigan holatlar ichida eng og‘iri adolatsizlik hisoblanadi. Uning bir ildizi korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lib, bu shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan



shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishida ifodalanadi.

Korrupsiya – mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga ta’sir etib, iqtisodiy sohada mamlakatning nazorat qilish funksiyasining susayishi, raqobat mexanizmlari ishlamasligi, mulk huquqining poymol qilinishiga, tovar va xizmatlar baholarining oshishiga olib kelishi, ijtimoiy sohada xalqning sotsial tabaqalanishiga, qonun ustuvorligi prinsipining obrusizlanishi, siyosiy sohada esa xalqning hukumatga ishonchiyo‘qolishiga olib keladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonuniy asosda kurash olib borilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy adolat tamoyillari asosida ish ko‘rish, qonun ustuvorligini ta’minlash, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, bu borada profilaktika choralarini tobora kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta’minlash, sud-huquq tizimini tubdan isloh etish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangani, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy qonunchilik takomillashtirilayotgani sohaga doir chora-tadbirlarning yorqin namunasidir.



**12.1-rasm. Korrupsiyaning sabablari<sup>62</sup>**

Korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo‘lar ekan,

<sup>62</sup> «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent – 2012.

demakuning iqtisodiy ildizlarini topish kerak bo‘ladi. Bu ildizlar pul munosabatlarining o‘zidadir. Pul universal to‘lov vositasi, uni hamma operatsiyalar uchun qabul qilinadi, pul boylikning timsoli, boylik to‘plashning eng qulay shakli. Pulni saqlash xavfsiz, uni xohlagancha jamg‘arish mumkin. Pul likvidligi eng yuqori bo‘lgan aktivdir. Likvidlikni esa pulning qadr-qimmati ta‘minlaydi. U ko‘zga ko‘rinmas moliyaviy aloqalar o‘rnatish imkonini beradi. Pulning likvidligi muhim bo‘lganidan, pora berishda qattiq valyutalar ishlatiladi, chunki ularning qadri barqaror bo‘lgani uchun jamg‘arish vositasi bo‘la oladi. Pul - bozor munosabatlarining mahsuli, shu sababli pul munosabatlarining rivojlanishi korrupsiyani oziqlantiradi.

Korrupsiyaning salbiy hodisa sifatida xavfsizlikka tahdid solishi hech kimda shubha tug‘dirmaydi, shu sababli davlat idoralari va jamoatchilik tashkilotlari unga qarshi kurashib keladi. Biroq dunyoning hech bir mamlakatida, hatto har tomonlama yuksak rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya tugatilmagan. Jamiyat korrupsiyani cheklab turishi, katta xavf tug‘dirmaydigan darajaga keltirishi mumkin. Unga qarshi kurashishtadbirlarini ishlab chiqish va qo‘llash uchun qaysi soha qay darajada korrupsiyalanganini bilish talab qilinadi.

Korrupsiya shunisi bilan xavfliki, u ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi, biznes yuritish xarajatlarini oshiradi, demak milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini pasaytiradi, muayyan darajada siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, o‘tgan asrning 80 – yillari boshida korrupsiya, iqtisodiyotni uquvsiz boshqarish bilan qo‘shilib, Venesueladek neftga boy mamlakatning to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lishiga olib keldi.

Korrupsiyani jilovlash uchun qonunlar yaxshi ishlashi talab etiladi. Qonunlarning yaxshi ishlashi ularning yuridik samaradorligini belgilaydi. Ushbu ko‘rsatkich O‘zbekistonda 2001-yilda 2,0 ga teng bo‘lib, boshqa mamlakatlar bilan qiyoslanganida o‘rtacha ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich eng yuqori, ya‘ni 4,0 ga teng bo‘lgan mamlakatlar jumlasiga Vengriya, Ruminiya, Polsha, Bolgariya,

Chexiya va Estoniya kirgan<sup>63</sup>.

Ma'muriy korrupsiya qonun-qoidalarini bajarish jarayoniga atayin buzilishlar kiritilishini bildiradi. Korrupsiyaning ushbu turi firmalar va kompaniyalar daromadining pora berish uchun sarflanadigan hissasi bilan o'lchanadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha – 2,2 foiz (Vengriyada – 1,7 foiz, Polshada – 1,6 foiz), MDXda – 3,7 foiz (Rossiyada 2,8 foiz)ni tashkil etgan.

Korrupsiya shakllari xilma-xil bo'lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste'mol qilib, jamiyat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirishigacha kiradi. Biznesda eng ko'p uchraydigan va eng ko'p tarqalgan korrupsiya shakli import va eksport litsenziyalari, valyuta nazorati, soliqlarni baholash, imtiyozlar berish, kreditlar olish bilan bog'liq ravishda g'ayriqonuniy to'lovlar va pora talab qilishdir.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida 200 dan ortiq mamlakat iqtisodiyoti birlashgan bo'lib, bular yaratgan tovar va xizmatlar 2018 yilda 78,9 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. Xalqaro Valyuta Fondi ijrochi direktori Kristian Lagart o'zining “korrupsich haqida ochiq gap” essesinde shunday ma'lumot beradi: XVF 2018- yil yakunlari bo'yicha korrupsiyaning umumiy hajmini 1,5-2 trln. AQSH dollariga baholadi. Dunyoda yaratilayotgan YAIM ning 2 foizini pora tashkil qilar ekan. K.Lagartning fikricha, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun yaxlit va ko'p qirrali yondashuv zarur, uning eng muhim tarkibiy qismini- hokimiyatning kuchli institutini davlat xizmatining professional va yetarlicha mustaqil kadrlari bilan jamlash kerak bo'ladi. Shu bilan birga ushbu mavzuga e'tibor qaratishga Lagartni korrupsiyaning o'ta dolzarb va nozik masala ekanligi majbur qildi. Yaqinda o'tkazilgan global so'rovlar doirasida korrupsiya “jamoatchilik tomonidan kambag'allik va ishsizlikdan ko'ra ko'proq muhokama qilinadigan mavzu hisoblanadi”, - deb yozadi u. Uning fikricha, agar kambag'allik va ishsizlik surunkali korrupsiyaning belgisi ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur muammoning o'ta

---

<sup>63</sup> <sup>65</sup> Qobilov Sh.R. , Abdullaev N.B. Korrupsiya va xavfsizlik. T.: O'zbekiston. 2006. 21 – b.

dolzarbligini isbotlashning hojati yo‘q.

## **12.2. Korrupsiya qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning me‘yoriy-huquqiy jihatlari**

Korrupsiya keng ma‘noda mansabdor shaxslarning shaxsiy va guruhiy manfaatlari yo‘lida o‘z mansab vakolatlari va mavqeilarini suiiste‘mol qilishida ifodalangan qilmishlardir. Korrupsiyaning sog‘lom ijtimoiy munosabatlarga tahdidi to‘g‘risida XX asrning so‘nggi choragida avvalo milliy darajada, so‘ngra esa xalqaro miqyosda ko‘proq gapira boshlandi. Uni nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, psixologik va siyosiy tushuncha sifatida o‘rganila boshlandi.

Korrupsiyaviy qilmishlar — ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy omillar ta‘sirida vujudga keluvchi va rivojlanuvchi o‘zining psixologikasoslariga ega bo‘lgan salbiy ijtimoiy fenomen.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy taraqqiyotga intilishda aks etgan tarixiy jarayonlar shundan dalolat beradiki, mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi avvalo, hokimiyat tepasiga kelgan kuchlarning maqsadlariga, demokratik talablarga rioya etishiga, boshqarishning maqbul yo‘llarini tanlagan holda, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bora olganligiga bog‘liq bo‘lgan. Bularning biror birida ijobiylik bo‘lmagan taqdirda, bu holat davlatlarning ijtimoiy taraqqiyot sari islohotlariga ham salbiy ta‘sir etgan.

Transparency International (TI) xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 1995-yildan buyon amalga oshirilib borayotgan davlatlarning korrupsiyalashganligi to‘g‘risidagi tadqiqotlar, so‘rovlarda aniqlangan davlatlarning korrupsiyalashganligi darajasi bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari shundan dalolat beradiki korrupsiyalashmaganligi jihatdan ilgari o‘rinda turgan davlatlar asosan rivojlangan, demokratik davlatlar sanaladi. Korrupsiyalashganligi jihatdan yuqori o‘rinlarda turgan davlatlar esa asosan sobiq sotsialistik mamlakatlar va davlat boshqaruvida nodemokratik yo‘ldan borayotgan davlatlar bo‘lib, bularga Afrika va Osiyoning boshqaruvda diktatura, avtoritar rejim o‘rnatilgan davlatlari Gonduras, Kamerun,

Nigeriya, Keniya, Tanzaniya, Paragvay, Uganda va MDHning ayrim davlatlari kiradi.

Korrupsiya ayrim davlatlarning qoloqlikda qolib ketishiga sabab bo‘lishi bilan birga, xalqaro munosabatlarga ham o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazmoqda. Uning ijtimoiy xavfliligi, har qanday munosabatga buzg‘unchilik ta‘siri xalqaro tashkilotlar faoliyatida ham kuzatiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti korrupsiyaning mamlakatlarning milliy taraqqiyoti va barqarorligiga jiddiy xavf solishi mumkinligini hisobga olib va uning nafaqat milliy balki xalqaro hamjamiyatni tobora xavotirga solib borayotgan xalqaro illat deb e‘tirof etuvchi qator hujjatlarni qabul qilgan. BMT doirasida Global korrupsiyaga qarshi kurash dasturi e‘lon qilingan. Ushbu dastur milliy korrupsiyaga qarshi kurash dasturlarini amalga oshirishga yordam berish va mamlakatlarda korrupsiya tavakkalchiligini ko‘tarish, davlat xizmatchilarida sotilmaslikpsixologiyasini shakllantirish, qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan. Dasturda davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar sotib olishda va xalqaro iqtisodiy bitimlarda ochiqlik va hisobdorlik bo‘lishiga katta e‘tibor berilgan. 1990- yilda BMT maxsus «Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiya» deb nomlangan rezolyutsiyasini qabul qilgan. 1996 yildagi «Korrupsiyaga qarshi kurash» rezolyutsiyasida davlatlarni korrupsiyaning xalqaro aloqalarga bog‘liq bo‘lgan jihatlariga, ayniqsa korporativ tashkilotlarning xalqaro iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ro‘y beradigan noqonuniy bitimlarni jiddiy o‘rganib ko‘rishga chaqirgan. Bu to‘g‘risida BMTning “Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘riisida”gi Deklaratsiyasi ham mavjud. BMT doirasida qabul qilingan 1996-yildagi rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan Davlat mansabdor shaxslari axloqining xalqaro kodeksidavlat mansbdor shaxslari faoliyatining prinsiplari belgilab berilgan edi.

BMTning yuqorida qayd etilgan hujjatlarida korrupsiyaning xalqaro xarakteri va unga qarshi kurashning vositalari va metodlari haqida tavsiyaviy qoidalar o‘z aksini topgan. BMT tomonidan 2000-

yilda qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash Konvensiyasida korrupsiyaning tranmilliy xarakterdagi jinoyat ekanligi va unga qarshi kurashda Konvensiyaga qo'shilgan mamlakatlarning majburiyatlari va korrupsiyaga qarshi kurashning keng qamrovli choralari o'z aksini topgan.

Lagart korrupsiyani engish uchun bir necha avlodlar o'tishi shart emas, deb hisoblaydi. U qisqa vaqt ichida bu muammoni hal qilishda jiddiy yutuqqa erishgan bir qator mamlakatlar, ya'ni yaqinda Indoneziyada korrupsiyaga qarshi kurash hamda Singapurning Li Kuan Yu Bosh vazirligi davridagi mashxur tajribasini misol tariqasida keltiradi. Bu borada Li Kuan YUdan korrupsiyaga qarshi kurashning muvaffaqiyati haqida so'ralganda: "iqqita do'stimni qilmishi uchun ozodlikdan mahrum qildim, qolganlar hammasini o'zlari tushunib oldilar". Bunday vaziyatda jamiyat ahli "demak, u korrupsiyaga qarshi jiddiy kurash olib borishga qaror qilgan", degan xulosa chiqardi. Korrupsiyaning kambag'allikni keltirib chiqarishi xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchini so'ndiradi. Korrupsiya daromadlardagi tengsizlikni keltirib chiqaradi, aholi keskin tabaqalashadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda nohukumat xalqaro tashkilotlar ichida Transperensi Interneyshnl (Transparency International) mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar faoliyatida bu illatga qarshi kurash borasida qator tashkiliy ishlar amalga oshirib kelmoqda. Tashkilot 1993- yilda tashkil etilgan bo'lib, shtab-kvartirasi Berlinda joylashgan. Tashkilotning asoschisi va raisi sobiq Jahon banki rahbariyatda faoliyat ko'rsatgan Peter Aygen hisoblanadi. Peter Aygenning ilgari bunday yirik moliyaviy tashkilotda faoliyat yuritgani Transperensi Interneyshnlning dunyodagi mamlakatlarning korrupsiyalashganligi darajasini aniqlashda va korrupsiya fenomeniga qarshi chiqishiga o'ziga xos turtki bo'lgan deyish mumkin. Transperensi Interneyshnl tashkiloti ko'pchilik tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar rahbarlarining fikricha korrupsiya sohasida ancha obro'li ekspert tashkilot sanaladi. Tashkilot bir necha yildirki dunyodagi mamlakatlarning korrupsiyalashganligini

monitoring qilib boradi. Monitoring natijalariga ko'ra Transperensi Interneyshnl har yili korrupsiya indeksi deb nomlangan mamlakatlarning korrupsiyalashganligi darajasini aks ettiruvchi o'ziga xos reytingni nashr etadi. Bundan tashqari Transperensi Interneyshnl korrupsiyaga qarshi kurash jabhasidagi ilg'or tajribalarni keng yoyish bilan ham shug'ullanadi. Ko'pchilik ekspertlarning tan olishicha, ushbu tashkilot tomonidan e'lon qilinayotgan korrupsiya indeksi u yoki bu jamiyatning qanchalik «ifloslanganligini» aks ettiradi. Tashkilot biror bir mamlakatning korrupsiya indeksini aniqlash uchun, avvalo mamlakatdagi korrupsiyalashganlik haqida keng va ishonchli ma'lumotlar to'playdi.

### **12.3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslari**

Insonni qiyin ahvolga tushiradigan, ruhan ezadigan holatlar ichida eng og'iri adolatsizlik hisoblanadi, deyish mumkin. Uning bir ildizi korrupsiya bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishida ifodalanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonuniy asosda kurash olib borilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy adolat tamoyillari asosida ish ko'rish, qonun ustuvorligini ta'minlash, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, bu borada profilaktika choralarini tobora kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini tubdan isloh etish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangani, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy qonunchilik takomillashtirilayotgani sohaga doir chora-tadbirlarning yorqin namunasi.

2017-yil 4-yanvardan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi.

Mazkur qonun ijrosi to'liq va samarali ta'minlanishi uchun 2017-yil 2-fevralda davlatimiz rahbarining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlariga to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 2-fevralda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori asosida mazkur yo'nalishda 2017-2018-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi.

Mazkur komissiya korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi va hamkorligini ta'minlaydi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora- tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etadi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka soladigan tahdidlarni keltirib o'tgan. Asarda ta'kidlanishicha, siyosiy jihatdan olib qaralganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir. Mamlakatda jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemiradi, jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi.

Bugungi kunda respublikamizda korrupsiyaning mamlakat



iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini chuqur anglagan holda, unga qarshi kurashish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 2- fevral kungi PQ-2752-sonli qarori bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida "2017-2018- yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi" tasdiqlanib, "korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi" tuzildi. Ushbu kommissiyaning ma'lumotlariga ko'ra birgina, 2017- yilning birinchi yarim yili davomida korrupsiyaga aloqadorlikda gumon qilingan 1566 nafar mansabdor shaxsga nisbatan 1130 ta jinoiy ish qo'zg'atilgan. Sud organlariga 1442 nafar mansabdor shaxsga nisbatan 954 ta jinoyat ishlari yuborilgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 23 foizga, qo'zg'atilgan jinoiy ishlar soni esa 22 foizga kamaygan. Shuningdek, korrupsiya jinoyatlari natijasida yetkazilgan zararning 77 foizi undirib olingan. Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki korrupsiyaga qarshi kurashish borasida hal qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina. Amaliy natijaga erishish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish borasida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

- korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini amalda ta'minlash;
- normativ-xuquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshiekspertizasini o'tkazish amaliyotini yanada takomillashtirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- samarali bozor raqobatini ta'minlash;
- iqtisodiy beqarorlik nazorat qilish. Bu avvalo inflyasiyada

namoyon bo‘ladi, ya’ni pul mablag‘larining qadrsizlanishi tufayli davlat va mahalliy davlat organlari xizmatchilarining har qanday manbalarini izlashlariga sabab bo‘ladi.

- davlat organlarining mansabdor shaxslari ustidan keng jamoatchilik nazoratini o‘rnatish.

Davlatimizda amalga oshirilayotgan bunday say-harakatlarning barchasidan kutilayotgan pirovard natija bu jamiyatda adolatsizlikka barham berishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, hozirgi soliq siyosatimiz va uning huquqiy asosi bo‘lgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksida insofli, halol soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko‘zda tutilishi lozim bo‘ladi. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 30 - oktyabrda «Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5564-sonli Farmoni qabul qilinib, unga ko‘ra, 2019- yil 1- yanvardan boshlab, ulgurji savdoni amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash va savdo korxonalarini soliqqa tortishning maxsus tartibi; aksiz solig‘i solinadigan tovarlarning ayrim turlarini (avtomobil, o‘simlik yog‘i va boshqalar) sotishdan tushadigan tushumlar hisobini yuritish va undan foydalanishning maxsus tartibi.

- ko‘chma savdo uchun ruxsatnoma olish talabini;

- davlat ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan korxonalar kontragentlari bilan o‘zaro munosabatlarda kechiktirilgan debitorlik qarzlari uchun sanksiyalarni;

- davlat ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan korxonalar bilan shartnomalar bo‘yicha ichki bozorda oldindan 15 foiz to‘lovni amalga oshirishga doir talablari bekor qilindi.

Yangi soliq tizimida norasmiy faoliyatni legalizatsiya qilish bo‘yicha bir qator yangiliklar kiritildi. Jumladan, foyda solig‘i 14 foizdan 12 foizga tushirilib, tadbirkor faqat daromad olsagina to‘lanishi belgilandi.

Norasmiy bandlikni kamaytirish maqsadida ish haqidan 30

foizgacha olinadigan daromad solig'i o'rniga yagona 12 foizlik soliq turi kiritildi va 8 foizlik sug'urta badali umuman bekor qilindi. Biznes elkasida og'ir yuk bo'lib kelayotgan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi.1 shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari ham 30 foizga pasaytirildi.

Bu borada Prezidentimizning 2018- yil 17 apreldagi iqtisodiyot tarmoqlarida hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, debitor-kreditorlik, shu jumladan, byudjet oldidagi qarzlarni qisqartirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan majlis bayoni orqali berilgan topshiriqlardan kelib chiqqanholda 2018- yilda muayyan amaliy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2018- yil mobaynida 1881,1 mlrd. so'm miqdorida mablag' undirilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga (746,7 mlrd. so'm) nisbatan 1134,4 mlrd. so'mga ko'payishiga erishildi. shuningdek, 11,2 mingta qarzdorlarning 2,5 trln. so'm qiymatidagi mol-mulklari, shundan 1441 ta bino va inshoot, 1618 ta transport vositalari va 11063 ta boshqa turdagi mulklari xatlandi. Prezidentimizning 2018- yil 27- iyuldagi PF-5490-sonli Farmoniga muvofiq, 2018- yil 1- aprelga qadar yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxslar, faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llanilgan moliyaviy jarimalar, qat'iy soliq va hisoblangan penyalar mazkur shaxslar o'z faoliyatini tiklasa yoki davlat ro'yxatidan o'tgan hollarda soliq qarzi hisobdan chiqarilishi, 111,6 ming nafar fuqaroning 664,1 mlrd. so'mlik soliq qarzi ular tomonidan 2019 - yil 1- yanvarga qadar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi, faoliyatini tiklashi hisobiga kechilishi belgilandi. Bugungi kunda 27,4 ming nafar fuqarolar tadbirkorlik faoliyatini qayta tiklashi, shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishi hisobiga ulardagi 471,2 mlrd. so'mlik soliq qarzi hisobdan chiqarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishini,

insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash tizimini qo'llash orqali barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etishdan iboratdir.

Bu imkoniyatlar tadbirkorlarning halol ishlashi, ko'proq ish o'rinlari yaratishiga xizmat qilib, ushbu engilliklar Prezidentimiz aytganidek, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish va «yashirin» iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'li bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, korrupsiya faqat bir ko'rinishda namoyon bo'ladigan hodisa bo'lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Korrupsiya shakllari xilma-xil bo'lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste'mol qilib, jamiyat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirishigacha kiradi. Buni chuqur tahlil qilgan holda korrupsiyaning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, qonunlarni o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning keltirib chiqaruvchi holatlarning oldini olish choralarini ko'rish har bir davlat organi ma'sul shaxslarining, fuqaro sifatida qolaversa har birimizning burchimizdir.

Muxtasar xulosa qilib aytganda, xufyona faoliyatni oldini olish va uni ochiq faoliyatga aylantirish mamlakat iqtisodiyotining xavfsizligini ta'minlaydi, barqaror iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi.

### **Asosiy so'z va iboralar**

Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat mahsulotlari sifati, oziq-ovqat sifatini nazorat qilish, talabni ta'minlovchi asosiy tarmoqlar, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, rivojlangan davlatlar tajribasi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi uning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyatini hamda kadrlarini faol va nafaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy-sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligidir.

2. Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik borasidagi strategiyasini puxta ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish milliy iqtisodiyotning eng muhim dastagi bo'lgan korxonalarining barqaror

o'sishi va rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uning xavfsizligiga tahdid soladigan xavf-xatarlarni bilish kerak bo'ladi. Buning uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ifodalaydigan parametrlarni o'rganish va ularni tahlil qilish kerak bo'ladi.

4. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatarlar kelib chiqish manbalariga ko'ra ichki va tashqi tahdidlarga ajratiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan ichki tahdidlar asosan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi.

### **Nazorat savollari**

1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tushunchasining mazmun va mohiyati

2. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash zaruriyati nimadan kelib chiqadi?

3. Kelajakda korxonaning yuqori o'sish va rivojlanish salohiyatini yaratish uchun nimalar qilish kerak bo'ladi?

4. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasining mazmuni nimadan iborat?

5. Korxonaning xo'jalik faoliyatining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tahlili qanday amalga oshiriladi?

## **XIII BOB. MINTAQA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

### **13.1. Mintaqa iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat.**

### **13.2. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.**

### **13.3. O'zbekistonda mintaqani rivojlantirishni davlat tomonidantartibga solishni takomillashtirish.**

*Mintaqaviy iqtisodiyot tushunchasining mazmuni. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik kontseptsiyasining mohiyati. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xorijiy davlatlarning tajribasi.*

*Davlatning mintaqaviy siyosatining mazmuni va uning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati. Davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish tamoyillari va yo'nalishlari. O'zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tendentsiyalari va shu bilan bog'liq muammolar. Hududlar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari amalga oshirilayotgani iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.*

*“2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da mamlakatimizda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari belgilab berilgan. O'zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlari.*

### **13.1. Mintaqa iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat**

“Mintaqa” tushunchasi jahon yoki mamlakat hududining bir qismiga nisbatan qo'llaniladi.

Mintaqa jahon territoriyasining bir qismi sifatida, o'z ichiga geografik, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, etnomadaniy, harbiya va boshqa mezonlar hamda yondashuvlar asosida bir necha mamlakatlarni oladi. Masalan, Sharqiy Yevropa, G'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubiy, Sharqiy Osiyo va boshqa mamlakatlar turkumi, mintaqalari mavjud. Bir alohida olingan

mamlakat o‘z ichida viloyatlar, tuman va shaharlar geografik, iqtisodiy-siyosiy, etnomadaniy, ekologik, axborot va boshqa mezonlar bo‘yicha ma‘muriy hududiy birlik sifatida uning mintaqalarini tashkil etadi. Mintaqa iqtisodiyotining shunday tuzilmalari mavjudki, ular har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotida, mustaqil xo‘jalik yuritishda alohida o‘rin tutadi va o‘zining tabiiy iqlim, geografik joylashuvi, tabiiy mineral va xom ashyo resurslarining zaxiralari, mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlari va sohalarining ham infratuzilmasi miqyosi, aholisining urf-odat va an‘analari, mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuvi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotidagi hissasi, aholi jon boshiga ishlab chiqargan hududiy yalpi mahsuloti kabilar bilan farqlanadi.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

1. Mintaqadagi barcha resurslardan (moddiy, moliyaviy, mehnat) foydalanib, ishlab chiqarishning jadalligi va mutanosibligini ta‘minlash ham shu asosda uning samaradorligini oshirish.

2. Mintaqalarning istiqboldagi rivojlanish sur‘atlarini aniqlash. Bunda mahalliy resurslardan to‘liq foydalanishga e‘tibor berish.

3. Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda keng foydalanish. Buning uchun mintaqada ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashishini ta‘minlovchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, rejalashtirishni yanada demokratlashtirish lozim.

Iqtisodiyotning globallasuvi jahon iqtisodiyoti subyektlari o‘zaro aloqalarining kuchayishi, iqtisodiy sanksiyalar (savdoda kamsitish, ekspansiya, embargo, qamal), huquqiy asosda xalqaro iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish vazifalarini qo‘yadi.

Bugun xalqaro javobgarlik taqiqlar, boshqa davlat huquqlarini buzish, o‘z huquqlarini suiiste‘mol qilish, shuningdek majburiyatlarni bajarmaslikka taalluqlidir.

Mamlakatning ichki holati resurs salohiyatidan foydalanish va xalqaro munosabatlardagi obro‘sini saqlashga bog‘liq. Mamlakat hayoti va faoliyatini bashoratlashning iqtisodiy asosini xo‘jalik

maqsadlari varejalari, moddiy xarajatlar va iqtisodiy faoliyat natijalari tashkil qiladi.

Xavfsizlikning mohiyatini anglashda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv asosiy o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvni amalga oshirish hodisani obyektivlik va subyektivlik, moddiy va ma’naviy jihatlar dialektikasi, uning jamiyat ijtimoiy-madaniy makoniga taalluqligi nuqtai nazaridan tekshirishga imkon beradi.

Xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni, aholining normal hayoti va faoliyatini, jumladan uning ish bilan bandligi, iqtisodiy jihatdan o‘shish imkoniyatini ta’minlovchi rivojlanish darajasida saqlashni bildiradi.

Global (texnologik, moliyaviy, informatsion) tizimlarning jadal rivojlanishi barcha darajalarda migratsiya oqimlarining keskin ko‘payishi bilan kechadi. Ushbu hol inson resurslarini boshqarishning yangi vazifalarini qo‘yadi. Mamlakatlar, ularning guruhlari, alohida mintaqalar o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farq davlatlar ichida va o‘rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy keskinlik bo‘lishini istisno etmaydi.

Jahon taraqqiyotiga xalqaro munosabatlar tizimining jadal o‘zgarishi xosdir. Unda ikki tamoyil ko‘zga tashlanadi:

1) iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik va axborot omillari asosida xalqaro jarayonlarni ko‘p tomonlama boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida ko‘plab davlatlar va ularning integratsiyaviy birlashmalari iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarining mustahkamlanishi;

2) xalqaro hamjamiyatda AQSH yetakchiligidagi rivojlangan mamlakat-larning ustunlik qilishiga asoslangan tuzilmasi yaratilishi;

3) xalqaro munosabatlarning rivojlanishi tabiiy, texnologik va axborotresurslaridan foydalanishda, iqtisodiy afzalliklarni ta’minlash, tovarlarni sotish va kapitalni kiritish bozorlari uchun kurash raqobat bilan kechmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning globalashuvi iqtisodiy jinoyatchilik – kapitalni noqonuniy olib chiqish va «halollash», soliq va boj



manipulyatsiyalari, narkotik moddalar va qurol-yarog'ni qonunga xilof tarzda muomalaga chiqarish uchun sharoit yaratadi.

Bugungi jinoiy vaziyat miqyosi bo'yicha ham, davlatning faoliyatko'rsatishi va xavfsizligiga tahdid solish darajasi bo'yicha ham sifat jihatdan yangicha hodisa. Bu korrupsiya, jinoiy qatlamlar va davlat apparatining birlashib ketishi, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va narkobiznesni o'z ichiga oladigan hodisadir.

*13.1-jadval*

**Mintaqaviy (hududiy) takror ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari<sup>64</sup>**


<b>Ma'muriy usullar</b>	<b>Iqtisodiy usullar</b>
Boshqarish qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan aniq manzilli topshiriqlar berish	Umumiy iqtisodiy qonun-qoidalarga, tamoyillarga tayanadi
Boshqariladigan obyektlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishda boshqarish organining manfaatini ustuvor ravishda ko'zlash	Boshqariladigan obyektlarga bilvosita ta'sir ko'rsatiladi, turli mulkchilik shakllardagi korxonalarining iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi
Qabul qilinadigan qarorlar uchun asosiy mas'uliyat boshqarish organi zimmasida bo'lib, boshqariladigan obyektning huquqlari cheklangan	to'liq mustaqillikka ega bo'lishi, o'z faoliyati va uning oqibatlarini uchun yuqori mas'uliyatli bo'lishi taqozo etiladi
Ma'muriy farmoyishlar, rejalar direktiv xarakterga ega, ularni bajarish majburiy hisoblanib, undan chetlanishga yo'l qo'yilmaydi	Xo'jalik subyektlarini o'zining iqtisodiy manfaati nuqtai nazaridan va iqtisodiy riskni e'tiborga olgan holda muqobil qarorlar tayyorlash va oqilona yechimlar topishga undaydi

Mintaqalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi mintaqaviy iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat maqsadlari mintaqaviy

<sup>64</sup> Абдурахмонов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабоев Ш.Х “Региональная экономика и управление” Учебник. Под ред. Акад. С.С.Гулямова. Т.: Изд-во “Fan va texnologiya”, 2007. 425-427 б.

rivojlanish maqsadlari mintaqaviy rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liqdir. Davlatning mintaqaviy iqtisodiyotga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri aralashishi ma'muriy vositalardan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu usullar davlat hokimiyati kuchiga tayanish, ruxsat berish, man qilish, majburlash choralarini o'z ichiga oladi.

Ma'muriy usullar o'rnatilgan tartib-qoidalarni buzgan ayrim korxonalariga nisbatan majburlash imkoniyatlarini ham ko'zda tutadi. Ma'muriy usullar yordamida mahalliy boshqaruv organlari davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarini tartibga soladi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hududiy tabiiy resurslardan foydalanish hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq masalalarni hal qiladi (13.1-jadval).



*13.1-rasm. Mintaqaviy xavfsizlik tarkibi*<sup>65</sup>

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi hamda milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanuvchi murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Shu jihatdan ham milliy iqtisodiyotning mustaqilligi, barqarorligi,

<sup>65</sup> Абдурахмонов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабоев Ш.Х. "Региональная экономика и управление" Учебник. Под ред. Акад. С.С.Гулямова. Т.: Изд-во "Fan va texnologiya", 2007. 425-427 б.

doimiy yangilanish va o'zini takomillashtirib borishga intilishini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillarmajmui sifatida e'tirof etiladi.

### **13.2. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi**

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ko'zlangan asosiy maqsad asosiy maqsad mamlakat va uning mintaqalari raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish quyidagilarga yo'naltiriladi:

- mamlakat va uning mintaqalarini xalqaro bozorlar bilan integratsiyalshuvini ta'minlash, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini mintaq va hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish, ularning o'zaro aloqadorligi, ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini ta'minlash orqali mamlakat hamda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishgacha erishish;

- mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish;

- mintaqalarda ishlab chiqarish sohalarining raqobatbardoshligini oshirish;

- mintaqalar rivojlanishidagi farqlarni qisqartirish.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda territorial-tarmoq klasterlari muhim rol o'ynaydi. Klasterlarda ba'zi hududlarda ayrim tovarlar, butlovchi qismlarni xom ashyolarni ishlab chiqarish tashkil etiladi. Bunga Asakadagi yengil avtomobillar, ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish tashkil etilganligi misol bo'ladi. Klaster hudud manfaatini korxonalar manfaatini bilan uyg'unlashtiradi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasida ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Bu dasturlarni ishlab chiqishda o'zaro aloqadorlik va davomiylik, resurslarni tejash, infratuzilmaviy ta'minot tamoyillariga asoslaniladi.

Bunday dasturlarni ishlab chiqish va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish modellarini yaratishda SWOT tahlilidan foydalaniladi. Ushbu tahlil asosida mintaqaning, kuchsiz va kuchli tomonlari, imkoniyatlari, tahdid va xavf-xatarlar aniqlanadi. Mintaqani rivojlantirishning turli senariylari ishlab chiqiladi. Inertsion rivojlanish senariysida barcha tendensiyalar amalda saqlanadi. Eksportga yoʻnaltirilgan rivojlanish senariysida eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishlar va ularning salohiyatini rivojlantirish hamda mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirish koʻzda tutiladi. Mobilizatsion rivojlantirish senariysida ichki zahiralari, resurslar, iqtisodiy oʻsish omillari hisobga olinadi va rivojlantirish maqsadida foydalanishga yoʻnaltiriladi.

Mutanosib oʻsish senariysida eksportga yoʻnaltirilgan va ichki resurslarni mobilizatsiya qilish variantlari sintez qilinadi, yaʼni uygʻunlashtiriladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini prognozlashtirish va asoslashda mintaqa iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash vazifalarini ham hal etish koʻzda tutiladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash, raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi mintaqaning oʻzini oʻzi tashkillashtiruvchi, oʻzini-oʻzi boshqaruvchi va oqilona boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va territorial-maʼmuriy birlik sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

### **13.3. Oʻzbekistonda mintaqani rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish**

Oʻzbekiston Respublikasi mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy darajalari va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy hamda tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mintaqalarni rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari iqtisodiy bazasi, mamlakatdagi byudjet tizimiga, tadbirkorlikning rivojlanish

ko‘lamiga, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllari hamda usullariga, tezligi, soliq imtiyozlarini qo‘llash tajribasi, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, moliyaviy resurslar hududning investitsiyaviy va eksport imkoniyatlari, viloyatlararo, tumanlararo va tashqi iqtisodiy aloqalarga, bozor infratuzilmasi obyektlari rivojlanish darajasi, aholining ish bilan bandlik muammolarining xususiyatlari va mintaqadagi ekologik vaziyatga bog‘liq.

Mintaqa rivojlanishini davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibgasolish respublika byudjeti, dotatsiya va subvensiyalar hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihalari orqali amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda:

3. Sanoatni rivojlantirish dasturlari.
4. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni tartibga solish.
5. Mintaqalar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo‘shma korxonalarni tashkil etishni tartibga solish. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish.
6. Mintaqalarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish.

O‘zbekistonda qabul qilingan dasturlarni bajarish va mintaqalarning rivojlanishini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- mintaqalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika hamda mintaqaviy dasturlarni tanlash va ularni amalga oshirishni asoslash, navbatga qo‘yish tizimini shakllantirish;

- respublika va mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, buning uchun mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklarning mas‘uliyatlini oshirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining mintaqaviy jihatlarini kuchaytirish;

- tarmoq dasturlarining mintaqaviy jihatlarini monitoringini tashkil etish;

- mintaqalar va tarmoq imkoniyatlari, zahiralari chuqur o'rganish va hisobga olish asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- dasturlarni amalga oshirish ustidan qat'iy nazoratni kuchaytirish, nazorat tizimini yaratish.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Asosiy so'z va iboralar**

Sanoat tarmog'i, mulkiy munosabatlar, ishlab chiqarish sanoati, tarkibiy o'zgarishlar siyosati, prognostik va dasturiy bosqich, trend tenglamasi.

### **Qisqacha xulosalar**

Oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta'minlash masalasi bevosita milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi paytda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari kishilar hayot faoliyatining muhim tizimi sifatida jiddiy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu muammo o'zining dolzarbligi jihatidan harbiy va umumiqtisodiy xavfsizlik bilan bir qatorda turadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mamlakat suverenitetini, iqtisodiy xavfsizligini va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

### **Nazorat savollari**

1. Oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta'minlashdan maqsad nima?
2. O'zbekistonda oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi qanday chora – tadbirlar amalga oshirildi?
3. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qfy darajada o`rin tutadi?

4. Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida qanday siyosat olib borilmoqda?

## **XIV BOB. MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

**14.1. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning turgan o‘rni va uning manfaatlariga tahdidlar.**

**14.2. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash.**

**14.3. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.**

*Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va muhim yo'nalishlari. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va uni ta'minlash yo'llari. Bojxona tizimini takomillashtirish.*

*Mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da belgilab berilgan. Davlat iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimi va uni takomillashtirish yo'llari.*

### **14.1. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning turgan o‘rni va uning manfaatlariga tahdidlar**

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimoti asosida milliy iqtisodiyotlar o‘rtasida barqaror, har tomonlama o‘zaro aloqadorlikning shakllanishi oqibatida xo‘jalik haayotining xalqaro miqyosda internatsionallashtirishini ifodalaydi. Buning oqibatida iqtisodiy makon vujudga kelmoqda. Ushbu makonda xalqaro tovarlar, xizmatlar, xom ashyo resurslari, moliyaviy mablag‘lar, kapital, ishchi kuchi bozorlari vujudga kelib, ular o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik hamda bog‘liqlik kuchaymoqda. Jahon miqyosida global-texnologik, moliyaviy, axborot, madaniy tizimlar jadal ravishda rivojlanmoqda.

Milliy iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimotiga ko‘ra, ixtisoslashuvi, o‘zining foydali qazilma boyliklari, geografik joylashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro savdo, xalqaro iqtisodiy faoliyatining faolligiga muvofiq jahon iqtisodiy tizimida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish uchun milliy iqtisodiyot xalqaro hamkorlikka ochiq bo‘lishi, ya’ni ochiq iqtisodiyot tavsifiga ega



bo'lishi lozim. Ochiq iqtisodiyotning xususiyatlari va potensial imkoniyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatda bozor mexanizmi va unsurlari raqobat muhiti shakllanishining jadallashuvi;

- jahon xo'jaligi bilan o'zaro aloqada milliy iqtisodiyot an'anaviy tovar ayirboshlashdan tashqari, kapitalni chetga chiqarish va chetdan kiritish, ilmiy-texnikaning kooperatsiyalashuvi, ishlab chiqarish integratsiyasi kabi shakllarda integrallashadi;

- xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirishga asoslangan holda ichki ishlab chiqarish hajmlariga nisbatan milliy daromadning o'sishi;

- xalqaro ayirboshlashning mutanosib iqtisodiy o'sish omili sifatidagi rolining ko'payishi;

- xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirish hisobiga ichki ishlab chiqarish ko'lamiga nisbatan milliy daromadning ko'proq o'sishi.

Iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi, qo'shma korxonalar ko'paya bordi, ichki bozor tovarlar bilan to'la boshladi. Ammo, shu bilan birga, buning mamlakat manfaatlariga zid tomoni ham ko'zga tashlan boshladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning erkinlashtirilishi sharoitida xo'jalik subyektlari faoliyatini nazorat qilish mexanizmining takomillashmaganligi tufayli, bu sohada jinoiy guruhlar, korrupsiya, xufyona iqtisodiyot, narkobiznes, iqtisodiy qaroqchilik ham jonlana boshladi.

Shuningdek, Mamlakat ichki iqtisodiy sohasidagi xavfsizligi tabiiy, texnik-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy hamda boshqa makro va mikroiqtisodiy rivojlanish omillari, ichki immunitet va beqarorlik, tangliklar ta'siridan himoyalanih orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- ilgargi tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalashgan iqtisodiyotning meros qolganligi;
- ko'pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig'imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardosh- ligining pastligi;
- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;
- yuqori darajadagi inflyasiya;
- infratuzilma obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va mustahkam emasligi;
- investitsion faollikning pastligi;
- qonunchilik rivojlanmaganligi, bir qancha iqtisodiy subyektlarning ichki va tashqi bozorda monopol holatda ekanligi g'ayriqonuniy faoliyat ko'rsatishi hamda huquqiy intizomning pastligi.

Shuningdek, ichki tahdidlar ichida xufiyona iqtisodiyot o'ta xavfliligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun unga qarshi kurash iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqazo etiladi:

birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratish;

ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.


Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi;
- mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog'liqligi va boshqalar.


## 14.2. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash

Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashda davlat markaziy o'rin egallaydi.


Mamlakatda “xufiyona iqtisodiyot” darajasining yuqoriligi poraxo'rlilik darajasining ham yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratadi. Umuman, xufiyona iqtisodiyotning ma'lum bir davlat misolida qanchalik darajada rivojlanganligini aniq belgilab bo'lmaydi. Ushbu hodisaning mavjudligi natijasida yuzaga keluvchi bir qator omillar uning taxminiy darajasini mutaxassislar ishtirokida jahon mamlakatlarida mavjud bo'lgan “xufiyona iqtisodiyot”ning ulushini aniqlaydi.



iqtisodiy va ma'muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalgam oshirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko'rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;



boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar tizimida himoyalashni rag'batlantirish rejimlarini ko'zda tutadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni hayotga tatbiq etish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy jihatdan himoyalashni ta'minlash;



iqtisodiyotni yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdor shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdagi faoliyatini uyg'unlashtirish.

### 14.1-rasm. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashdagi davlatning vazifalari<sup>66</sup>

<sup>66</sup> <sup>68</sup>Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

“G‘arb ekspertlarining ta’kidlashicha, mamlakat YAIM ning 40-50 foizini “xufiyona iqtisodiyot” tashkil etgan holat xavfli “bo‘sag‘a” hisoblanadi”. Milliy iqtisodiy tizimi ushbu ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar o‘zini juda og‘ir holatga tushgan, deb hisoblashi lozim. Jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, yashirin iqtisodiyotning hajmi va dinamikasini quyidagi omillar belgilaydi:

- soliq solishning og‘irligi;
- olinadigan daromad miqdori;
- ish vaqtining uzunligi;
- ishsizlik miqyosi;
- davlat sektorining roli.

Mutaxassislarning fikricha, soliq va ijtimoiy to‘lovlarning YAIM ga bo‘lgan nisbati 33 foiz bo‘lsa, bu yashirin iqtisodiyot ko‘payishining keskinnuqtasi hisoblanadi.

Shuningdek, Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlaridan biri sifatida davlat qarzlaridan foydalanadilar, chunki ularning aksariyatida defitsit (taqchil) byudjetga ega bo‘ladilar va ichki investitsiyalar uchun, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qilish, shuningdek tashqi qarzlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarish uchun o‘z mablag‘lari etishmaydi.

Davlat qarzi haqidagi ilmiy tasavvurlar ko‘p jihatdan J. M. Keynes ta’limoti bilan bog‘liq. U byudjet taqchilligi, davlat xarajatlari, umumiy talab, xususiyl jamg‘armalar va ishsizlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganib defitsitli (taqchil) moliyalashtirish siyosatini amalga oshirishni taklif qilgan. Keynes davlat qarzining ikki tomonlama tabiatidan kelib chiqqan. Bir tomondan, davlat qarzi iqtisodiyotga qo‘shimcha yuk bo‘lib tushadi, chunki qarzni qaytarish uchun mamlakat yo soliq yukini oshirishi, yo byudjetning xarajat qismini kamaytirishiga to‘g‘ri keladi. Boshqa tomondan, davlat qarzi mamlakat ichida tovar va xizmatlarga talabni oshiradi, bu bilan iqtisodiy o‘shishga yordam beradi, ya’ni u iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning samarali vositasi hisoblanadi.

Davlat qarzi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga ham xuddi

shunday ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, u iqtisodiy tahdid hisoblanadi, boshqa tomondan – aksincha, jamiyat va insonning xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashadi.

Binobarin, davlat qarzi inson shaxsining turmush darajasi, sifati va rivojlanishi hamda iqtisodiy o'sishga ham barqarorlashtiruvchi, ham beqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun milliy iqtisodiyotning jahon hamjamiyati bilan takror ishlab chiqarish jarayonlariga to'sqinlik qilmaydigan hamda tahdidlar xavfini keskin kamaytirishga imkoniyat beradigan o'zaro uyg'unlashish sharoitlarini yaratishga intiladi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim. Buning uchun mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xom ashyo, oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni, mahsulotlarni eksport qilishga yo'naltirilgan mahsulotga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Shundagina mamlakatning iqtisodiy ahvoli jahon bozorlaridagi konyuktura o'zgarishlariga, resurs baholarining o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi. Shu boisdan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat strategiyasi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar qilishga, sanoat, moliya va bank tizimini mustahkamlashga qaratiladi. Buning uchun, texnologik jihatdan orqada qolishga barham berish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish lozim bo'ladi.

### **14.3. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash**

Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilash hisoblanadi. Chunki ijtimoiy sohada, hayotda keskinlikning vujudga kelishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi uchun xavf-xatar tug'dirishi shubhasizdir.

Aholi turmush darajasi barqaror o'smoqda. Shu boisdan O'zbekistonda aholi turmush darajasiga va hayot sharoitlari bilan

bog'liq ijtimoiy tahdidlar birmuncha kamaydi. Ammo aholi turmush darajasini oshirishda ma'lum muammolarni hal etish taqozo etiladi. Jumladan, turli iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishchi va xizmatchilarning o'rtacha ish haqlari keskin farqlanmoqda. Qishloq xo'jaligida band bo'lgan xodimlar ish haqlari o'rtacha respublika darajasiga nisbatan 60foizdan ortiqni tashkil etib, sanoatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan bir necha barobarga kam. Bunday tafovut keskin bo'lib, ma'lum iqtisodiy tahdidni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalarida, ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at sohalaridagi xodimlarning o'rtacha oylik ish haqlari o'rtacha respublika darajasining 60-80 foiz ini tashkil etmoqda. Vaholanki, ushbu tarmoqlarda xodimlarning bilim, kasb-malaka darajalari boshqa tarmoqlardagilarga nisbatan ancha yuqoridir.

Yana bir muhim ijtimoiy tahdid real ishsizlik hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi ichida ishsizlik darajasi 10 foiz dan oshib ketsa, u iqtisodiy tahdidni vujudga keltiradi. Ishsizlikning vujudga kelishi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan biridir. Ammo ishsizlik tufayli kambag'allik, hatto qashshoqlik, jinoyatchilik, narkomaniya va shunga o'xshash ijtimoiy ofatlar, ijtimoiy norozilikning kelib chiqishi tabiiydir.

Ushbu iqtisodiy tahdidning yana bir xususiyati respublika qishloq xo'jaligida ortiqcha bandlikning mavjudligi hisoblanadi. Chunki bu mehnat resurslaridan ekstensiv, unumsiz foydalanishga, oxir-oqibatda ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi. Mamlakat ichki xavfsizligiga tahdidlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholi, shu jumladan, mehnatga layoqatli aholi, mehnat resurslari sonining o'sish sur'atlarining asosiy fondlar yaratayotgan yangi o'rinlarning o'sish sur'atlariga nisbatan orqada qolishi, kelgusida ishsizlar daromad olish imkoniyatiga ega bo'lmagan kishilar sonining o'sishiga olib kelishi mumkin;

- ish haqining aholi, shu jumladan, yollanma ishchi va ishchi xizmatchilarning oila daromadlaridagi ulushining kamayishi, ish haqining rag'batlantiruvchanligining pasayishi;

- aholi tarkibida nafaqa yoshidagi keksa kishilar ulushining ko‘payishi kelgusida ularning ijtimoiy ijtimoiy ta‘minoti masalalarida muammolar tug‘diradi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillarning ko‘payishi;

- soliq yukining og‘irligi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishigato‘sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga kishilar o‘rtasidagi noformal, iqtisodiy aloqa va munosabatlar ham tahdid soladi. Bu tahdidda sabab bo‘luvchi holatlarni kassa nazoratidan tashqaridagi hisob-kitoblar, maishiy xizmat ko‘rsatish, uy-joylarni ijaraga berishga naqd pulni noformal munosabat va aloqalarda ko‘rish mumkin.

Xufyona iqtisodiyot sektorining mavjudligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun korxonalar xo‘jalik moliyaviy faoliyati, jismoniy shaxslarning daromad olishi va xarajatlari to‘g‘risidagi haqqoniy axborotlarni to‘plash, tahlil qilish asosida iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni keng qamrovli nazorat qilish tizimini shakllantirish lozim. Bunda davlat boshqa organlar, nodavlat tashkilotlar, uyushmalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda aloqadorlik, hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi kerak bo‘ladi.

Har bir mamlakat uchun obyektiv ravishda real va imkoniyatdagi iqtisodiy tahdidlar mavjud. Iqtisodiy tahdidlar deganda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi hamda davlat, mintaqalar, korxonalar, oila, inson shaxsining iqtisodiy manfaatlarini cheklovchi hodisa va jarayonlar tushuniladi.

Iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan tahdidlar ichki va tashqi turlarga bo‘linadi. Odatda eng katta xavf ichki tahdidlardan kelib chiqadi deb hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik uchun chegaraviy qiymatlar, ya‘ni eng katta va eng kichik kattaliklar (qiymatlar) muhim rol o‘ynaydi, chunki ularga rioya etmaslik iqtisodiyotning barbod etilishi xavfiga ega bo‘lib, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.

## **Asosiy soʻz va iboralar**

Xufiyona iqtisodiyot, kuzatilmagan iqtisod, qora iqtisodiyot, korruptsiya, soliqdan qochish, narkobiznes, terrorizm iqtisodiyoti, kulrang iqtisodiyot, iqtisodiy jinoyatchilik, norasmiy iqtisodiyot

## **Qisqacha xulosalar**

1. Jahon xoʻjaligi rivojlanishining hozirgi bosqichida xufiyona iqtisodiyot global muammoga aylanib bormoqda. Xufiyona iqtisodiyot bozor xoʻjaligining obyektiv va doimo mavjud boʻluvchi tizimi boʻlib hisoblanadi. Bunday tizim doirasida faoliyat olib boruvchi xoʻjalik subyektlari raqobatning umumqabul qilingan qoidalaridan tashqarida oʻz manfaatlaridan kelib chiqqan holda qonunga, ish yuritish etikasiga, biznes va hokimiyat oʻrtasidagi oʻyin qoidalariga, jamiyatning maʼnaviyahloqiy meʼyorlariga zid boʻlgan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar.

2. Xufiyona iqtisodiyot turli, jumladan, antropologik, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, maʼnaviy siyosiy omillar taʼsirida vujudga keladi. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini baholashga boʻlgan turli yondashuvlar mavjud.

## **Nazorat savollari**

1. Nima uchun xufiyona iqtisodiyot global muammoga aylandi?
2. Qaysi mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari katta boʻladi?
3. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarining kengayishiga nimalar sabab boʻladi?
4. Oʻzbekistonda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari qanday?
5. Xufiyona iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?



## **XV BOB. TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH**

**15.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlariga tahdidlar.**

**15.2. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq xavfsizlik va mamlakatning raqobatbardoshligi.**

**15.3. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda milliy manfaatlarni himoyalash va iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari.**

*Xalqaro taqsimot va ayirboshlashda milliy manfaatlar. "Erkin xalqaro savdo" tamoyili. Tashqi iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasining mazmuni. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq tahdidlar.*

*Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga qo'shilish bilan bog'liq xavflar. O'zbekistonning Xalqaro Savdo Tashkilotiga kirishining ijobiy va salbiy tomonlari. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirishning ijobiy va salbiy oqibatlari.*

*Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlari. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va uni ta'minlash yo'llari. Bojxona tizimini takomillashtirish.*

*"2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"da mamlakatimizda tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari belgilab berilgan. Davlatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimi va uni takomillashtirish yo'llari.*

### **15.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlariga tahdidlar**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatning kuchayishi, o'zaro hisob-kitob va transport aloqalarining murakkablashuvi, kerakli tajribaning kamligi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning yetishmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy

vazifa chet mamlakatlar bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investitsiya kabi sohalarda o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdan iborat.

Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalgam oshirish lozim bo'ladi:

- eksportning optimal tarkibini shakllantirish. Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rish lozim bo'ladi;

- mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish, ularda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, injenering, lizingni rivojlantirish;

- chet el mamlakatlari, ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo tartiblariga erishish;

- mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamonaviy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalar, axborot va capital bozorlariga chiqishlari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

- kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamda qarzdor davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro valyuta moliyaviy muammolarni tartibga solish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda belgilangan huquqiy me'yor va normalar asos bo'lib xizmat qiladi. Bu normalar, o'z navbatida, tovar va xizmatlar, intellektual mehnat natijalari, shuningdek, jismoniy hamda huquqiy shaxslarning mamlakatlararo harakat yo'nalishlari, shakllari, usullari, shartlarini belgilab beradi.

Iqtisodiy tartibga solish usullari bojxona poshina (to'lov)lari,

yig'implari, qo'shilga qiymat solig'i, aksizlaridan iborat.

Huquqiy-ma'muriy usullar litsenziyalash, kvotalash, tovar sifatini sertifikatsiyalash, ayrim tovarlar eksporti va importiga davlat monopoliyasini o'rnatish, shuningdek, bojxona chegaralari orqali tovarlar, kapitallar va xizmatlarning o'tib turishi bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy **xavfsizligiga tahdidlarni belgilovchi omillar monitoringi.**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi- ning eng muhim elementlari iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni belgilovchi omillarni monitoring qilish va prognozlashdir.

Monitoring iqtisodiyot xavfsizligi ko'rsatkichlarining o'zgarishini kuzatishlarning tezkor axborot-tahliliy tizimi bo'lib jiddiy tarmoqlararo nomutanosibliklar mavjud bo'lgan va resurslar, (avvalo, moliyaviy resurslar) nihoyatda taqchil, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar juda o'zgaruvchan va beqaror bo'lgan sharoitdagi iqtisodiyotning o'tish holati uchun katta ahamiyatga ega.

Bu hol statistik kuzatish obyektlarini qamrab olishning kompleksliligi, chuqurligi va shakllari, axborotning sifati va tezkorligi borasida davlat statistikasiga qo'yiladigan talablarning kuchayib borishini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligi nuqtai nazaridan iqtisodiyot va jamiyatni xolisona va har tomonlama monitoring qilish iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining aniq miqdor qiymatlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak.

Agar iqtisodiy xavfsizlik tavsifi taraflarning bir-biriga zid kelmasligini o'z ichiga olsa, iqtisodiy xavfsizlikning tobora aniqroq toifalari uning ziddiyatli mohiyatidan kelib chiqishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning ziddiyatli xususiyati to'g'risida dastlabki ta'riflar muammoni o'rganishning muhim bosqichi ekanini tushunish muhimdir.<sup>67</sup>

SHaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga bo'ladigan

---

<sup>67</sup> Определение сущности экономической безопасности в. и. Лячин, А. И. Смирнов.

ichki va tashqi tahdidlarni belgilovchi omillarni monitoring qilish uchun tashkiliy-axborot bazasini yaratish birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi.

## **15.2. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq xavfsizlik va mamlakatning raqobatbardoshligi**

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy kapitalning kirib kelishi O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurish, istiqbolli, zamonaviy tarmoqlarni vujudga keltirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish, tovarlarni eksport qilishning yangi bozorlarini, xo'jalik subyektlarini boshqarishni zamonaviy menejment asosida qayta tashkil etish va takomillashtirishga, yangi ishchi o'rinlarini yaratishga imkon beradi. Kapital kirituvchi xorijiy investorning investitsiyalardan kutilayotgan daromadi capital evaziga olish mumkin bo'lgan foiz stavkasidan yuqori darajada bo'lishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlikka xorijiy investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xamkorliklar bevosita ta'sir ko'rsatadi.<sup>68</sup>

Ayni paytda, jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni iqtisodiyotning istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlariga joylashtirish mexanizmlarini optimallashtirish, investitsiya loyihalarini umummilliy va mintaqaviy darajada venchurli moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish vositalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, investitsiya faoliyati samaradorligini baholash uslubiyati va mazkur yo'nalishda risk-menejment tizimini takomillashtirish masalalari borasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Investitsion xavfsizlik – davlat organlarining amaldagi qonunchilik bazasi doirasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan

---

<sup>68</sup> Общая теория национальной безопасности: Учебник / Под общ. ред. А.А. Прохожева. – М.: Изд-во РАГС, 2002. — 320 с.

investitsion jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir va u milliy iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini va barqaror o'sishini belgilaydi.<sup>69</sup>

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyat yurituvchi umummilliy va mintaqaviy venchur kompaniyalari faoliyati va ularni rivojlantirish strategiyalari tahlili venchurli investitsiyalash bugungi kunda yuqori texnologiyalarga asoslangan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy manbai ekanligi aniqlandi. Bunda venchur kompaniyalari kapitali rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan davlat va mahalliy byudjet mablag'lari (50 foizdan yuqori qismi) va xususiy investorlar mablag'lari hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekistonda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish maqsadida iqtisodiyot-ni jadal rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga mazkur sohadagi faoliyat samaradorligi, avvalo, mavjud resurslardan yetarli darajada samarali foydalanmaslik, investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va rentabelligi masalalarining chuqur tadqiq etilmaganligi kabi muammolar mavjud. Qayd etilgan masalalar mamlakatning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish»<sup>70</sup> kabi vazifalar belgilab

---

<sup>69</sup> Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие (книга четвертая) Институт экономики РАН. – М.: ЗАО «Финста-тинформ», 2002. – 128 с.

<sup>70</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги 4947-сон фармони. 2017

berildi. Chunki, investitsiyalarning muhim manbai hisoblangan «Xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha ishlar qanday ahvolda ekani tanqidiy tahlilni talab etadi. Bunday investitsiyalarning ulushi 30 foizga tushib qolgan»<sup>71</sup> edi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Mavjud qonunchilikka binoan xorijiy investorlar o‘z investitsiyalarini respublika hududida quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirish imkoniyatiga ega:

- davlat mulkini xususiylashtirish orqali yangidan tashkil etilayotgan korxonalar, banklar va boshqa tashkilotlarda o‘z ulushini qo‘yishi, ya’ni qo‘shma korxonani tashkil etish yoki butunlay korxonani sotib olish;

- mulkni, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni xarid etish;

- mustaqil yoki milliy xo‘jalik subyektlari ishtirokida xususiylashtirilayotgan davlat obyektlariga mulkiy huquqni sotib olish, ya’ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini xarid qilish.

Shuni aytish joizki, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bir qatorda, ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan tahdidlarning oldini olish, iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Chunki, xorijiy investorlar tomonidan insofsiz xatti- harakatlar sodir etilishi mumkin.

Investitsiya zavfsizligi har qanday davlatning umumiy iqtisodiy xavfsizligining muhim qismidir. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarning ijobiy dinamikasi iqtisodiyotni barqaror va bosqichma-bosqichrivojlantirishi mumkin.<sup>72</sup>

Mamlakat korxonalarining sanoat mahsulotiga talabni oshirish uchun ushbu jarayonda davlatning asosiy o‘rin egallashidan kelib chiqish zarur. Davlat avvalo imtiyozlar, subsidiyalar berish, soliqlarni

---

Йил 7 февраль.

<sup>71</sup> Мирзиёев Ш.М. Танкидий-таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавбгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т., 2017. — 27- б.

<sup>72</sup> Россия в цифрах. 2008: Крат. стат сб. Росстат. М.: 2008. – 457 с.

kamaytirish kabilar orqali mamlakat uskunalari va texnologiyalariga talabning ortishi uchun sharoit yaratishi lozim. Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish zarur. Masalan, Buyuk Britaniyada investitsiya loyihalarini amalga oshirishlari uchun korxonalariga davlat kafolatlari beriladigan o'nga yaqin dasturlar mavjud.

Respublikamizda investitsiya faoliyatida quyidagi muammolar hammavjudligini ta'kidlash zarur:

YAIMga nisbatan investitsiyalar salmog'ining xalqaro belgilanganme'yorlarga nisbatan pastligi;

Mamlakat hududlarining investitsion jozibadorligi va faolligi talabdarajasida emasligi;

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarining to'liq joriy etilmaganligi;

Mamlakat hududlarida samarali investitsiya siyosatining olib borilmasligi va hokazo.


Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishning amaldagi holatiga baho berishda dastlab investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi va dinamikasi tahliliga e'tibor qaratsak, investitsiya faoliyatining asosiy vositasi sifatida korxonalarining xususiy mablag'lari va aholi ixtiyorida moliyaviy resurslarni e'tirof etish mumkin.

Xorijiy davlatlar tajribasi va iqtisodiyotimizning milliy xususiyatidan kelib chiqib, innovatsion va ilmiy sig'imli investitsiya loyihalari, ayniqsa, startaplarni moliyalashtirish uchun venchur fondlarini tuzilmoqda. Hududlarda venchur fondlarini mahalliy hokimiyat organlari, tijorat banklari, investorlar va aholi mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Ushbu fondlar moliyaviy resurslaridan hududlar investitsiya salohiyatini hisobga olgan holda foydalanish lozim. Shuningdek, respublikamizda venchur moliyalashtirishga talab yuqori bo'lib, ushbu riskli investitsiyalash usuli rivojlanmaganligi tufayli mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun xorijiy venchur fondlarini faol jalb etish zarur.

### **15.3. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda milliy manfaatlarni himoyalashva iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari**

Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotning shakllanishi va uning rivojlanish istiqbollari ustuvor darajada jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishiga bog'liqdir.

Jahon xufiyona iqtisodiyotida bank va korporativ sohalardagi moliya-viy iqtisodiy jinoyatlar, narkobiznes, fohishalik, «tirik tovar bilan» savdo qilish, pornobiznes, noqonuniy qurol savdosi, «iflos pullarni yuvish», korrupsiya yetakchilik qiladi. Masalan, XX asr oxirida xalqaro hamjamiyat «global muammo» deb atagan korrupsiyadek murakkab va jiddiy muammo xalqaro uchrashuvlarda muhokama mavzuini tashkil qildi.



#### **15.1-rasm. Mamlakatimizni xalqaro savdo tizimiga integratsiyalshuvining shart-sharoitlarini yaratish<sup>73</sup>**

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikka milliy-davlat manfaatlari-ning amalga oshirilishida izchillikni, xo'jalik yurituvchi subyekt-larning

<sup>73</sup> Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.



barqaror faoliyatini, aholining hayoti va faoliyati uchun normal sharoitni saqlash qobiliyati sifatida qarash lozim. Milliy iqtisodiy xavfsizlik xavf-xatar hamda iqtisodiy manfaatlarga bo‘ladigan tahdidlarga qarshilik ko‘rsatish tizimini yaratish borasidagi harakatlar majmuidir.

Hozirgi davrda O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida dunyodagi 150 dan ortiq davlat tan oldi. O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda faol ishtirok eta boshladi. Jumladan, O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaromoliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a‘zo bo‘lganligi quvonarli holdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirdi va mazkur tashkilot doirasida dunyo dengiz portlari, mamlakatlararo transport tarmoqlari, jahon tovar va capital bozorlariga chiqish imkoniyatini beradigan xalqaro yo‘llarni qurish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

Iqtisodiyot bir qator hollarda nafaqat milliy, balki xalqaro xususiyatga ham ega bo‘lganligi sababli (korrupsiya, pullarni «yuvish», terrorizmni moliyalashtirish kabi hollarda), mazkur hodisalarga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslarini tashkil etuvchi bir qator hujjatlarga e‘tibor qaratish lozim. Ularga, birinchi navbatda, BMTning quyidagi hujjatlari kiradi:

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyat- chilikka qarshi 2000- yil 15- noyabr konvensiyasi;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi 2003- yil 31- oktyabr konvensiyasi;
- Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi 1999- yil 9- dekabr xalqaro konvensiyasi.

Evropa Kengashi va Evropa Ittifoqining hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- Evropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi jinoiy

javobgarlik to'g'ri-sidagi konvensiyasi (Strasburg, 1999 - yil 27- yanvar);

– Pullarni «yuvish»ga qarshi Parij deklaratsiyasi (Evropa Ittifoqi-ning pullarni «yuvish»ga qarshi kurash bo'yicha parlament konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi, 2002- yil 8- fevral).

Muammoning butun dunyoda dolzarbligini anglash korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro tizimi yaratilishiga turtki berdi. Ushbu sohada xalqaro-huquqiy mexanizmning shakllanishi korrupsiya-ga qarshi kurashning aniq muammolari bo'yicha aktlardan, davlat va jamiyat hayotining ayrim sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy vosita va vazifalardan tortib to BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha universal konvensiya-sigacha (2003- yil 31- oktyabr) bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi.

MDH hujjatlari orasida «Korrupsiyaga qarshi siyosatga doir qonunchilik asoslari to'g'risida»gi model qonunini ta'kidlab o'tish lozim (2003- yil 15- noyabrda MDH PAning XXII yalpi majlisida qabul qilingan).

Noqonuniy daromadlarni legallashtirish (oshkoralashtirish)ga qarshi kurash choralari amalga oshirish uchun pullarni «yuvish» muammolari bo'yicha maxsus moliyaviy komissiya (FATF) tashkil etilgan edi. Uning tarkibiga Evropa, SHimoliy Amerika va Osiyoning asosiy moliyaviy markazlari vakillari kirgan. Ushbu hukumatlararo tashkilot 1990- yilda «Pullarni yuvish muammolari bo'yicha qirqta tavsiya»ni tayyorlab, jahon jamoatchiligiga taklif etgan. 1996-yilda bu tavsiyalar o'tgan yillar mobaynida to'plangan tajribani hamda pullarni «yuvish» sohasida yuz bergan o'zgarish-larni hisobga olish uchun qayta ko'rib chiqildi. 2002-yilda FATFning tavsiyalari terrorizmni moliyalashtirishga bog'liq operatsiyalarni aniqlash bilan shug'ullanuvchi moliyaviy muassasalar uchun qabul qilindi.

Barqaror iqtisodiy o'sish va xavfsizlikni ta'minlash hamda jahon xo'jalik tizimida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi makroiqtisodiy shart-sharoitlar yaratilishi lozim bo'ladi:

- yillik inflyatsiya darajasini 3-4 foizga tushirish;
- iqtisodiyotdagi soliq yukini yanada pasaytirishga erishish;

- milliy valyuta barqarorligini ta'minlash;
- bank tizimi va iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni davom ettirish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish asosida iqtisodiyotda davlat ulushini 15-18 foizgacha kamaytirish, xususiylashtirilgan korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga erishish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60foizga yetkazish;
- erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirib boorish orqali iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini uyg'unlashtirish;
- intitutsional islohotlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotni ma'muriy asosda boshqarishdan voz kechib, uni iqtisodiy vosita va dastaklar orqali tartibga solish mexanizmini shakllantirish;
- milliy iqtisodiyotning jahon xo'jalik tizimida mustahkam o'rin tutishiga erishish, milliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish;
- mamlakat eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va mustahkamlash.

Jahon taraqqiyotiga xalqaro munosabatlar tizimining jadal o'zgarishi xosdir. Unda ikki tamoyil ko'zga tashlanadi:

1) iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik va axborot omillari asosida xalqaro jarayonlarni ko'p tomonlama boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida ko'plab davlatlar va ularning integratsiyaviy birlashmalari iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarining mustahkamlanishi;

2) xalqaro hamjamiyatda AQSH yetakchiligidagi rivojlangan mamlakatlarning ustunlik qilishiga asoslangan tuzilmasi yaratilishi;

3) xalqaro munosabatlarning rivojlanishi tabiiy, texnologik va axborot resurslaridan foydalanishda, iqtisodiy afzalliklarni

ta'minlash, tovarlarni sotish va kapitalni kiritish bozorlari uchun kurash raqobat bilan kechmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi iqtisodiy jinoyatchilik – kapitalni noqonuniy olib chiqish va «halolash», soliq va boj manipulyasiyalari, narkotik moddalar va qurol-yarog'ni qonunga xilof tarzda muomalaga chiqarish uchun sharoit yaratadi.

Bugungi jinoiy vaziyat miqyosi bo'yicha ham, davlatning faoliyat ko'rsatishi va xavfsizligiga tahdid solish darajasi bo'yicha ham sifat jihatdan yangicha hodisa. Bu korrupsiya, jinoiy qatlamlar va davlat apparatining birlashib ketishi, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va narkobiznesni o'z ichiga oladigan hodisadir.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi hamda milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanuvchi murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Shu jihatdan ham milliy iqtisodiyotning mustaqilligi, barqarorligi, doimiy yangilanish va o'zini takomillashtirib borishga intilishini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmui sifatida e'tirof etiladi.

Davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari va davlat xizmatchilarining ish haqi davlatga eng malakali mutaxassislariga ega bo'lish uchun kurashda iqtisodiyotning xususiy sektori bilan raqobat qilishga imkon berishi kerak. Amaldor mehnatiga yuqori darajada haq to'lansa, u ishini yo'qotish xavfi bilan bog'liq muqobil xarajatlar xizmat mavqeidagi g'ayriqonuniy foydalanish orqali oladigan foydasidan ortiq bo'ladi. Ya'ni «biznes»ning ushbu turi salbiy foyda keltirib, o'zining jozibadorligini yo'qotgan bo'lar edi. Ammo ko'pchilik korrupsiyani eng quyi darajaga yetkazish uchun amaldorlar ish haqini ancha oshirishga to'g'ri keladi, deb hisoblaydilar. Boshqacha aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashning faqat shu yo'lidan foydalanadigan bo'lsa, bu mamlakat byudjetiga qimmatiga tushishi va qo'yilgan maqsadga erishilmasligi mumkin. Hatto ish haqi yuqori bo'lgan taqdirda ham, barcha amaldorlar korrupsiya evaziga uni ko'paytirishdan voz kechmagan hollar mavjud.

Control Risks Group konsalting firmasining xabar berishicha, xalqaro kompaniyalarning deyarli yarmi raqobatchilari pora berish

yordamida ularning biznesini sindirganligi tufayli oxirgi besh yil ichida boshqa mamlakatlarga investitsiya kiritishdan voz kechishlariga to'g'ri kelgan. Korrupsiyaning yuqori darajadali investorlarga solinadigan qo'shimcha soliqqa tenglashtiriladi. BMTning huquqiy maslahatchisi Xans Korell korrupsiya – universal hodisa, ammo u rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa, halokatlidir, deb hisoblaydi: «Korrupsiya huquqiy jamiyat qurish, investitsiyalarni jalb qilish va aholining, ayniqsa, uning kambag'al qatlamlarining farovonligini oshirish borasida barcha harakatlarini yo'qqa chiqaradi». «Transparency International» firmasining sobiq bosh direktori Piter Aygen fikricha, «odamlar ushbu muammoning qanchalik muhimligi va unga qarshi kurash qanchalik qiyinligini tushuna boshladilar. Xalqaro aksilkorrupsiyaviy koalitsiyaga o'xshash nimadir paydo bo'ldi».

Shu bilan birga, konvensiya qabul qilinishining umuman korrupsiyaga qarshi kurash uchun katta ahamiyatga egaligini ta'kidlagan bir qator qashshoq mamlakatlar vakillari har holda Konvensiyada nazarda tutilgan maqsadlardan biri bo'lgan avvalgi davlat boshliqlari xorijga olib chiqib ketgan pul mablag'larini qaytarish mumkinligiga shubha bildirmoqdalar. Shunchalik ko'p yuridik to'siqlar mavjudki, qashshoq mamlakatlarda ularni engish uchun mablag'lari yetmaydi. Ayni vaqtda konvensiya qabul qilinganligi sababli mansabdor shaxslar, birinchi navbatda, korrupsiya keng yoyilgan mamlakatlarning mansabdor shaxslariga ta'sir ko'rsatishining yangi siyosiy dastagi paydo bo'layotganligini tan olmaslik mumkin emas. Endilikda jahon jamoatchiligining fikrini birlashtirish va harakatlarni dunyoning bunday mamlakatlari hukumatlariga qarshi muvofiqlashtirish mumkin bo'ladi. Ularning oldilarida faqat bitta yo'l – korrupsiyaga qarshi kurashni iloji boricha kuchaytirish yo'li turibdi. Shu jihatdan qaraganda Xitoyning «Jenmin Jibao» gazetasida bildirgan fikr e'tiborga loyiq. Unda mamlakat BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasini imzolagani haqida xabar e'lon qilingan bo'lib, odil sudlov organlarida ishlayotgan korrupsionerlarga qarshi kurashda erishilgan katta yutuqlar haqida

ma'lumotlar keltirilgan. Endi ko'p davlatlar, birinchi navbatda, Konvensiyani imzolagan, ratifikatsiya qilgan davlatlar xalqaro hamjamiyat oldida korrupsiya bilan bog'liq vaziyat haqida oshkora hisobot berishiga to'g'ri keladi.

BMT Bosh kotibining korrupsiyaga qarshi konvensiyaning imzolanishiga bag'ishlangan yuqori darajadagi siyosiy konferensiya ochilishi munosabati bilan yuborgan maktubida aytilishicha, korrupsiya ko'pchilik mamlakatlarda qashshoqlikning chuqurlashtirishga olib keladigan va hammamizga daxldor bo'lgan va kutilmagan oqibatlariga olib keladigan ofat. Ushbu Konvensiyaning imzolanishi bu zulmga qarshikurashimizda erishilgan yirik g'alabadir. Har yili bu kun BMTning korrupsiyaga qarshi kurashga bag'ishlangan kuni sifatida nishonlanadi. Konvensiyada korrupsiyani yo'q qilish uchun davlatlarning o'zlari mas'ul ekanligi aniq belgilangan. Konvensiyada ularga barcha mamlakatlar o'zlarining davlat boshqaruvi rejimlarini va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi institutlarini mustahkamlashlarda foydalanishlari mumkin bo'lgan keng qamrovli standartlar paketi taklif qilingan.

Unga ko'ra, hukumatlar o'zlarining tasarrufida (yurisdiksiyasida) bo'lib qolgan va korrupsiya yo'li bilan qonunga xilof tarzda olingan mablag'larni ular o'g'irlangan mamlakatlarga qaytarishga majburdirlar. Ushbu qoida jiddiy g'alabadir. U korrupsiyalashgan elitasi yangi hukumatlar o'z mamlakatlariga yetkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy zararni tiklash uchun nihoyatda muhtoj bo'lgan milliardlab dollarni g'ayriqonuniy ravishda o'zlashtirgan ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilishga imkon beradi.

BMTning sobiq bosh kotibi Kofi Anan barcha mamlakatlarni ushbu Konvensiyani tezroq ratifikatsiya qilishga chaqirgan edi. Chunki uning har tomonlama bajarilishi kambag'allar va himoyalanganlar uchun korrupsiya-lashgan amaldorlarning va o'z manfaatlari yo'lida har qanday vositalardan qaytmaydigan chayqovchilarning ochko'zligidan himoyani ta'minlashga yordam beradi. U bugungi jadal o'zgarayotgan dunyoda kambag'allar yanada

qashshoqlashmasligiga yordam beradi va rivojlanish sohasidagi muhim to‘siqlarni bartaraf etib, bu Ming yillik deklaratsiyasida qo‘yilgan maqsadlarga erishish va butun dunyodagi millionlab odamlarning hayotini yaxshilashga yordam berishi mumkin.

### **Asosiy so‘z va iboralar**

Korrupsiya, demokratik tamoyillar, lobbizm, korrupsiya shakllari, xodimlarning motivatsiyasi, monitoring.

### **Qisqacha xulosalar**

Taraqqiy etgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot yo‘lida to‘siq rolini o‘ynaydigan samarali institutsional mexanizm shakllangan. Bunda davlat markaziy bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi. Dunyo tajribasidan ma‘lumki, qaysi mamlakatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar yuqori bo‘lsa, shu mamlakatda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari kam bo‘ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Xufiyona iqtisodiyotning qanday shakllari mavjud?
2. Xufiyona iqtisodiyotning shakllanishiga qanday sabablar ta‘sir ko‘rsatadi?
3. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini baholashga bo‘lgan yondashuvlar to‘g‘risida gapirib bering.
4. Xufiyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan yondashuvlar.

## **XVI BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSIYALAR OMILI**

### **16.1. Innovatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni**

### **16.2. Innovatsion tavakkallarni o'lchashlar**

### **16.3. Davlatning innovatsion siyosati va iqtisodiy xavfsizlik**

*Innovatsiyalar va innovatsion iqtisodiyot. Innovatsion sohada iqtisodiy xavfsizlik va unga tahdidlar. Innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishda investitsiya xavfsizligi mezonlari. Innovatsion iqtisodiyotga o'tishda xavfsizlik mezonlari. O'zbekistonda innovatsion siyosat va uning asosiy yo'nalishlari. Mamlakatning innovatsion sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari*

### **16.1. Innovatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni**

Innovatsiyalar (inglizcha *innovatsion*) – yangiliklar; tovarlarni konstruksiyalash, ishlab chiqarish yoki o'tkazishga bo'lgan har qanday yangicha yondashuv bo'lib, buning natijasida investor va uning kompaniyasi raqobatchilarga qaraganda ustunlikni qo'lga kiritadi. Patentlardan foydalanib muvaffaqiyat qozongan novator vaqtinchalik monopoliyani ta'minlashi mumkin. Innovatsiyalar bozorning amaliyligini oshiradi, chunki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot sifatini oshiradi. Innovatsiyalar – uzoq muddatli va qimmat turadigan jarayon. Masalan, kserokopiya olish jarayoni 1948-yilda ixtiro qilingan, keyingi o'n yil mobaynida texnik ishlanmalar amalga oshirilgan va faqat shundan keyingina bozorda uning birinchi tijorat ko'rinishi paydo bo'lgan. Innovatsiyalar, kengroq ma'noda, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, innovatsion xavfsizlik mustaqil iqtisodiy xavfsizlik sifatida qaralmasligini ko'rish mumkin, Innovatsion jarayonlarning xavfsizligi tekshirilib, uni ta'minlashning yetarlicha mexanizmi va ilmiy-nazariy asoslari yo'qligi ma'lum bo'lgan.<sup>74</sup>

---

<sup>74</sup> Илякова И.Е. Институциональные условия инновационного развития экономики: региональный аспект / И.Е. Илякова // Регионология. – 2014. – №3. – С. 55-63.



Bugungi kunda mamlakatlarda eng dolzarb masalalar iqtisodiy xavfsizlik va mehnat bozorining raqobatbardoshligidir. Bular esa bevosita yangi innovatsiyalar bilan bog‘liqdir. Mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga uning jahon bozorida innovatsiyalarni joriy etishi ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zan biz “Biz oldin har doim shu tariqa bajarganmizku...?” yoki “Biz hammasini an’anaviy tarzda bajaryapmizku..?” kabi savollar yangi innovatsion g‘oyalarga to‘sqinlik qiladi. Yangi innovatsiyalarni joriy etish murakkab jarayon. Biroq, innovatsiyalar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>75</sup>

Aytilgan fikrlardan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida innovatsiyalarning mazmuni va zamonaviy shakllarini uning amal qilish xususiyatlarini chuqur o‘rganish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bazisli innovatsiyalar texnika (texnologiya)ning yangi avlodlari asosida yotuvchi ilmiy kashfiyotlar va yirik ixtirolarga asoslangan. Bazisli innovatsiyalar yangi texnologik uklad shakllanishi uchun asos hisoblanadi va uning tuzilishini qayd etadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda hukmronlik qilayotgan hozirgi zamon 5-texnologik ukladining tuzilishini quyidagilar belgilaydi:

– mikroelektronika, biotexnologiya va informatika (5-texnologik ukladning genetik yadrosi);

– moslashuvchan texnologiyalar va robototexnika, noan’anaviy energetika, kompozitlar va keramika, kam chiqitli va chiqitsiz ekologik toza texnologiyalar, kompyuterlar, telekommunikatsiyalar, Internet, transportning mutlaqo yangi turlari, kosmik texnologiyalar va akvamadaniyat;

– xizmat ko‘rsatish, tibbiyot, maorif, fan, boshqaruvning noishlab chiqarish sohalaridagi texnik tizim va texnologiyalarning mutlaqo yangi turlari, maishiy radioelektronika.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda mahsulotga oid, texnologik va tashkiliy-boshqaruv yangiliklarini yaratish, ishlab chiqarishda

---

<sup>75</sup> Getman O. "Innovations as a key of economic security for labor market balancing" 2016, page 78.

o‘zlashtirish va bozorga chiqarish borasidagi maqsadli faoliyat bo‘lmish innovatsion faollik jiddiy ahamiyatga ega. Innovatsion faollik davlat va korxonalar innovatsion siyosatining markazidir, chunki iqtisodiy o‘shish aholi turmush darajasi va sifatini oshirishning sharti hisoblanadi. Umuman, milliy iqtisodiyot rivojlanishining sur‘atlari hamda ayrim tarmoq va korxonalarning raqobatbardoshligi innovatsion faollikka bog‘liqdir.

Makrodarajada innovatsion faollik mamlakatning iqtisodiy va ilmiy- texnikaviy salohiyati, jamiyatning ma‘naviy holati, uning milliy innovatsion doktrinani, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot strategiyasini ifodalashga, innovatsion siyosat yo‘nalishlari va shakllarini belgilashga, resurslarni uni bajarishga yo‘naltirishga qodirligiga bog‘liq.

Belgilangan muammolarni o‘rganishning jiddiy ilmiy salohiyatiga qaramasdan, milliy iqtisodiyotning innovatsion xavfsizligini har tomonlama o‘rganishga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan, innovatsion xavfsizlikning xarakteri va mazmuni hamda milliy iqtisodiy xavfsizlik tarkibida uning o‘rni va roli alohida baholanmagan.<sup>76</sup>

Mezo va mikrodarajalarda innovatsion faollik innovatsion faoliyatni boshqarishda innovatsion strategiyani tanlash, ishlab chiqarish tizimlari- ning moslashuvchanligi, resurslarni qo‘llashdagi harakatchanlikka bog‘liqdir.

Iqtisodiy xavfsizlik ko‘p jihatdan davlat manfaatlarini, milliy kapital va milliy hamjamiyatni ilmiy, texnologik va tashkiliy-boshqaruv yangiliklarini yaratish, ishlab chiqarishda o‘zlashtirish va bozorga chiqarish sohalarida amalga oshirishga qaratilgan innovatsion siyosatga bog‘liq.

Innovatsion siyosatning obyektlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) sohasi;
- innovatsion faoliyat;

---

<sup>76</sup> Инвестиционная деятельность: учеб. пособие для вузов / под ред. Г.П. Подшиваленко, Н.В. Ковалевой. – М.: КноРус, 2006. – 421 с.

– ilmiy-texnikaviy yangiliklarning o‘zi.

Innovatsion siyosatning subyektlari quyidagilardan iborat:

- ijroiya hokimiyat;
- qonunchilik hokimiyati;
- sanoat va moliyaviy birlashmalar;
- ilmiy jamoatchilik;
- jamoat tashkilotlari va kasaba uyushmalari.

Innovatsion siyosatning mohiyatini tushunishning uchta tipi ajratiladi:

- sistemali tushunish – fan funksiyasini amalga oshirish vositasi;
- geosiyosiy tushunish – strategik milliy maqsadlarga erishish (dunyoda muayyan sohada yetakchilik qilish, yuksak rivojlangan mamlakatlar guruhiga kirish, mintaqada hukmronlik qilish) vositasi;
- iqtisodiy tushunish – fan funksiyasini boylik ishlab chiqarish vositasi sifatida bajarish usuli.

Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri va uning tarkibiy qismi iqtisodiy rivojlanishning investitsion xavfsizligi bo‘lib, investitsion tavakkalchiliklarni oldini olishning yo‘llari va usullarini va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va innovatsion iqtisodga o‘tish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan asosiy kapitalni tiklash va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan qulay investitsiya muhitini yaratishga yo‘naltirilgan.<sup>77</sup>

Iqtisodiy xavfsizlik quyidagilarga asoslanadigan texnik-texnologik rivojlanishning eng samarali yo‘nalish va yo‘llarini tanlash sifatida tushuniladigan innovatsion strategiya bilan chambarchas bog‘liqdir:

- uzoq muddatli bashoratlash;
- tashqi va ichki omillarni qiyoslash;
- resurslardagi cheklovlarni hisobga olish.

Innovatsion strategiyani shakllantirish va amalga oshirish umuman milliy iqtisodiyotning, jumladan mintaqalar va

---

<sup>77</sup> Нарышкин С.Е. Инвестиционная безопасность как фактор устойчивого экономического развития / С.Е. Нарышкин // Вопросы экономики. – 2010. – №5. – С. 16-25.

korxonalarining iqtisodiy o‘sishi uchun eng muhim shart-sharoitdir.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda innovatsion strategiyaning oltita asosiy tipi ajratiladi:

– hujumkor innovatsion strategiya (uning maqsadi – bozorda yetakchilikni qo‘lga kiritish; kiritilgan yangiliklarga yuqori darajadagi xarajatlar qilinishiga erishish);

– muhofazaga oid innovatsion strategiya (uning maqsadi – yetakchi bilan juda yaqin bo‘lish, uning yangiliklarini qabul qilish va ularga muayyan modifikatsiyalar (o‘zgartishlar) kiritish, yangiliklarga yetakchiga qaraganda biroz kamroq xarajatlar sarflash);

– imitatsion innovatsion strategiya yetakchilarning dastlabki ikkita guruhi ortidan borishni bildiradi;

– tobe innovatsion strategiya (uning maqsadi innovator korxonalar uchun subkontrakt ishlar bajarish, shuningdek yangiliklarga ozroq xarajatlar sarflash orqali o‘zini saqlab qolishdan iborat);

– an’anaviy innovatsion strategiya (uning maqsadi – konservativ texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘zini saqlab qolishni ta’minlash, yangiliklarga sarflanadigan xarajatlar eng kam darajada);

– opportunistik innovatsion strategiya (uning maqsadi – bozordagi bo‘sh joyni egallash; yangiliklarga sarflanadigan xarajatlar taktik fikr- lardan kelib chiqadi).

Innovatsion strategiya yo sof tarzda, yo mamlakatda va ayrim korxonada aralash ko‘rinishda qo‘llanishi mumkin. Innovatsion strategiya tanlanishining o‘zi mamlakatning iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyati, xo‘jalik ukladini, mavjud an‘analari, milliy doktrinasi, jumladan geosiyosiy yo‘nalishi, izzat-nafsi kabilar bilan bog‘liq.

## **16.2. Iqtisodiy xavfsizlikda innovatsion tavakkallarni o‘lchashlar**

Innovatsion strategiyada tavakkallar (xatarlar muammosi) alohida ahamiyatga ega.

Umumiy innovatsion tavakkalni baholash va innovatsion faoliyatni tahlil qilish asosida uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash

ishlarini bir necha bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchi bosqichda Venchur loyihasining amalga oshirilishi olib kelishi mumkin bo'lgan yakuniy harakatlarning rivojlanishidagi ehtimol tutilgan ko'ngilsiz variantlar ro'yxati tuziladi. Umumiy innovatsion tavakkalning ayrim miqdor xususiyatlarini o'lchash tizimi quyidagilarni baholashni taqozo etadi:

- atrof iqtisodiy muhitning joriy va bashoratlanadigan holati;
- mamlakat, mintaqa, tarmoqdagi umumiy innovatsion muhit;
- davlat va tarmoqdagi (iqtisodiy, fiskal-monetar va ijtimoiy- siyosiy) xatarlar;
- bashoratlash qiyin bo'lgan omillar voqealar rivojining turlivariantlari uchun muqobil qiymatlar (znacheniya) sifatida;
- iqtisodiy vaziyatning ehtimol tutilgan o'zgarishlariga nisbatan Venchur loyihasining barqarorligi.

Innovatsion tavakkallar tahlili.

Ikkinchi bosqichda dastlabki qoidalar, tavakkal omillari va ushbu omillarning kombinatsiyalarining yig'indisi aniqlanadi (ushbu yig'indini amalga oshirish imkoniyati keyingi tahlilda inobatga olinadi) hamda mazkur vaziyatlarning amalga oshish imkoniyatlari belgilanadi.

Umumiy innovatsion tavakkal indikatorlari va matematik modelnitanlash.

Uchinchi bosqichda Venchur loyihasi umumiy innovatsion tavakkalining indikatorlari tanlanadi.

Venchur loyihasini amalga oshirishda tavakkalli voqealarning rivojlanishini tahlil qilish

To'rtinchi bosqichda har bir dastlabki vaziyat uchun Venchur loyihasi amalga oshirilganida voqealar rivojining ssenariylari, ko'ngilsiz hodisa- larning rivojlanish zanjiri va innovatsion tavakkal asosiy xususiyatlarining tahlili aniqlanadi.

Innovatsion tavakkallarni boshqarish.

Beshinchi bosqichda avvalgi bosqichlar natijalari asosida Venchur loyiha uchun maqbul bo'lgan innovatsion tavakkal darajasini yo'l qo'ysa bo'ladigan darajagacha pasaytirish hamda innovatsion tavakkallarni boshqarish usullari ishlab chiqiladi.

Har bir mamlakatda yangiliklarga sarflanadigan xarajatlar kapital qo'yilmalar hajmidan kelib chiqib belgilanadi. Texnologik innovatsiyalarga eng yaqin turadigani – ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish, mavjud sex va obyektlarni qayta qurishga sarflanadigan investitsiyalar bo'lib, ular ishlab chiqarishni takomillashtirish hamda uning texnik-iqtisodiy darajasini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot asosida oshirish bilan bog'liqdir.

Umuman olganda, innovatsion xavfsizlik iqtisodiy xavfsizlikning kichik tizimi sifatida qaraladi. Iqtisodiy natijalarni o'sishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning sifati va aholi turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan asosiy kapital va intellektual salohiyat inson kapitalini iqtisodiy jihatdan xavfsiz yangilash va takomillashtirishni ta'minlaydi.<sup>78</sup>

Hozirgi zamon iqtisodiyotida ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirishga barcha investitsiyalarning yarmidan ortig'i yo'naltirilmoqda. Biroq xarajatlarning bu darajasi ishlab chiqarish apparatini yoppasiga qayta qurollantirish uchun yetarli emas. Investitsiya faolligi ham, investitsiyalarning tuzilishi ham innovatsion sikllarning (o'rta muddatli, uzoq muddatli, juda uzoq muddatli) fazalari bilan bog'liq. Innovatsion to'lqin iqtisodiyotning jonlanish fazasida o'zi-ning cho'qqisiga erishadi. Biroq inqiroz va depressiya vaqtida innovatsion faollik keskin pasayib ketadi. Yangi texnologik uklad yaratilganida, ayniqsa keyingi avlodlar uchun moddiy-texnikaviy baza bo'lgan ishlab chiqarishning yangi texnologik usuliga o'tish davrida innovatsion to'lqin kattalashadi. Innovatsion sikllar ilmiy va iqtisodiy sikllar bilan uzviydir. Iqtisodiyotning ko'tarilish va barqarorlashish

---

<sup>78</sup> Козлова К., Федонина О.В. Экономический потенциал и экономическое ядро региона (на примере Республики Мордовия) / К. Козлова, О.В. Федонина // Контентус. – 2014. – №12 (29). – С. 37-45.

fazalarida unchalik katta bo'lmagan kapital qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgan hamda kichikroq tavakkallarni inobatga oladigan yaxshilovchi yangiliklar ustun ahamiyat kasb etadi. Bu davrda davlatning innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashi kamayadi.

Ilmiy va innovatsion faoliyatning rivojlanishida salbiy tomonlar kuzatilishi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- fanning kadrlar salohiyati yomonlashmoqda;
- ilmiy infratuzilma zavol topmoqda.

2000-2016- yillarda milliy iqtisodiyotning nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishiga asosan neft, gaz, metallar va boshqa resurslarni ko'paytirish evaziga erishilmoqda. Bunday o'sish, bir tomondan, uzoq muddatli istiqbolda barqaror bo'la olmaydi, boshqa tomondan – u iqtisodiyotning texnologik jihatdan ilg'or tarmoqlarida ilmiy salohiyatni amalga oshirish uchun yuqori talabni rag'batlantirmaydi, buning natijasida O'zbekistonning aksariyat tarmoqlari texnologik jihatdan orqada qolgan.

MDH mamlakatlari iqtisodiyoti innovatsion salohiyatining buzilishi xususiylashtirishdan boshlandi. U innovatsion omilni butunlay inobatga olmadi va mamlakat sanoatining innovatsion salohiyati asta-sekin barbod bo'lishiga olib keldi.

### **16.3. Davlatning innovatsion siyosati va iqtisodiy xavfsizlik**

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda Davlatning innovatsion siyosati iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy siyosatning muhim elementi bo'lib, mintaqalar, mamlakat va davlatlararo munosabatlar darajasidagi bazisli innovatsiyalarning asosiy yo'nalishini hamda mazkur yo'nalishlarni amalga oshirish mexanizmini belgilab beradi.

Innovatsion jihatdan ustun yo'nalishlarni ishlab chiqish quyidagilarga asoslanadi:

- uzoq muddatli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy bashoratlar;
- ushbu ustuvor yo'nalishlarni innovatsion dasturlar va normativ hujjatlarda qayd etish;
- ustuvor bazisli innovatsiyalar hamda ularni amalga oshiruvchi davlat innovatsion dasturlarini davlat tomonidan qo'llab-

quvvatlash;

- kichik innovatsion biznesni qo‘llab-quvvatlash;
- innovatsion faoliyatning qonunchilik bazasini yaratish.

Davlat innovatsion siyosatining roli va ahamiyati texnologik inqiroz- lar, yangi texnologik ukladga o‘tish davrida, ya’ni bazisli innovatsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda eski texnikalar, eski texnologik ukladni saqlab qolishga intilayotgan monopoliyalarning ta’sirini tiyib turish maqsadida antimonopol xususiyatga ega bo‘lgan qonunchilikni qo‘llash nihoyatda zarur bo‘lgan vaqtda o‘sib boradi.

Investitsiyalar va iqtisodiy dinamikalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari tizimli aloqalar mavjud: real iqtisodiy faoliyatga investitsiyalarning o‘sishi iqtisodiy o‘shishga yordam beradi va investitsiyalarning pasayishi iqtisodiy o‘shishning pasayishiga olib kelishi mumkin.<sup>79</sup>

O‘zbekistonning innovatsion siyosati. Mamlakatimizning strategik innovatsion siyosati texnologik inqirozni (degradatsiyani) eliminatsiya qilish- ga, 5-texnologik ukladni o‘zlashtirishga, innovatsion faollikni oshirishga, mamlakatlarning yagona (umumiy) innovatsion siyosatini shakllantirishga qaratilgan.

Mamlakatimizdagi iqtisodiyotni isloh qilish innovatsion siyosatga bir xil ta’sir ko‘rsatmadi.

Bir tomondan, korxonalar va institutlarning xo‘jalik mustaqilligiga erishishi, raqobatning rivojlanishi, bozorlarning ochiqligi munosabati bilan innovatsiyalarni tijorat asosiga o‘tkazish uchun rag‘batlar yuzaga kelmoqda. ITTKI (NIOKR)ni tanlov asosida moliyalashtiruvchi turli fond- lar (davlat, xususiy, Venchur, xorijiy fondlar) tizimi ko‘rinishidagi yangi institutsional mexanizm rivojlanishi boshlandi.

Boshqa tomondan, 2000-2016 yillarda mamlakat innovatsion jarayonni boshqarish muammosi yanada keskinlashgan edi:

- boshqaruvning ma’muriy dastaklari susaydi;
- muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar kamaydi;

---

<sup>79</sup> Кормишкин Е.Д. Инновационная безопасность как условие эффективного функционирования региональной инновационной системы / Е.Д. Кормишкин, О.С. Саушева // Региональная теория и практика. – 2013. – №34. – С. 2-8.



- tarmoq fani qisqardi va natijada yangi ilmiy ishlanmalarni joriy etishqiyinlashdi;
- tashqi va ichki «aqlar oqimi» natijasida ilmiy institutlarning kadrlar va moddiy salohiyati yomonlashdi;
- fan xodimlarining maqomi (obro‘si) pasaydi;
- asbob-uskunalarning moddiy jihatdan eskirishi chegaraviy qiymatiga etdi va h.k.

Shunday qilib, O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi ma‘muriy va idoraviy to‘siqlarni eliminatsiyalash hamda innovatsion jarayon subyektlarining xo‘jalik sohasidagi mustaqilligini ta‘minlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Ta‘kidlash lozimki, ushbu to‘siqlar o‘rniga xo‘jalik yurituvchi subyekt-larning innovatsion faolligini ancha susaytiradigan boshqalari keldi. Ularning ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

- mamlakat iqtisodiyotining aksariyat subyektlarida strategik motivlar(motivatsiya)ning yo‘qligi;
- iqtisodiyot uchun jiddiy resurs cheklovlarining yuzaga kelganligi;
- qadriyatlarning almashishi tufayli inson faoliyatida kreativ tarkibiyqismning pasayishi.

Yuqoridagilar tufayli hozirgi vaqtda mamlakatimizda innovatsion sektorning quyidagi muammolari birinchi o‘ringa chiqmoqda:

- innovatsiyalar bozorining «shaffof emasligi»ni eliminatsiya qilish, ya’ni texnologiyalar transfertining norasmiy usullarini tugatish, shuningdek moliyaviy-huquqiy munosabatlarning murakkabligi;
- innovatsion jarayonlar subyektlarining aloqasini ta‘minlovchi kom- munikatsiya kanallarining rivojlanishi;
- innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning ixtisoslashgan vosita-larini yaratish.

Yuqorida keltirilgan muammolar o‘z ichiga «innovatsion bozor infra- tuzilmasi» terminini qamrab oladi. Bu termin innovatsiyalarni yaratish davomida fan yutuqlariga asoslangan mahsulot ishlab chiqaruvchilari va iste‘molchilarining samarali hamkorligini moddiy

va tashkiliy ta'minlash jihatdan qamrab oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar va mexanizmlar majmuini hamda fan yutuqlariga asoslangan mahsulotning keyinchalik iqtisodiyotda tarqatilishini bildiradi.

Innovatsion infratuzilmaning quyidagi funksional kichik tizimlari ajratiladi:

- moliyaviy – fondlarning turli tiplari (byudjet, Venchur, sug'urta, investitsiyaviy, shuningdek boshqa moliyaviy institutlar);

- ishlab chiqarish-texnologik (yoki moddiy) – texnoparklar, investitsion-texnologik markazlar, biznes-inkubatorlar, tarnsfert markazlari, texnologiyalar markazlari va sh.k.

Axborotga oid – o'z ma'lumotlar va bilimlar bazalari hamda axborot olish markazlari, shuningdek tahliliy, statistik, axborot va shu kabi markazlar (ya'ni xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar);

- kadrlarga oid – ilmiy va innovatsion menejment, texnologik audit, marketing kabi sohalarda kadrlar tayyorlaydigan va qayta tayyorlaydigan ta'lim muassasalari;

- ekspert-konsalting – intellektual mulk, standartlashtirish, sertifikat- lashtirish muammolari bo'yicha xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar, shuningdek umumiy va ayrim sohalarda (moliya, investitsiyalar, marketing, boshqaruv kabilar)ga ixtisoslashgan konsalting markazlari.

MDH mamlakatlari fan yutuqlariga asoslanish va innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari orasida o'rinlari quvonarli emas.

Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, yirik kompaniyalar hozirgi vaqtda mamlakatda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning 15–20 foiz ini moliyalashtirishga qaratishi lozim. Shu bois davlat innovatsion siyosati yirik kompaniyalarni rivojlantirishga qaratilmog'i kerak.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishning industrial tipidan innovatsion tipiga o'ta boshladilar. Innovatsion iqtisodiyotda uchta asosiy jihat ajratiladi:

– innovatsiyalarga ham milliy iqtisodiyotda, ham umuman jahon iqtisodiyotida talab mavjud;

– innovatsion sohadagi bozor muvaffaqiyatsizliklari davlat hokimiyatidan innovatsion siklni tartibga solishni talab etmoqda;

– inson kapitali nafaqat qo‘shimcha mahsulot manbai, balki innovatsion daromad subyekti bo‘lib ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyot – iqtisodiy munosabatlarning yangi tipi bo‘lib, xorijiy amaliyotning ko‘rsatishicha, uni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi:

– innovatsion jarayonni ta‘minlovchi intellektual va texnologik salohiyat;

– yangi ijtimoiy guruhlarning innovatsion tuzilishiga jalb etilgan ishtirokchilarning ko‘payishi;

– rivojlanishning innovatsion tipiga yo‘naltirilgan institutsional tizim;

– aksariyat subyektlarning (xo‘jalik yurituvchi, jismoniy shaxslar, umuman milliy innovatsion tizining) innovatsiyalarga ehtiyoji.

Umuman olganda, innovatsion rivojlanishning 2000-2016- yillarda sekin kechgani davlat innovatsion siyosatining strategiyasi noaniq ekanligi bilan bog‘liq edi. Bu siyosat davlatning innovatsion jarayonni ta‘minlashdagi, innovatsion sohadagi norma ijodkorligini rivojlantirishdagi roli va o‘rnini belgilab berishi kerak va h.k.

MDH mamlakatlari, jumladan O‘zbekistonda ham innovatsion jarayonlarni tashkil qilish faqat davlat tomonidan moliyalashtirishga asoslangan edi, biznes esa innovatsion loyihalarda ishtirok etmasdi, hisob.

Innovatsion jarayonlarga asosiy fondlarni amortizatsiya qilish borasi- dagi davlat siyosati ta‘sir ko‘rsatadi. Asosiy kapitalga kiritilgan mablag‘- larni tezlashtirilgan holda qaytarish amortizatsion imtiyozlarni rag‘bat- lantiradi. Ularning roli esa turlicha baholanadi. Rivojlangan mamlakatlarda amortizatsiya mexanizmi ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Aksincha, rivojlanayotgan mamlakatlarda uning roli

ancha ortib bormoqda, chunki ularda amortizatsion imtiyozlarning rag‘batlantiruvchi samarasi kuchayib bormoqda.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda mamlakatimiz sanoatida ham mavjud bo‘lgan vaziyat amortizatsiya normasining yuqori darajada bo‘lishini talab etmoqda. Tezlashtirilgan amortizatsiya amaliyoti rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. Masalan, Buyuk Britaniyada axborot uskunalari uchun u ishlatilayotgan birinchi yilning o‘zidayoq 100 foizli amortizatsion ro‘yxatdan chiqarish tizimi amal qiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash masalasini ishlab chiqarish darajasiga zamonaviy nazariy va uslubiy yondashuvlar iqtisodiyotni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishning tizimli asoslariga yondashgan.<sup>80</sup>

Amortizatsion imtiyozlar makroiqtisodiy boshqaruvning muhim vositasidir. Buning ustiga, ushbu imtiyozlar tarmoqqa mansub bo‘lishi hamda ishlab chiqaruvchilarning muayyan guruhiga emas, balki ularni kim, qaerda va qachon ishlab chiqarganidan qat‘i nazar, muayyan turdagi mahsulotlarga taalluqli bo‘lishi muhimdir. Masalan, Rossiyada innovatsion siyosat modellari haqidagi iqtisodiy adabiyotlarida ushbu masala muhokama qilinayotganida innovatsiyalarni rag‘batlantirish tizimining ikkita mexanizmi ajratiladi: amortizatsiya mexanizmi (yoki Yapon) hamda innovatsion (yoki Chili) mexanizmi. Birinchi modelda texnologik va mahsuldor innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi institutsional doiralar va shablonlarni shakllantirishga urg‘u beriladi, ikkinchi model davlatning innovatsion ishlab chiqarish korxonalarini «etishtirishi», so‘ngra ushbu loyihalarni xususiy sektorga berishidan kelib chiqadi. Ushbu modellar o‘rtasidagi farq shundaki, Yapon modelida – talabga, Chili modelida esa taklifga ta‘sir ko‘rsatish nazarda tutiladi. Ayrim rossiyalik olimlar Rossiya uchun Yapon tajribasi maqbulroq deb hisoblaydilar. Ular hukumat amalga oshirishi lozim bo‘lgan tadbirlarning uchta yo‘nalishini taklif qiladilar:

---

<sup>80</sup> Кучумов А.В. Обеспечение экономической безопасности в инвестиционной сфере России: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05 / Кучумов А.В. – М., 2007. – 135 с.

- maxsus, ya'ni ishlab chiqarish va iste'molni osonlashtiradigan innovatsion tovar va xizmatlarni joriy etish;
- milliy iqtisodiyot uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tovar va xizmatlar iste'molchilarining muayyan toifalariga maxsus majburiyatlar joriy etish;
- ustuvor deb hisoblanuvchi tovar va xizmatlarning sifatiga standartlashtirish va nazorat tizimini joriy etish.

Umumjahon iqtisodiy forumi tomonidan har yili chop etiladigan mamlakatlar reytingining 2016 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning raqobatbardoshlik darajasi, ta'lim, fan va ishlab chiqarish, korrupsiya darajasi, xususiy mulkning muhofaza etilishi, marketingning rivojlanish darajasi bo'yicha pozitsiyasi quvonarli emas.

Mamlakatimiz fanining tuzilishi jahon standartlariga to'g'ri keladi. Biroq milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati kam. Ta'lim iqtisodiyotdan orqada qolgan. Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar ulushi juda kam. Ayni vaqtda IHRT mamlakatlari bo'yicha bu indikator 80 foizga etadi. Mamlakatimizda intellektual mulk bozori deyarli mavjud emas. Mamlakatda innovatsion tizim yaratish zarur. Ayni vaqtda O'zbekiston Hukumati asta-sekin o'zining iqtisodiyotni boshqarishdagi ishtirokini kamaytirmoqda. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning hozirgi amaliyoti ularda davlat «tungi soqchi» (mirshab) emasligini, balki iqtisodiyotni faol boshqarayotganligini ko'rsatmoqda. Milliy iqtisodiyotning vazifalarini «bozorning ko'rinmas qo'li» emas, balki aynan davlat belgilashi lozim. Iqtisodiyot qanday bo'lishi kerakligini bozor emas, davlat belgilashi kerak. Aynan davlat qonunchilik va huquqiy normalar orqali butun jamiyat manfaatlari uchun bozor iqtisodiyotidagi o'yin qoidasini belgilaydi, zero biznes o'z-o'zicha tarkibiy islohotlar qilishga, nomutanosibliklarni bartaraf etishga, iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni tekislashga qodir emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017- yilning 22- dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: «Ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo

Ulug‘bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o‘qitiladigan maxsus maktablar tashkiletildi.

Oliy ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda oliy ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta‘lim muassasalari soni 159 taga, hududlardagi filiallar 87 taga, xorijiy universitetlar va ularning filiallari 30 taga yetdi. Shular qatorida Olmaliq shahrida Moskva po‘lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQSHning Vebster universitetining filiallarini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlarga erishilganini ta‘kidlash lozim. Oliy ta‘lim muassasalarida iqtisodiyotning real sektoridagi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo‘limlar ochildi.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimi takomillashtirildi, moddiy- texnik bazasi mustahkamlandi, uning tarkibida bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati tiklandi. Ko‘p yillik tanaffusdan so‘ng Fanlar akademiyasiga saylov o‘tkazilib, o‘zining ilmiy ishlari bilan mamlakatimiz va xalqaro miqyosda nom qozongan iste‘dodli olimlar akademik degan yuksak sharafiga sazovor bo‘ldilar. Endi barchamiz Fanlar akademiyasidan yangi ilmiy ishlanmalar, istiqbolli tadqiqotlar yaratish bo‘yicha amaliy natijalar kutib qolamiz.

Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko‘zda tutmoqdamiz. Ya‘ni O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart››lugin vazifa etib belgilagan edi.

### **Asosiy so‘z va iboralar**

Legallashtirish, xufyona kapital, soliq, korrupsioner, yalpi ichki mahsulot, pul yuvish, gangster, tovlamachilik, giyohvandlik, mafiya, psixotrop moddalar, terrorizm, sex, veksel, offshor, integratsiya, deklaratsiya, bazel qo‘mitasi.

### **Qisqacha xulosalar**

Korrupsiya faqat bir ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan hodisa

bo'lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Korrupsiya shakllari xilma-xil bo'lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste'mol qilib, jamiyat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirishigacha kiradi.

### **Nazorat savollari**

1. "Korrupsiya" iborasi nimani anglatadi?
2. Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari nimada?
3. Korrupsiya va jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlari nimalardan iborat?

## GLOSSARIY

<b>Atamaning o‘zbek tilidagi nomlanishi</b>	<b>Atamaning rus tilidagi nomlanishi</b>	<b>Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi</b>	<b>Atamaning ma’nosi</b>
<b>Iqtisodiyot</b>	<b>Экономика</b>	<b>Economy</b>	mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab ijtimoiy tizim.
<b>Iqtisodiy faoliyat</b>	<b>Экономическая деятельность</b>	<b>Economic activity</b>	cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog‘liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
<b>Iqtisodiy xavfsizlik</b>	<b>Экономическая безопасность</b>	<b>Economic security</b>	iqtisodiy kategoriya bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarining himoyalangan holatini ifodalaydi.



<b>Iqtisodiy resurslar</b>	<b>Экономические ресурсы</b>	<b>Economic resources</b>	tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.
<b>Investitsiya</b>	<b>Инвестиция</b>	<b>The investment</b>	foyda olish maqsadida sarmoyani biror korxonaga uzoq muddatli sarflash.
<b>Milliy xavfsizlik</b>	<b>Национальная безопасность</b>	<b>National security</b>	Manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi.
<b>Biznes</b>	<b>Бизнес</b>	<b>Business</b>	Tadbirkorlik faoliyati yoki insonlarning foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.
<b>Litsenziya</b>	<b>Лицензия</b>	<b>The licence</b>	davlat organlarining chet elga mol chiqarishga yoki chet eldan mol keltirishga ruxsati.
<b>Moliya bozori</b>	<b>Финансовый рынок</b>	<b>The financial market</b>	moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlardir.
<b>Moliyaviy biznes</b>	<b>Финансовый бизнес</b>	<b>The financial business</b>	tijorat faoliyatining alohida turi bo'lib, savdo-sotiq obyekti bo'lib alohida xususiyatga ega bo'lgan tovar-pul, valyuta, qimmatbaho qog'ozlar (aktsiya, obligatsiya, veksell)

			va boshqalar) hisoblanadi.
<b>Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik</b>	<b>Интернациональная экономическая безопасность</b>	<b>International economic security</b>	har bir davlat, ya'ni dunyo hamjamiyati a'zosining o'z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta'minlangandagi holati.
<b>Xususiy tadbirkorlik</b>	<b>Частное предпринимательство</b>	<b>Private business</b>	“O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi Nizom” ga muvofiq xususiy tadbirkorlik alohida bir kishi yoki kishilar guruhi tomonidan shaxsiy daromad yoki foyda olish uchun o‘z mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida, yollanma mehnatni jalb qilgan holda amalga oshiriluvchi tashabbuskor xo‘jalik faoliyatini anglatadi.
<b>Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi</b>	<b>Экономическая безопасность предприятия</b>	<b>Economic security of company</b>	ma'muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy va injener - texnik chora - tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavf - xatarlardan himoyalanganlik holati.
<b>Iqtisodiy o‘shish</b>	<b>Экономический рост</b>	<b>Economic growth</b>	mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga yildan-yilga barqaror o‘shib borish jarayoni.

<b>Globallashuv</b>	<b>Глобализация</b>	<b>Globalization</b>	iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o'tish davrining mahsuli bo'lib, jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayon.
<b>Terror</b>	<b>Террор</b>	<b>Terror</b>	(lotincha "terror") "qo'rqinch", "dahshat" ma'nosini anglatadi.
<b>Terrorizm</b>	<b>Терроризм</b>	<b>Terrorism</b>	terrorni amalga oshirish
<b>Siyosiy terrorizm</b>	<b>Политический терроризм</b>	<b>Political terrorism</b>	siyosiy arboblarga, ular o'tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar
<b>Iqtisodiy sohadagi terrorizm</b>	<b>Терроризм в экономической сфере</b>	<b>Terrorism in economy</b>	Terroristlarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta'sir o'tkazishi
<b>Xufyona iqtisodiyot</b>	<b>Теневая экономика</b>	<b>Undercover economy</b>	bu jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning harajati. Alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi.
<b>Rasmiy iqtisodiyot</b>	<b>Официальная экономика</b>	<b>Official economy</b>	bu davlat tomonidan kuzatiladigan va nazorat qilinishi mumkin bo'lgan

			iqtisodiyot.
<b>Korrupsiya</b>	<b>Коррупция</b>	<b>Corruption</b>	lotincha (corruptio) soʻzidan olingan boʻlib, buzilish degan maʼnoni anglatadi. korrupsiya - xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning koʻrinishidir.
<b>Iqtisodiy xavfsizliknin gmezonni</b>	<b>Критерия Экономическая безопасность</b>	<b>Criteria of economic security</b>	iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy xolatni baholash.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. Normativ - huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

#### 1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 80-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2019 yil 30 dekabr. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: **Qisqacha xulosalar:** Globallashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o‘tish davrining mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Globallashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqa darajasida ham eng muhim.

3. O‘zbekiston Respublikasi O‘RQ-598-sonli «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 2019 yil 25 dekabr. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: <https://lex.uz>.

4. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-537-sonli «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonuni. 2019 yil 10 may. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: <https://lex.uz>.

5. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-630-sonli «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020 yil 24 iyul. – T.: 2020. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: <https://lex.uz>.

#### 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: <https://lex.uz>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21

sentyabridagi «2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirishning strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5544-sonli Farmoni. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: <https://lex.uz>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 maydagi «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3698-sonli Qarori. 2018. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: <https://lex.uz>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi «Investitsion va infratuzilmaviy loyihalari ro‘yxatini shakllantirish to‘g‘risida»gi PQ-3507-sonli Qarori. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: <https://lex.uz>.

### **3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalari**

10. Mirziyoev, Shavkat. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)-soni. [uza.uz](http://uza.uz).

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a‘zolariga 2018 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomasi. //Zarafshon, 2018 yil 28 dekabr. [uza.uz](http://uza.uz).

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a‘zolariga 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomasi. //Zarafshon, 2017 yil 23 dekabr.[uza.uz](http://uza.uz).

14. Mirzieyov Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini

ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligida bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. – T.: O'zbekiston, 2017.

15. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutq. 2016 yil 8 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

16. Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VIII c'ezdidagi ma'ruza. 2016 yil 19 oktyabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

17. Mirziyoev Sh.M. Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2016 yil 14 dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

18. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

19. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.- 592 b.

20. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.- 304 b.

21. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 439 b.

#### **4. Darsliklar.**

22. Mamatov A.A., Abulqosimov X.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy aytish. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat 2 universiteti, 2020.- 731 bet.

23. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, A.J.Ismoilov “Iqtisodiy” O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil, 200 bet.

24. Iqtisodiy xavfsizlik: darslik. nafaqa / M.A. Gundorova; Vladimir. davlat un-t im. A.G. va N.G.Stoletovlar. - Vladimir: VIGU nashriyoti, 2020. - 207 p.

25. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy hafsizlik: Nazaria va amaliy. Ukuv ishlatish. - T. : Noshirlik fidushi, 2019 - 620 garov.

26. Abulqosimov X.G., Rasulov T.S. va b. Mamlakat iqtisodiy havfsizligi va rakobatbardoshligini ta'minlashning barqaror yunalishlari. Monografiya. - T.: "Innovation rivozhlanish nashriyot - matbaa uyi". 2019. - 395 6.

27. Kovalyov A.A. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi. Darslik - Sankt-Peterburg: Konovalova A.M. nashriyoti, 2019-188s.

28. Iqtisodiy xavfsizlik: universitetlar uchun darslik / umumiy. Ed. L.P.Goncharova - 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. va qo'shimcha - M. : Yurayt nashriyoti, 2018.- 340s.

29. Kuznetsova E.I. Iqtisodiy xavfsizlik: universitetlar uchun darslik va seminar / E.I. Kuznetsova. - M.: Yurayt nashriyoti, 2019-294 b.

30. Belovitskiy K.V., Nikolaev V.G. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik-M.: Ilmiy maslahatchi, 2017-286s.

31. Kuntsman M.V. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik.-M.: MADI, 2016-152s.

32. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanidan o'quv-uslubiy majmua. Komilova N.A. - Samarqand: SamIES, 2022.





**L.N.Xalikova, B.A.Iskandarov**

## **IQTISODIY XAVFSIZLIK**

### **O‘quv qo‘llanma**

**Muharrir:** Z. Meliyev

**Musahhih:** Z.N. Bobodustov

**Texnik muharrir:** D. Hamrayev

*O‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Kengashining 2023 - yil 19 - iyndagi 11-sonli qaroriga asosan nashr  
etishga tavsiya etilgan.*

© «FAN BULOG‘I» nashriyoti, Samarqand - 2023

**ISBN: 978-9910-9864-6-8**

Nashriyot lisenziyasi:

№ 4341-5160-642c-944b-ab74-5062-3969

Bosishga ruxsat etildi: 18.10.2023 y.

© «FAN BULOG‘I» nashriyoti, Samarqand sh.

S.Buhoriy ko‘chasi, 1-11 uy.

**Qog‘oz bichimi A5, 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>, Ofset qog‘ozi.**

**“Times New Roman” garniturasini.**

**Nashr bosma tabog‘i 14,62**

**Buyurtma № 0084A/23 Adadi 100 nusxa**

---

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
matbaa bo‘limida chop etildi.**

**LICENSE № 025316.**

**REESTR № X-119112.**

**Manzil:** Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy.